LIZOSOMALAR. Lizosomalar xajmi jix.atidan mitoxondriyalarga teng, lekin solishtirma ogirligi ulardan kam bo'lgan organoidlardir. Ular asosan nordon fermentlar manbai bo'lib hisoblanadi. Bu fermentlar katoriga nordon ribonukleaza, nordon dezoksiribonukleaza va katepsinlar kiradi. Ayniqsa, oksillarni, nuklein kislotalarini, glyukozidlarni gidroliz k.ilishda ishtirok etuvchi fermentlar to'plagan. Bu fermentlar xujayradagi turli moddalarni suv yordamida parchalay olishi sababli ularga lizosomalar deb nom berilgan. Bular barcha tirik xujayralar uchun universal organoid hisoblanadi. Ular xujayradagi ozuka moddalarni x.azm kiluvchi organ sifatida x.am karaladi. Lizosoma ichida boradigan xazm jarayoni natijasida hosil bo'lgan aminokislotalar, nukleotidlarni lizosomalar membranasi orqali diffuziya қlinib, tsitoplazmaga chikadi. Bu moddalar xujayraning nafas olish jarayonida yoki makromolekul al arnin g biosintezida katnashadi.

PYeROKSISOMALAR Protoplazmadagi sunggi yillarda aniklangan juda kichik organoidlardan biri peroksisomalardir. Peroxisoma atamasi birinchi marta 1965 yilda xayvon xujayrasini o'rghanish natijasida De-Dyuv tomonidan taklif etilgan edi. Bularning o'simlik xujayrasida ham borligi 1968 yilda Tolbert tomonidan aniqlangan.

Peroxisoma xajmi jixatidan mitoxondriyalarga yakин turadi. O'simliklarda asosan dumalok. shaklda bo'lib, diametri 0,2-1,5 mkm. Ular membrana kavati bilan uralgan, mitoxondriyalardan kichikrok. va kristal-lari yuk.. Peroxisomalarda yoruflikda nafas olish (fotodxanie) fer-mentlari ko'prok.. Shuning uchun ham ular barglarda ko'p bo'ladi va xloroplastlar bilan doimiy aloqa qiladi. Ayrim olimlarning fikricha, Aperoxsisomalar endoplazmatik to'r membranasi sathida yuzaga keladi va anjralib chiqadi.

GLIOKSISOMALAR. Glioksisomalar ham peroxisomalar guruhiba kiradi. Bu organoidlar unayotgan urug' xujayralarida hosil bo'ladi. Ular-asosan yog' kislotalarini uzgartirib, shakar hosil k.ilishda ishtirok etuvchi fermentlar ko'prok.to'planadi. Ular xajmi jixatidan peroksiso-malarga teng va endoplazmatik tur bilan boglik.

SFYeROSOMALAR. Bu organoidlarni 1880 yilda Ganshteyn kashf etgan va "mikrosoma" deb nom bergan. Keyinchalik shakliga karab, sferosoma deb yuritila boshlandi. Shakli dumalok., yorurlikni kuchli singdirish krbiliyatli, diametri 0,5-1 mkm. Endoplazmatik turdan hosil bo'ladi va ajralib chikadi. Tanasidalipidlar ko'p shuning uchun ular lipidtomchilari ham deyiladi. Sferosomalarda fermentlardan lipaza, esteraza, proteaza, nordon fosfataza, RNKaza, DNKaza topilgan. Ularda

asosan ferment lipaza ko'p bo'lganligi yog'larning ko'proq sintez kili-nishi va to'plaishiga sharoit yaratib beradi. Bajaradigan funktsiyalari lizosomalarinikiga ham o'xshab ketadi.

MIKRONAYCHALAR. Xujayra tsitoplazmasiningtashqi қatlamida naychasimon organoidlar joylashgan. Ularning uzunligi 20-30 nm. Devo-rining kalinligi 5-14 nm. Mikronaychalar o'simliklar va hayvon xujayralarida mavjud organoiddir. Ularning қatlami mdmboanapan iborat bo'lmay, globulyar makromolekulalarning tuzilgan. Xujayradagi tsitoplazmaning harakati ikronaychalar boflik, deb tushuntiriladi, chunki ular tsitoplazmaning harakatini vujudga keltiradigan almashuv jaraenida ishtirok etadilar.

VAKUOLALAR – o'simlikxujayrasining tirik organoididir. O'simlik xujayralarining protoplazmasi tarkibida juda ko'p suv bo'lishi bilan hayvon xujayrasidan farq. kiladi. Shuning uchun ham o'simlik xujayrasida vakuola tizimi yaxshi taravdiy etgan.

Yosh xujayralarda vakuola urniga endoplazmatik tur kanallarida joylashgan pufakchalar bo'ladi. Xujayraning voyaga yetish jaraenida bu pufakchadar bir-biri bilan ko'shib yiriklasha boshlaydi va endoplazmatik turdan ajralib, xujayra markazidagi yirik va yagona vakuolaga aylanadi. Uni urab to'rgan membrana endoplazmatik tur tonoplast, vakuolani tulatib to'rgan suyuklik xujayra shirasini deyiladi. Voyaga yetgan xujayralarning markazida yagona vakuola hosil bo'lib, uning xajmi umumiy xujayra xajmining 90 foizigacha yetishi mumkin. Hujaira shirasining 96-98 foizi suvdan iborat bo'lib, uning tarkibida modda almashinish jaraenida ajralib chiedan organik kislotalar, Oqsillar, aminokislotalar, uglevodlar, alkaloidlar, glikozidlar, oshlovchi moddalar, xar xil tuzlar, efir moylari, pigmentlar va boshqalar bo'ladi. Bu moddalarning vakuolada to'plaa borishi xujayra shirasining ham kontsentratsiyasini oshira boradi. Xujayra shirasi azotda nordon reaktsiyaga ega suyukllkdir. Ko'pchilik xrlarda rN 5, 0-6, 5, limonda - 2, begoniya usimligida — 1 atrofida bo'ladi. Ayrim xrlarda esa kuchsiz ishkriy reaktsiyaga ham ega bo'lishi mumkin (oshkrvok, bodring, krvun).

Vakuolalarning asosiy biologik roli shundaki, ular uzlarida tupla-gan kontsentratsiyali xujayra shirasi hisobiga osmotik xususiyatlarga ega bo'ladi. Buning natijasida esa xujayraning so'rish kuchi, turgor bosimi va suv rejimi boshqariladi. Tirik o'simliklarda esa suvning va mineral elementlarning қабул k'ilinishi,.x.arakati vataksimlanishi idora kiladi. Xujayradagi modda almashuvidan hosil bo'lган chiқindi maxsulotlar x.am (alkaloidlar, polifenollar, steroid va boshqalar) shu vakuolalarda to'planadilar. o'simliklarda x.osil bo'lган uglevodlar va oksid moddalarini ham xujayra shirasida zaxira xrlda to'planadi. Umuman o'simliklarning turiga, xujayra, tuқima yoki organlariga karab xujayra shirasi o'zgarib turadi .

6-7 mavzular. PROTOPLAZMANING FIZIK KIMYOVİY XOSSALARI, QOVUSHQOQLIGI VA ELASTIKLIGI

Reja:

1. Protoplazmaning strukturası
2. Protoplazmaning fizik xossalari: o'tkazuvchanlik, қovushqoqlik, elastiklik, ta'sirlanuvchanlik
3. Tsitoplazma va organoidlar harakati.
4. O'simlik hujayrasining osmatik xususiyati
5. Protoplazmaning kimyoviy xossalari
6. Osmatik bosim. Turgor va plazmoliz.

PROTOPLAZMA. Protoplazma xujayra ichidagi tsitoplazma va organoidlar bilan birgalikda bir butunni tashqil etib, unda metabolistik jarayonning murakkab reaktsiyalari sodir bo'ladi.

Tsitoplazma protoplazmaning asosiy qismini tashqil etuvchi suyuqlikdir. Boshqa organoidlar asosan tsitoplazma ichida joylashadi. Ularning hosil bo'lishi, rivojlanishi va uzlarining funksional va-zifalarini bajarishlari uchun fakat tsitoplazma ichidagina optimal sharoit bo'ladi. O'simlik xujayrasini tuldirib to'rgan tsitoplazma uch қavatdan iboratdir. Sirt tomonidan xujayra devoriga yopishib turuvchi қavati—plazmolemma, ya'ni tashki membrana deyiladi. Ichki қavati vakuoladan chegaralanib turadi va u tonoplast yoki ichki membranani tashqil etadi. Tsitoplazmaning urta қavati mezopdazma deyiladi. Xujayraning metabolistik jaraenida ishtirok etuvchi barcha organoidlar tsitoplazmaning mezoplazma kavatida joylashgan bo'ladi.

Tsitoplazma shilimshik,, rangsiz, tinik. va yarim suyuk, holatdagi modda. Solishtirma ogirligi birdan yukori bo'lib, 1,025-1, 055 ga teng bo'ladi. Yoruqliknini singdirish qobiliyatini ham suvdan Yuqoriidir. U maxsus tuzilmaviy tuzilishga, ya'ni қovushqoqlik va elastiklik xususiyatlariga ham ega.

Protoplazmaning kimyoviy tarkibi juda murakkab bo'lib, organik va anorganik birikmalardan iborat. Ular kolloid va erigan xilda bo'ladi.

Karam bargi misolida xujayra tsitoplazmasining kimyoviy tarkibini kuyidagicha ko'rsatish mumkin: oksillar - 63-64 foiz, yorlar -20-21 foiz, uglevodlar - 9-10 foiz va mineral moddalar 6-7 foiz. Tirik hujayra protoplazmasi ni 80 foizgacha suv tashqil etadi. Uruflarda esa 10-11foizi bo'lishi mumkin. Umuman protoplazmaning ko'pchilik қismi suv, қolgan қismini қuruқ. moddalar tashqil etadi. Қuruқ moddalarning esa asosiy қismini oksillar tashqil қiladi.

TsITOPLAZMANING HARAKATI.. Tirik xujayra ichidagi tsitoplazmaning doim aylanma va oqimsimon harakat kilib turishi uning muhim xususiyatlaridan biridir. Odatda protoplazmaning hammasi ham bunda ishtirok etmaydi. Xujayraning pustiga tao'alib turadigan қismi — plazmolemma va tonoplast tinch turadi. Protoplazmadagi organoidlar esa tsitoplazmaga kushilib passiv harakatlanadi. Tsitoplazmaning harakat tezligini organidlarning harakatini kuzatish va ulhash yuli bilan aniqlash mumkin.

Aylanma (rotatsion) harakat odatda protoplazmasi xujayra pustiga yakin joilashgan, urta kysmi esa katta vakuola bilan band bo'lgan xujay-ralarda kuzztiladi. Protoplazma guyo xujayraning markazi atrofida aylanganday bir

tomonga karab harakatlanadi. Buni suv o'simliklari — elodeya yoki valisneriyaning xujayralarida kurish mumkin.

Oqimsimon (tsirkulyatsiey) shaklida protoplazma x.arakati talay-gina ingichka oqimlar xolida xar tomonga yunalgan bo'ladi. Vaqtı-vaqtı bilan xar bir oqim uz yunalishini uzgartirib, teskari tomonga okadi. Kdrama-karshi oqimlar yonma-yon bo'ladi. Xujayralarning markaziy Qismidagi oqimlar ham uz joylarini uzgartiribturadi. Buni tradeskantsiyaning chang iplari tuklarida, oshqovoqning yosh shoxlaridagi tuklarida ham ko'rish mumkin.

Protoplazmaning harakati birlamchi va ikkilamchi bo'lishi mumkin. Zararlanmagan va me'yoriy sharoitdagi tabiiy harakat birlamchi harakat deyiladi. Ikkilamchi harakat tinch to'rgan protoplazmaga tashqi ta'sir, ya'ni yondosh xujayralarning zararlanishi (kesish, jaroxatlanish), xarorat, yoruqlik, kimyoviy moddalar, elektr toki va boshqalarning ta'siri natijasida tezlashadi. Ta'sir kuchli bo'lganda harakatni tuxtatish ham mumkin.

Tsitoplazma x.arakati natijasida protoplazma va organoidlar ozuka moddalar, kislород, suv va mineral moddalar bilan to'fri ta'minlana-di. Protoplazmadagi organoidlar x.am passiv x.arakat natijasida uzlarining funksional vazifalarini yaxshirok, bajaradilar.

Kovushkoklik xujayra hayotidagi eng mux.im xususiyatlardan biri. U xujayraning x.ayotiyligini va bioqimyoviy faolligini belgilaydi. Kovushkoko'ik deb eritmaning shu eritmadi zarrachalarning uzaro ara-lashishiga tuskinlik қilish k. obiliyatiga aytiladi (molekulalar, ion-lararovaboshqalar). Kovushk.oklik protoplazmaning tuzilmaviy xola-tini va bu tuzilmani tuzuvchi kolloid zarralarning o'zaro tortishuv kuchini belgilaydi. O'simlik xujayralari protoplazmasining k.ovushk.oklik darajasi ularning turlariga va navlariga k.arab xar xil bo'ladi vahayotiy jarayonida (jumladan, modda almashinuv, x.aroratning ko'tarilishi yoki pasayishi) uzgarib turadi. o'simliklarning ekologik guruxlarida x.am kovusho'oklik x.ar xil darajada, masalan, kurrok.chilik sharoitiga moslashgan o'simliklarda mezofitlarga nisbatan ancha yuk.ori, suv o'simliklarida esa aksincha ancha past bo'ladi.

Elastiklik x.am protoplazmaning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Elastiklik deb zararlanmagan tirik protoplazmaning shakli uzgarti-rilganda u avvalgi xrlatiga kaytish xususiyatiga aytiladi. Pdazmaning elastikligini uning juda ingichka tola holatigacha uzilmasdan chuzila olish xususiyatida ham kurish mumkin. Bu protoplazmaning ma'lum tuzil-madan iborat ekanligidan dalolat beradi. Protoplazmaning suv bilan ara-lashmasligi sababli uni toza suyuklik deb bo'lmaydi.

O'SIMLIK XUJAYRASINING OSMOTIK XUSUSIYATLARI. DIFFUZIYA VA OSMOS. Xujayraninghayotiyligi undagi doimiy modda almashinuv jarayonining mavjudligiga boflik., ya'ni xz'jayralar tashqi sharoitdan yoki yonma-yon joylashgan dujayralardan tuxtovsiz k.abul k.iladi, ayrim moddalarni esa aksincha, uzidan chikaradi. Demak, o'simlikning hayoti uni tashqil k.ilgan xz'jayralarning tashqi va ichki muhit omillari bilan munosabati orkali amalga oshadi. Bulardan eng muhimi xujayralarga tashqi muhitdan suv va unda erigan moddalarning kirishi va xujayralararo x.arakatidir. Ana shu jarayonlarda o'simlik xujayralarida mavjud bo'lgan osmotik potentsial katta rol uynaydi. Bu esa diffuziya va osmos konunlaridan kelib chikadi.

Umumiy tizimda moddalarning bir joydan ikkinchi joyga siljитish diffuziya deiiladi. Diffuziyalanuvchi modda uz yulida parda uchratsa, uning tarkalishi ancha kiyinlashadi. Xujayraning tsellyuloza, gemitsellyulozadan iborat pusti ham shunga uxshash pardalar katoriga kiradi.

Suyuk va erigan moddalarning parda orkali diffuziyalanishxrdisasi osmos deiiladi. Eritmaning parda orkali ichkariga kirishiga endoosmos, tashқariga chiқishiga esa ekzoosmos deiiladi. Keyingi yillarda utkazilgan tekshirishlarning ko’rsatishicha, fakat erituvchilarni (suv) utkazib, erigan moddalarni butunlay utkazmaidigan pardalar ham borligi aniklandi. Bunday pardalar tanlab utkazuvchi pardalar deb ataladi.

OSMOTIK BOSIM.. Ekzoosmosdan kura endoosmosning kuchlirok bo’lishi natijasida rivojlanib, pufakning ichki tomonidan itaruvchi gidrostatik bosim — osmotik bosim deb ataladi. Bunday bosimning mav-judligini birinchi marta 1826 yilda frantsuz botanigi Dyutroshe isbot-lab bergen. Buni isbotlashda kullanilgan asbob esa Dyutroshe osmomet-ri deiiladi. Bu osmometr bilan osmotik krnuniyatni kurib chiқish uchun x.ayvon kovugidan yoki pergament kogozidan xaltachatayyorlab, uni tez diffuziya kilmaydigan modda bilan (saxaroza, glyukoza) tulga-zib suvga solsak, xaltacha shishaboshlaydi, uning devorlari tarang bo’lib krladi va ichkaridan x.osil bo’lgan bosimga chidolmay yoriladi. Agar xaltacha orzini butunlay boglash urniga shisha nay urnatilsa, uning ichidagi suyuklik balandligi ichki bosim ta’sirida kuxarila boshlaydi. Bu jara yon dastlab tezrok. borib, keyinchalik sekinlashadi va tuxtab usladi, keyin esa yana pasaya boshlaydi. Chunki Dyutroshe ishlatgan parda (plyonka) yarim utkazgich xususiyatiga ega emas edi. Bu tajribani 1877 yilda V.Pfeffer o’simlik xujayrasiga yakinrok. xrlda utkazgan. Buninguchun u mayda teshikchali chini tsilindr ichiga mis ko’porosi eritmasini solgan va tsilindrni sarik. kon tuzi K4 [Re(gK6>] eritmasi ichiga tushirgan. Natijada o’simlik xujayrasiga yakinrok.yarimutk&zgich membrana hosil bo’lgan. Pfeffer osmotik bosimning kiymati turli sharoitga boflik. bo’lganini shu osmometr yordamida tekshirib, uning eritma kontsentratsiyasiga nisbatan tutri proportsional ekanligini aniklagan.

O’simliklarning xujayrasida x.am shunday jarayonlar sodir bo’lishi mumkin, ya’ni o’simlik xujayrasining pustida elastiklik xususiyati mavjud bo’lib, chuzilish krbiliyatiga ega. Suv va erigan moddalarni uzidan utkazadi. Lekin protoplazma membrana k.avatlarining mavjudli-gi (plazmolemma vatonoshtast) sababli turli mod-dalar ga nisbatan tanlab utkazuvchanlik xususiyatiga ega. Uning bu xususiyati suv va suvda erigan moddalarning xujayra shirasiga turli tez-likda utishiga asoslanadi.

O’simlik xujayrasining vakuolasida juda ko’p osmotik faol moddalarto’planadi. Bularga shakar, organik kislota va tuzlar kiradi. Xujayra shirasida osmotik faol moddalalar kancha ko’p to’plasa, unda osmotik bosim shuncha yuqrri bo’ladi. Xujayraning osmotik bosimini Vant-Goff formulasi bo’yicha aniklasa bo’ladi: $R = \frac{1}{L} \ln \left(\frac{P_1}{P_2} \right) = \frac{RT}{M} \ln \left(\frac{P_1}{P_2} \right)$, Ya-osmotik bosim, S—eritma kontsentratsiyasi, L=gazlarning doimiy koeffitsienti - 0, 08207 ga teng, /"-absolyut xarorat, / izotonik koeffitsient bo’lib, elektrolit eritmalar uchun 1 ga va elektrolitmas eritmalar uchun 1,5 ga teng.

Osmotik bosim o’simlik turlariga, ularning yashash sharoitlariga va xatto organlariga ham boflik., ya’ni ko’pchilik mezofitlarningildizida O₃-1,2 MPa

gatengbulsa, yerusti qismida 1,0-2,6 MPa ga teng. Shur tuproqlarda yashovchiosimliklarda (galofitlarda) eng yukori - 15MPa gacha bo'ladi.

TURGOR VA PLAZMOLIZ. Tirik xujayraga moddalarning kirishida lrotoplazmaning plazmolemma kavati asosiy vazifani bajaradi. Bu kavat yarim utkazuvchi bo'lib, suvni yaxshi utkazadi, suvda erigan moddalarning ba'zilarini oson yoki yomon utkazsa, ayrimlarini umuman utkazmaydi.

Agar o'simlik xujayrasini toza suv ichiga tushirsak, xujayra proto-plazmasi suvni osonlik bilan utkazganligi sababli fjayra suvni tortib ola boshlaydi. Xujayra shirasining osmotik bosimi kancha yukrri bulsa, shuncha yukori kuch bilan suv vakuolaga tortiladi. Suv xujayra pusti, plazmolemma, mezoplazma vatonoplastorkali diffuziyalanib, xujayra shirasiga kushila boshlaydi. Bu jarayon xujayrada pustning karshiliqi bilan shiraning osmotik bosimi tenglashgancha davom etadi, ya'ni suvning ichkariga kirishi tuxtaydi. Chunki xujayraning turgor holati sodir bo'ladi. Tirik xujayra pusti tuda suv bilan ta'minlanishi natijasida tarang turishiga turgor deyiladi. Xujayra pustining taranglanishi natijasida hosil bo'lgan va ichkariga itaradigan kuch turgor bosimi deyiladi.

Xujayralarning turgor holatidan yuzaga kelgan umumiylar taranglik : butuno'simlik organizmining tarang xrdaturishini, barglar, novda-larning tik turishi holatini, umuman o'simlikning me'yoriy fizik xolatini ta'minlaydi.

Agar xujayra kontsentratsiyasi xujayra shirasining kontsentratsiya-sidan yukori bo'lgan eritmaga (osh tuzi yoki shakar eritmasiga) solinsa, turgorning aksini kuzatish mumkin.

Tashqi eritmaning kontsentratsiyasi yukrri bo'lganligi sababli, xujayra shirasidan suv tashqi eritmaga chika boshlaydi. Buning natijasida vakuolaning xajmi kichrayib, xujayra shirasining kontsentratsiyasi ortib boradi. Vakuola qisqargan sari uni urab to'rgan tsitoplazma ham qisqarib, oxiri u xujayra pustidan ajrala boshlaydi. Tashqi eritma esa pust bilan protoplazma urtasida hosil bo'lgan bushlikni egallaydi. Protoplazma qisqarib, xujayra pustidan ajralishiga plazmoliz deyiladi. Plazmolizlangan xujayra yana toza suvga solinsa, u yana suvni shimbilib turgor xrlatigakaytishi mumkin. Bujarayongadeplazmoliz deyiladi.

Xujayralarda sodir bo'ladigan plazmoliz ikki xil shaklda uchrashi mumkin. Dastlab protoplazma xujayra burchaklaridan ajrala boshlaydi, sungra xamma devorlaridan ajraladi. Lekin ancha vaqtgacha xujayraning ayrim joylarida protoplast pust bilan birikkan holda qoladi va botik, chegarali shaklga kiradi. Bunga botik, formali plazmoliz deyiladi. Agar protoplast hujayra pustidan tula ajralib to'plaib qolsa, dumalok shaklga kiradi. Plazmolizning bundam formasini kavarik plazmoliz deyiladi

Umuman O'simliklar xujayra shirasining osmotik bosimi ular yashayotgan muhit eritmasining osmotik bosimidan Yuqoriroq bo'lishi shart. Shundagina o'simlik xujayralarining turgor holati sako'panadi.

HUJAYRANING SO'RISH KUCHI. O'simlik xujayrasining kolloid va osmotik xususiyatlari xujayraga tashqi muxitdan suv utish krnunlarini belgilaydi.

Kuruk ururlarga suvning shimalishi ulardagi zaxira organik modda-larning kolloid mitsellalarining burtishi natijasida sodir bo'ladi. Oqsil moddalari eng ko'p kraxmal kamrok. burtish qobiliyatiga ega. Shuning uchun xam tarkibida Oqsil yoki kraxmal bo'lgan kuruk uruflar burtgan vaqtida suvni juda katta kuch bilan tortadi. Bu kuch 1000 atmosferagacha yetadi. Lekin urur xujayralari suv bilan ta'minlanish

jaraenida ular suv tortish kuchi kamaya boradi. Ururlarning bu krbiliyati ularning unib chiqishini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega.

Yosh nixrlarning va o’simliklarning suv bilan ta‘minlanishiga xujayradagi osmotik bosim sababchi bo’ladi. Xujayraning suvni so’rish kuchi uning osmotik bosimiga turri proportsionaldir. Ya‘ni xujayraga suvning kirish kuchi Xujayraning so’rish kuchi deyiladi. Bu kuch xujayra shirasining osmotik va turgor bosimlari munosabati bilan belgilana-di: $8=R-T$, bu yerda, $5 = \frac{R}{T}$ xujayraning so’rish kuchi (atm), R— osmotik bosim (atm), T— turgor bosim (atm). Osmotik bosim kancha yukrri bulsa, so’rish kuchi o’am ortib boradi. Turgor bosimi kamaygan sari so’rish kuchi ortib boradi va $T = 0$ bo’lgan vaqtda xujayraning so’rish kuchi eng yukrri ko’rsatkichga ega bo’ladi. **XUJAYRANING KIMYOVIY TARKIBI.** O’simlik xujayrasining kimyoviy tarkibi juda murakkab bo’lib, organik va anorganik birikmalardan iborat. Ular xujayrada kolloid va erigan xrlda bo’ladi. Bu ularda tinimsiz boradigan modda almashinuv natijasidir. Metabolitik jarayon natijasida o’simliklar uzini urab to’rgan tashqi sharoit bilan ma‘lum munosabatda bo’ladi va davriy tizimda uchraydigan elementlarnin’g ko’pchiliginini qabul kilib oladi. Mazkur elementlar uplash-tirilishi natijasida xujayraning organik va mineral tarkibi hosil bo’ladi. Shu elementlardan 19 tasi tiriklik jarayonining asosini •gashkil ‘etadi. Bularning 16 tasi (fosfor, azot, kaliy, kaltsiy, oltingugurt, magniy, temir, marganets, mis, rux, molibden, bor, xlor, natriy, kremniy, kobalt) mineral elementlar gurux.iga kiradi. Kolganlari (S, N, O) SO₂, O₂ va NgO holida qabul kilinadi.

Xujayra tarkibidagi 4 ta element — S, N, O, N organogenlar deyiladi va umumiy miqdorining 96 foizini tashqil etadi. Ya‘ni xujayraning kurukogirligiga nisbatan uglerod — 45 foizi, kislorod - 42 foizi, vodorod - 6,5 foizi va azot - 1,5 foizi. Kalgan hamma elementlar 5 foizga to’fri keladi. O’simlik tanasida uchraydigan ko’pchilik elementlarning roli yaxshi o’rganilgan.

Umuman, o’simlik xujayrasining urtacha 80-85 foizini suv va қuruқ moddaning ogirligiga nisbatan 95-96 foizini organik moddalar tashqil etadi.

Savollar

1. Tsitoplazma va uning asosiy xususiyatlari xamda tashqi muhitning tsitoplazma xususiyatlariga ta‘siri
2. Mitochondriya, ribosoma va plastidalarning strukturasi va funktsiyasi
3. Xujayra pustining tuzilishi va funktsiyasi
4. Mitochondriya, yadro, endoplazmatik turning
5. Ribosoma mitochondriya va lizosomalarning tuzilishi va funktsiyasi
- 6.. Xujayra o’simlik organizmining asosiy strukturasi va fiziologik birligidir.
7. O’simliklar ning harakatlanishi bo'yicha I. Darwin, A. G. Genkel va N. G. Xolodniylarning fikrlari.
8. Golji aparati, endoplazmatik tur, ribosma va ularning struktura va funktsiyasi.
9. Xloroplastlarning kimyoviy tarkibi, strukturasi va ultrastrukturasi
10. O’simlik xujayrasining asosiy komponentlari va xujayra komponentlarining mikroskopik tuzilish.
11. Fosforlanish tsiklik va notsiklik fosforlanishni tushuntiring.

12. Osmos. Osmatik bosim. Plazmoliz va deplazmoliz hodisalari

FOYDALANILGAN ASOSIY ADABIYOTLAR.

1. Pleshkov B.P. Bioximiya selskoxozyaystvennx rasteniy. M. "Kolos" 1969 g.
2. Lebedov S.I. Fiziologiya rasteniy. M. 1988 g.
3. Yakushkina N.I. Fiziologiya rasteniy. M. 1980 g.
4. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya asoslari. T. 1995 y.
4. Xo'jaev J. X O'simliklar fiziologiyasi Toshkent "Mexnat" 2004
5. Rubin B.A. Kurs fiziologii rasteniy. M. 1976 g.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR.

1. A. Imomaliev va A. Zikiryoev. O'simliklar bioximiysi. T. 1978 y.
2. Timiryazev K.A. O'simliklar hayoti. T. 1967 y.
3. To'raqulov Yo.X. Bioximiya. T. 1970 y.

III- BOB. O'SIMLIKLARDA OQSIL NUKLYeIN KISLOTALAR VA ULARNING ALMASHINUVI

8 mavzu. XUJAYRALARDА MODDALAR ALMASHINUVI

Reja:

1. Moddalar almashinuvi hujayralarning muhim xususiyatlaridandir.
2. Hujayravning konstitutsion va zahira moddalari.

Organik moddalarning har қaysisi hujayrada mavjud bo'lgan ayrim uchastkalarda-k a m p o r t m ye n t l a r d a sintezlanadi. Kamportmentlar – hujayradagi erkin bo'shliklardan tsitoplazma va vakuolni ko'rsatish mumkin. Shu bo'shliklarda hosil bo'lgan va to'plangan shakar, glyukoza, fruktoza kabi moddalar tashki muhitga chiqariladigan birikmalardir. Ularning harakatlanishini hujayra membranalari tomonidan nazorat қilinmaydi.

Markaziy vakuolda organik kislotalar, oshlovchi moddalar, alkoloидлар va boshqa birikmalar to'planadi. Tsitoplazmada esa maxsus membranalar bilan o'ralgan organoidlar o'ziga xos organik moddalarni hosil қilishdareaksiyon kamportmentlar bo'lib hisoblanadi. Jumladan, sferosomalarda yog'lar, translosomalarda turli fenol birikmali, ribosomalarda oksillar sintezlanadi. Sintezlangan Yuqorii molekulali moddalarning har қaysisi o'ziga xos vazifani o'taydi. Masalan, DNK irsiyat belgilarini nasldan-naslga o'tishini va turli-tuman oksillarni, shu jumladan oksil fermentlari hosil bo'lishini boshqaradi.

O'simliklar tanasidagi organik birikmalar turli-tuman bo'lishi bilan birga ularning funksiyasi ham xilma-xildir. Ularning ba'zilari konstitutsion modda bo'lib, o'simliklar tanasini va hujayra organoidlarini tuzilishida ishtirok etadi. Boshqalari zahira ozik modda sifatida va fiziologik aktiv birikma shaklida o'simliklaning hayot jarayonidagi moddalar almashinuvida ishtirok etadi. Ammo o'simliklar tarkibidagi moddalar o'z shaklini o'zgartirib turadi. Masalan, zahira holdagi kraxmal, fermentlar ta'sirida parchalanib, nafas olish jarayonida sarflanishi mumkin yoki zahira holdagi oksillarning parchalanishidagi aminokislotalar tsitoplazma hosil bo'lishida ishtirok etadigan oksil birikmalariga ko'shilib konstitutsion modda sifatida o'zgaradi. Konstitutsion hisoblangan moddalar ham fermentlar ishtirokida parchalanib, ozik moddalar qatorida sarflanadi.

Xulosa qilib aytganda, organik moddalarning bir turdan ikkinchi turga aylanishi, ya'ni o'zgarib turishi tirik organizmlar uchun xos xodisadir. Masalan, oksil molekulalari ham \ar 10-15 kunda yangilanib turadi. Tirik organizmlar tarkibidagi murakkab moddalar oksil tabiatli maxsus birikmalar, fermentlar ishtirokida o'zgarib turadi.

Xuja'yralardagi moddalar almashinuvi (metabolizm) murakkab moddalarning uzluksiz ravishda sodda moddalarga parchalanib turishidan va murakkab moddalarning sintezlanishidan iborat. O'simlik va boshqa tirik organizmlar xujayralarda sodir buluvchi moddalar o'zgarishi va energiya almashinuvi fizika va kimyoning konunlariga bo'ysunadi, shuning uchun tirik tizimlarga bu krnun va tamoyillarni kz?llash mumkinligi e'ti-rof etiladi. Umumiy jarayonlarning mohiyati termodynamikaning birin-chi va ikkinchi krnunlari asosida tushuntiriladi.

Termodynamikaning birinchi krnuniga kura ichki energiya (Ye) fa-kat issiklik x.olida energiyani kuchirish jarayonida yoki ish bajaril-ganda uzgarishi kuzatiladi. Boshqacha kilib aytganda, energiyani yaratish va yuk. k.ilish mumkin emas:

Bajarilgan ish mexanik, elektrik yoki kimyoviy (sintez) bo'lishi mumkin. Ajratib olingan tizimlar uchun ularning ichki energiyasining uzgarishi kuyidagi formula bo'yicha aniklanadi: ya'ni tizim ichki energiyasining ko'payishi unga berilgan issiklik va tashqi muhitning tizim ustida bajargan ishi yigindisiga tengdir.

Demak, bu konunga ko'/ra energiya kaytadan hosil bo'lmaydi va yuk.olmaydi, fakat bir shakldan ikkinchi shaklga utadi. Ajratib olingan tizim energiyasining umumiy miqdori doimiy bo'lib koladi. Birinchi konun tirik tizimlarga kullanishi mumkin.

O'simlik xujayralarda fermentlar ishtirokida ekzergonik reak-tsiyalar uz-uzidan ketishi mumkin, ular kimyoviy potentsialning manfiy uzgarishi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga xujayralarda endergonik jarayonlar sodir bo'ladi, ya'ni odtsiy moddalardan murakkab moddalarning sintezi, unda energiya talab k.ilinadi va u energiyani bir-biriga boglangan ekzergonik jarayonlardan oladi.

Organ izmlardagi xar bir tirik xujayra murakkab tizimlardan iborat. Uning tarkibi uzluksiz faollikda bo'ladi: moddalarning xujayraga kirishi vatashkarigachik.ishi doimiy xarakterga ega.

Xujayrada sodir bo'ladigan hamma reaktsiyalarni ikki gurux,ga ajratish mumkin: anabolistik reaktsiyalar — kichik va oddiy molekulalardan yirik molekulalarning sintez kilinish reaktsiyalari; bu jarayonlar uchun energiya sarflanadi, ya'ni endergonik jarayonlar:

Katabolitik reaktsiyalar - yirik molekulalarning kichik va oddiy molekulalarga parchalanish reaktsiyalari; bu jarayonlarda energiya ajra-ladi - ekzergonik jarayonlar:

Uz navbatida hosil bo'lgan oddiy molekulalar kayta biosintezda foydalanishi mumkin. Xujayrada sodir bulayotgan katabolitik va anabolitik reaktsiyalar yirindisi birgalikda xujayraning metabolizmini tashqil etadi:

Katabolizm + Anabolizm = Metabolizm.

Xujayraga kirayotgan organik modtsalar yangi xujayraviy komponentlarning biosintezi va kimyoviy energiya manbai sifatida xizmat kiladi. Organik moddalarning parchalanishi natijasida hosil bo'lgan energiyaning ko'pchilik qismi xujayraning hayotiy jarayonlari uchun foydalaniladi. Energiya xujayraning turli qismlariga tarkaladi va bir shakldan ikkinchi shaklga utadi. Natijada energiyaning xar bir shakli xujayradagi ma'lum bir ishni bajarish uchun xizmat kiladi. Bular biosintez, xujayraning bulinishi, ko'payishi, faol transport (suv, mineral va organik moddalar), osmos va boshqalar bo'lishi mumkin. Tirik hujayralar uchun eng zaruri kimyoviy energiya bo'lib, u xujayra kismlariga va xujayradan-xujayragatezkaziladi va samarali foydalaniladi.

Ayrim fosfat birikmalar gidrolizlanishi natijasida ajraladigan erkin energiya

Umuman barcha tirik organizmlardagi energiyaning birlamchi manbai kuyoshdir. Organizmlarda energiya bir shakldan ikkinchi shaklga tez utadi va ish bajaradi, bir qismi esa atrof mux.niga tarkaladi. Ammo energiyaning ozika zanjiriga kushilishi fakat xlorofilli yaishl o'simliklar (otosintez) orkali sodir etiladi.

**9-mavzu. OQSILLAR, AMINOKISLOTALAR, NUKLIYEN
KISLOTALAR, FERMYENTLAR, ULARNING TUZILISHI VA BIOLOGIK
AHAMIYATI**

Reja:

- 1.Oqsillar ularning tuzilishi va funktsiyasi
2. Aminokislotalarning va nuklein kislotalar ularning tuzilishi va biologik ahamiyati.
3. Fermentlar ularning tuzilishi klassifikatsiyasi va biologik ahamiyati.

OKSILLAR. O'simliklar xujayrasining tarkibiy qismini tashqil kiluvchi organik moddalarning biri oqsillardir. Ular proteinlar ham deyiladi. Bu yunoncha "rgoGox" - birlamchi, muhim demakdir. Oqsillar bevosita tsitoplazma, yadro plazmasida, plastidalar stro-masida va boshqa organoidlarda sintez kilinishi mumkin. Ular o'simlik xujayrasi tarkibida uglevodlar, yog'lar va boshqa moddalarga nisbatan kamrok, bulsa ham, modda almashinuvi jarayonida asosiy rol Uynaydi hamda tsitoplazma va barcha organoidlar tarkibiga kiradi. Yog'lar bilan birgalikda membranalarning asosiy tuzilmaviy tuzi-lishini hosil kildi va ularning tanlab utkazuvchanligini boshqaradi. Oqsillar fermentativ xususiyatga ega, ya'ni barcha fermentlarning asosini tashqil etadi. Ular nixoyatda xilma-xil funktsiyalarni ba jaradi, kimyoviy tarkibi murakkab yoki molekulali kolloid bi-rikma bo'lib, am inoki yel otalardan tashqil topgan.

Oqsillarning elementlar tarkibi: uglerod — 55-56 foiz, vodorod — 6,5-7,3 foiz, kislorod - 21-24 foiz, azot - 15-17 foiz, oltingugurt - 0-2,4 foiz. Murakkab Oqsillarning tarkibida fosfor ham bor, ba'zilarining tarkibida esa yod, mis, marganets kabi elementlar ham uchraydi.

O'simliklarning hamma organlarida Oqsil bo'ladi Lekin uning mik.-dori o'simlik turlariga va organlariga boqlik.. Uruflarda (chigit, kun-gabokar va boshkalarda) eng ko'p uchraydi. O'simliklarning vegetativ organlarida 5-15 foizgacha bo'lishi mumkin. Oqsillarning asosiy xossalari ularning molekulalari shakliga boqlik. Molekulalar esa shakl jixatidan ikki xil fibrillyar va globulyar Oqsillar bo'ladi. Fibrillyar oqsillar. Ularning molekulalari tolasimon tuzilishga ega. Butun polipeptid zanjir bo'ylab bir-biri bilan kundalang vodorod boglari orkali birikadi. Ularga sochdagи keratin, ipakdagи fibrolen oqsillari misol bo'ladi. Globulyar oqsillar. Molekulalari sharsimon yoki ellipsoid shaklida. Ularga ko'pchilik o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar oksillari misol bo'la oladi. Ular suvda eriydi. Ko'pchiligi fermentlardan va zaxira oqsillardan iborat.

Agar oqsillar molekulasiga yukrri xarorat, kuchli ultrabinafsha va rentgen nurlari, spirt, orir metall tuzlari ta'sir etsa, u xilda vodorod borlarining uzilishi kuzatiladi va ular biologik xususiyat-larini yukotadilar. Bu xrdisa denaturatsiya deyiladi (tovuk tuxumi isitilganda krtib kolishi bunga misol bo'ladi). Oqsillar kuchli kislotasi yoki ishkrr eritmasida kaynatilganda peptid boglar uzilib, ayrim aminokislotalarga parchalanishi mumkin.

Oqsillar molekulasida peptid, vodorod, disulfid borlar mavjud-dir. Peptid borlar (- SO - MN -) Oqsillar molekulasini tashqil etgan aminokislotalarni bir-biri bilan borlaydi. Bir aminokislot karboqsil guruxining ikkinchi aminokislotaming

amino guruxi bilan uzaro reaktsiyaga kirishishi natijasida peptid borlar hosil bo'ladi.

Oqsil guruxdarining ayrim kismlari va polipeptid zanjirlar bir-biri bilan vodorod boglari orkali ham birikadi : Ko'pchilik Oqsillar tarkibida (- 5 - 5 -) disulfid borlar ham uchraydi. Insulin molekulasida 3 ta, ribonokleazada 4 ta disulfid bog bor.

Oqsil molekul al ar ida birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va turtlamchi tuzilmalar mavjud. Peptid boglar (- SO - N1-1 -) tufayli sodir bo'ladigan polipeptid zanjiriningtuzilishi birlamchi tuzilma deyiladi.

Vodorod borlar tufayli hosil bo'ladigan polipeptid zanjirning spiral konfiguratsiyasi (tashqi ko'rinishi) ikkilamchi tuzilma deyiladi.

Spiral tuzilgan polipeptid zanjirlar x.ar xil kuch ta'sirida fazoda ma'lum shaklni olishga intiladi. Oksillar molekulasining fazoviy konfiguratsiyasini belgilovchi uch ulchamli (bo'yli, eni, ba-landligi) bunday tuzilmalar Oqsillarning uchlamchi tuzilmasi deyiladi. Uchlamchi tuzilmaning hosil bo'lishida bir kancha kimyoviy bor-lar ishtirok etadi. Bularning eng mux.imi disulfid bordir. Oqsillarning biologik faolligi shu uchlamchi tuzilmaga boflik. Shuning uchun ham Oqsilning biologik funktsiyasini aniklash maksadida" uning uchlamchi tuzilmasini bilish kerak.

Oqsil molekulasi ikki va undan ortik aloxida polipeptid zanjirning xar xil borlar yordamida uzaro birikishidan hosil bo'lishi turtlamchi tuzilmani tashqil qiladi.

Xujayra tarkibidagi Oqsillar oddiy proteinlar va murakkab pro-teidlar bo'lishi mumkin.

Oddiy Oqsillar hakikiy Oqsil deyiladi, chunki ular fakat amino-kislotalardan iborat va erish qobiliyati asosida bir kancha guruxlarga b;?linadi. Suvda yaxshi eriydiganlari - albuminlar. Bular o'simliklar ururida zaxira Oqsil sifatida (burdoy, arpa, suli, nuxat) ko'p va boshqa organlarida kamrok uchraydi. Globulinlar suvda emas, tuz eritmasida yaxshi eriydi. Bular dukkanakli va moyli o'simliklarning ururida ko'prok uchraydi. 70 foizli etil spirtida eriydigan prola-minlar va kuchsiz ishkoriy eritmada eriydigan glyuteinlar rallasi-monlar donida ko'prok bo'ladi.

Murakkab Oqsillar tarkibiga boshqa moddalar (metall atomlari va Xrkazo) ham kiradi. Bular ham mazkur moddaningxususiyati asosida bir Kancha guruxlarga bo'linadilar:

XROMOPROTYeIDPAR - oddiy Oqsil bilan pigmentlardan tashqil topgan. O'simliklarda ko'p uchraydi va biologik faol hisoblanadi. O'simlik tanasidagi fotosintez va oksidlanish-kaytarilish reaktsiyalarida ishtirok etadi.

LIPOPROTYeIDLAR - Oqsillar bilan lipidlardan tashqil topgan. hujayra membranalari va lamelyar tizimningtuzilishida ishtirok etadi. Tsitoplazma va xujayra organoidlarining tuzilishida ham asosiy rol uynaydi.

MYeTALLOPROTYeIDLAR - Oqsillar bilan metall atomlari (M§, Si, 2p, Mo, Re va boshkalar) birlashmasidan tashqil topgan. Bular asosan fermentlardir (katalaza, polifenol oksid aza, nitratreduktaza, peroksidaza, askorbatoksidaza va boshkalar).

GLIKOPROTYeIDLAR - Oqsillar bilan uglevod xususiyatiga ega bo'lган birikmalardan tashqil topgan. Asosan hayvonlar organizmida uchraydi.

NUKLYeOPROTYeIDPAR Oqsil va nuklein kislotalaridan (DNK, RNK) tashqil topgan. Barcha tirik xujayralar, ayniqsa, yadro va ribo-somalar tarkibida ko'prok. uchraydi.

SHunday kilib, proteidlar xujayraning asosiy tuzshshaviy va funktsional Oqsildari bo'lib, hayotiy jarayonida katta ahamiyatga ega.

AMINOKISLOTALAR. Oqsillar tarkibiga kiruvchi aminokis-lotalar yog' kislotalarning hosilasi bo'lib, tarkibida karbOqsil (SOON) va amin gurux. (MN2) bo'ladi. Umumiy formulasi :

Aminokislotalar atsiklik (alanin, serii, tsistein, asparagin, argenin) va tsiklik (tirozin, gistidin) guruxlarga bo'linadi.

O'simliklar tarkibida 150 dan ortik. aminokislota borligi anik.-langan. Shundan Oqsillar tarkibiga 20 tasi kiradi: alanin, glitsin, serii, treonin, valin, leytsin, izoleitsin, tsistein, tsistin, metionin, asparat kislota, glyutamat kislotasi, lizin, arginin, fenilalanin, tirozin, triptofan, gistidin, prolin, oksiprolin va ikkita amid (asparagin va glyutamin).

NUKLYEINKISLOTALAR. Tirik organizmlarda irsiy belgilar-ning nasldan-naslga utishi va Oqsillarning biosintezikabijarayon-lar nuklein kislotalarning faoliyati bilan boflik. Ular dastlab xujayra yadrosidan ajratib olinganligi sababli nuklein (nukleos - yadro) dey-ilgan. Ikkita guruxga bo'linadi, DNK (dezoksiribonuklein kislotasi) va RNK (ribonuklein kislotasi).

Nuklein kislotalar, ayniqsa, o'simliklarning yosh va metabolitik faol organlarida ko'p bo'ladi. Jumladan, o'simliklarning reproduktiv ?o'ujayralari tarkibida eng ko'p uchraydigan kuknor urufallasida 4,6-6,2 foiz, kedin yongorining magzida — 6,8 foiz va ko'pchilik o'simliklarning bargi vapoyasida O,!-! foizgacha.

Dezoksiribonuklein kislotasi barcha tirik organizmlardagi o'ujayra yadrosida joylashgan. Xloroplast va mitoxondriyalarda x.am mavjudligi aniklangan. DNKning molekulyar ogirligi juda katta — bir necha un milliondan yuz milliongacha yetadi. Uning molekulasida azot asoslari-dan adenin, guanin, tsitozin, timin, uglevod komponentlaridan de-zoksiriboza va fosfat kislota 'bor (9-chizma). Ribonuklein kislotalar o'jayraning hamma qismida uchradi. Ularning asosiy qismi ribosomalarda to'plagan. Xujayralarda, asosan uch xil RNK mavjud: 1) ribosoma RNK (r-RNK) ribosomalarda to'plagan bo'ladi. Molekulyar ogirligi 1,5-2 mln.gateng. Xujayrada oko'sillar bilan birikkan xolda uchraydi. Umumiy RNK ning 800 ga yakinini tashqil etadi; 2) transport RNK (t-RNK), ya'ni xar bir aminokislotani Oqsil sintez kilinuvchi joyga tashish vazifasini bajaradi. Molekulyar ogirligi 25-35 mingga teng. Umumiy RNKnинг 15 foizini tashqil etadi; 3) Ma'lumotli RNK (m-RNK) yadroda sintez kilinadi. Bularning asosiy vazifikasi yadrodagи DNK molekulasi dagi ma'lumotni ribosomalarga, ya'ni Oqsil sintez kilinadigan joyga olib borishdir. Umumiy RNK ning 5 foizini tashqil etadi. Molekulyar ogirligi 1 millionga teng. • Ribonuklein kislotalarning kimyoviy tuzilishiham DNKniga uxshab ketadi. Fakat RNK tarkibida timin urnida uratsil, dezoksiri-boza urnida riboza joylashgan.

FYeRMYeNTLAR. Ular xujayraning barcha organoidlarida bo'lib, Oqsil asosga ega bo'lgan organik katalizatorlardir. Xujayrada kechadi-gan modda almashinuvining hamma tomonlarida ishtirok etadi. Xozirgacha xujayradan 100 dan ortik ferment ajratib olinib, ularning hammasi Oqsillardan iborat ekanligi aniklangan.

Fermentlar bir komponentli va ikki komponentlilarga bo'linadi. Birinchisi, oddiy Oqsillardan, ya'ni fakat aminokislotalardan tashqil topgan. Ikkinchisi, murakkab Oqsillardan tashqil topgan, ya'ni ular tarkibida aminokislotalardan tashqari.

boshq.a birikmalar ham bo'ladi. Bularning Oqsil kismi apoferment, Oqsil bulmagan kismi koferment . deyiladi. Koferment turli moddalardan iborat (metall ionlari, nuk-leotidlar, gemin guruxlar va boshqadar). Bu fermentlarning uziga xos xususiyati shundaki, ular fakat Oqsil va Oqsil bulmagan kismlarning birqaligida kompleks xolda fermentativ faollikkaga ega bo'ladi.

Fermentlar fakat tirik organizmlardagi reaktsiyalarda ishtirok etadi va tasniflilik xususiyatiga ega. Ya'ni xar bir ferment organizmdagi ma'lum bir xil reaktsiyani katalizlaydi. Masalan, ureaza fermenti karba-midga, amilaza kraxmalga, katalaza vodorod pero ksid ga va xokazo. Fermentlarning faolligiga xarorat, muhit rNning u"zgarishi va boshqalar ham ta'sir etadi. O'simliklar xujayrasida bir necha yuz mingdan to m'lliongacha fermentlar bo'lishi mumkin. XaR bir ferment uz nomiga ega bo'lib, bu nom substratning nomi x.amda reaktsiyaning turini aniklaydi va "aza" kushimchasiga ega bo'ladi. Umuman, hamma fermentlar 6 ta asosiy sinfga bo'linadi (oksidoreduktazalar, transferazalar, gidrola-zalar, lipazalar, izomerazalar va ligazalar). Xar bir sinf o'z navbatida kichik guruxlarga bo'linadi. Bu fermentlarning deyarli barchasi Xujayraning ichida bo'lib, asosiy reaktsiyalarni amalga oshiradi.

Tirik organizmlar tarkibida fermentlar borligini birinchi bshlib rus olimi G.N.Kirxgof (1814) anishlagan. U arpa maysasidan ajratib olingan moda ta'sirida kraxmal parchalanganligini kuzatib, uni amilaza deb atagan.

Fermentlar, ya'ni organik katalizatorlar, maydalangan temir, platina, nikel, palladiy kabi anorganik katalizatorlardan tubandagi belgilari bilan farq kildi.

1. Har bir ferment o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ma'lum bir moddaga ta'sir etadi va uning bir shakldan ikkinchi shaklga o'tishini jadallashtiradi. Masalan, ureaza fakat mochevinaning parchalanishida ishtirok etadi.

Saxaraza, maltaza va laktaza fermentlari ham absolyut o'ziga xos fermentlar hisoblanadi. Lipaza fermenti esa fakat efir boflarini uzishda ishtirok etadi. Ba'zi fermentlar, shu jumladan, peroksidaza bir necha xil peroksidlarning, shu jumladan, vodorod peroksidning parchalanishini ham jadallashtiradi..

2. fermentlar anorganik katalizatorlarga nisbatan juda aktiv bo'lishi bilan birga ularning ishlashi uchun Yuqori temperatura talab qilinmaydi. Ko'pchilik fermentlar aktiv ishlashi uchun temperatura 35-38 S oralifida bo'lishi kerak.

3. Fermentlarning miqdori kam bo'lishiga қaramay, ular ishtirokida parchalanadigan moddalarning miqdori ancha ko'p bo'ladi. Masalan, 1 g saxaraza fermenti 48 soatda 1 t shakarni fruktoza va glyukozaga parchalaydi. O'zida 1 atom temir saqlagan katalaza fermenti 1 minutda 5000000 molekula vodorod peroksidni suv va kislородга parchalaydi.

Oshkozonda ishlab chiqariladigan pepsin fermentining 2 garmi 2 soat davomida 100 kg pishirilgan tuxum oksilini parchalasa, oshkozon osti bezi ishtirokida ishlab chiqarilgan 1,6 g amilaza fermenti 1 kecha-kunduzda 175 kg kraxmalni parchalaydi.

4. Hujayra ichidagi fermentlar miqdori va turi juda ko'p. Shunga қaramay, ular bir-biri bilan kat'iy munosabatda bo'lib, har қaysi ferment o'ziga xos funktsiya bajarishi bilan birga bir ferment ikkinchi ferment uchun substrat-mahsulot tayyorlab beradi. Masalan, amilaza fermenti kraxmalni maltozagacha

parchalab, maltaza fermenti uchun zarur bo'lgan maltoza disaxaridni yetkazib turadi. Maltaza fermenti maltozani ikki molekula glyukozaga parchalaydi.

Yuqoriida aytilganlardan ma'lumki, hujayra ichidagi bioximiaviy jarayonlar izchillik bilan davom etar ekan.

5. Fermentlar anorganik katalizatorlarga nisbatan juda murakkab tuzilgan. Masalan, oksil polipeptidlarni parchalovchi xemotripsin 246 dona aminokislota molekulalaridan tashqil topgan. Anorganik katalizatorlar katalizlanuvchi (parchalanuvchi) moddaga tez va bir vaqtda ta'sir etib, uni oddiy moddalarga aylantirsa, fermentlar organik moddalarga ma'lum bir tartibda va izchillik bilan ta'sir etib, ularning parchalanishini jadallashtiradi.

Oddiy ximiyaviy reaktsiyani tezlashtirishda temperatura, bosim va anorganik katalizatorlar қo'llaniladi. Bunday reaktsiyalarda A moddasi B moddasiga to'fridan-to'fri қo'shilib, reaktsiya қuyidagicha bo'ladi:

Formula.

Tirik organizmlarda sodir bo'ladigan bioximiaviy jarayonlar maxsus biologik katalizatorlar-fermentlar aktivligida yuzaga keladi. Fermentlar ishtirokida biologik jarayonlar ma'lum izchillikda va bir necha boskichlardan tashqil topganligi bilan oddiy ximiyaviy reaktsiyalardan keskin ajralib to'rganligi tubandagilardan iborat.

Fermentativ reaktsiyalarning birinchi boskichida ferment reaktsiyaga kiruvchi moddaga қo'shilib, uni aktivlashtirgach, ya'ni birikkach, kompleks birikma hosil қilinadi.

A+F—AF

Ikkinchi boskichda ferment ishtirokida aktivlashtirgan moda ikkinchi moddaga borib қo'shiladi: AF+B—AFB.

Uchinchi bosichda =osil bshlgan kompleks birikmadan ferment ajralib, mustailligini tiklaydi va Yangi reaktsiyalarning shtishini aktivlashtiradi.

ABF—AB+F

Har қanday bioximiaviy yoki ximiyaviy reaktsiyalarning o'tishida reaktsiyaga kirishuvchi moddalarning o'z energiyasi bo'ladi. Lekin shu energiya yetarli darajada bo'lmasligidan u yoki bu hujayrada reaktsiyalar sodir bo'la olmaydi. Demak, reaktsiya sodir bo'lishi uchun қo'shimcha energiya talab etiladi. Shu қo'shimcha energiyaga aktivlashtiruvchi kuch deyilib, u Ye harfi bilan belgilanadi.

Fermentlar yordamida sodir bo'ladigan reaktsiyalarning o'tishi uchun sarf bo'ladigan aktivlashtiruvchi kuch (energiya) katalizatorsiz yoki anorganik katalizatorlar bilan o'tganligiga nisbatan kam talab қilinganligi jadvaldan kuzatiladi.

6. Fermentlarning aktiv bo'lishiga muhitning temperaturasi rN (kislotali yoki ishkorli) қiymati kuchli ta'sir etganligi jadval raqamlaridan kuzatiladi.

7. fermentlarning faoliyati SH guruhi va Mn, Mo, Co kabi elementlar ta'sirida jadallahadi. Bular aktivatorlar deb ataladi. Biroq oksillarni kaogullaydigan birikmalar ta'sirida fermentlar inaktivlashadi. Bunday birikmalar ingibitorlar deyiladi. Ingibitorlarga қalay, simob va boshqa ofir metall tuzlari va tannin misol bo'ladi. O'zida temir va mis tutuvchi fermentlar uchun tsianid kislota (...) ingibitor hisoblansa, ... tutuvchi fermentlar fтор ioniga ta'sirida inaktivlashadi.

Fermentlarning jadallahishi tashkisi muhit omillari, aktivatorlar va ingibitorlar ta'siridan tashkari, hujayra tsitoplazmasi kolloidlarining holatiga ham boflik. Akademik A.I.Oparin ma'lumotiga ko'ra fermentlar tsitoplazma kolloidlariga adsorbsilangan holda bo'lsa, hujayrada sintez, tsitoplazma kolloidlaridan bo'shagan holda bo'lsa, gidroliz jarayonlari jadallahib, murakkab moddalar parchalanadi.

Odatda, fermentlar jadalligi yanchilgan to'kimalarda tekshiriladi. Bunday holatda hujayralar shikastlanishidan moddalar almashinushi jarayonlarining izchilligi va tartibi buziladi. Fermentlarning aktivligi ham o'zgarib қolganligidan to'la va yetarli ma'lumotlar olish қiyinlashadi. O'simliklar to'kimasi yanchilganda shu to'kimada faqat gidroliz jarayonlarini aniqlash mumkin, sintez jarayonlarini esa o'rjanib bo'lmaydi.

SHularni hisobga olib A.I.Oparin, A.L.Kursanov va boshkalar fermentlar jadalligini o'rjanishda hujayraning tabiiy holatini ta'minlash zarurligini aytib o'tdilar. Bu sohada akademik A.L.Kursanov ishlab chiqkan vakuum infiltratsiya usuli keng ko'llanilmokda.

Vakuum infiltratsiya usulidan foydalangan B.A.Rubin piyozi, karam va sabzi to'kimalaridagi fermentlar jadalligi bilan o'simliklarning tez yoki kech yetilishi orasida kat'iy-korrelyativ munosabat borligini aniqlagan. B.A.Rubin va shigirdlarining ma'lumotlariga ko'ra, ertapishar navlarda gidroliz, kechpisharlarda sintez jarayoni ustun turar ekan.

Tirik organizmlardagi fermentlar 2 ta katta guruhga bo'linadi. bir komponentli fermentlar. Bu guruhga kirgan fermentlar sof oksil molekulalaridan iborat. Ularning aktiv guruhi vazifasini oksil molekulasing ayrim boflari bajaradi. Masalan: pepsin fermentining aktiv guruhi tirozin aminokislotosi tarkibidagi fenol qismidir.

2. Ikki komponentli fermentlar. Ikki xil birikmadan tuzilgan. Ularning biri apoferment (feron yoki apoenzim) deyilib, u fermentning aktiv guruhini o'zida saqlaydigan o'ziga xos oksil molekulasi. Ikkinci qismi esa koferment (agon yoki koenzim) deyilib, u fermentning aktiv guruhini tashqil etadi. Ikki komponentli fermentlarning aktiv guruhiida vitaminlar qatnashadi. Masalan: karboqsilaza fermentining aktiv guruhiida V1 vitamini bulib, maxsus oksil qismi bilan boflangan. Nafas olish jarayonida qatnashadigan digidraza fermentining aktiv guruhiida nikotin kislota ya'ni RR vitamin o'rinni olgan.

Ikki komponentli fermentlar normal ishlashi uchun apoferment bilan koferment qismlari uzviy boflangan bo'lishi kerak. Fermentlar metoxondriy, ribosoma, plastidlarda va hujayraning boshqa organoidlarida joylashgan bo'lsada, boshqa xillari tsitoplazmada tarkalgan.

FYE RMYE NTLAR KLASSIFIKATsIYASI. Keyingi ma'lumotlarga ko'ra tirik organizmlar tarkibida mavjud bo'lgan fermentlar soni 2000 dan ortiq ekanligi aniqlangan. Fermentlarni nomlashda substrat koferment va ferment qaysi guruhga kirganligi hisobga olinib, oxiriga "aza" ko'shimchasi ko'shiladi. Masalan: etil spirtli bijfishda ishtirok etadigan degidroginaza fermenti alkogol degidroginaza deb ataladi.

Bundan tashkari faqat substrat nomi oxirida "aza" ko'shimchasi ko'p fermentlar uchun ishlataladi. Masalan: tsellyulozani parchalovchi ferment 1,4-glyukon-4 glyukogidralaza deyilmasdan, soddarok qilib tsellyuloza deb ataladi.

1962 yildagi xalqaro fermentlar kongressi yakunlariga asoslanib, fermentlar 6 katta guruhga bo'linadi.

FOYDALANILGAN ASOSIY ADABIYOTLAR.

1. Pleshkov B.P. Bioximiya selskoxozyaystvennx rasteniy. M. "Kolos" 1969 g.
2. Lebedov S.I. Fiziologiya rasteniy. M. 1988 g.
3. Yakushkina N.I. Fiziologiya rasteniy. M. 1980 g.
4. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya asoslari. T. 1995 y.
4. Xo'jaev J. X O'simliklar fiziologiyasi Toshkent "Mexnat" 2004
5. Rubin B.A. Kurs fiziologii rasteniy. M. 1976 g.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR.

1. A. Imomaliev va A. Zikiryoev. O'simliklar bioximiyasi. T. 1978 y.
2. Timiryazev K.A. O'simliklar hayoti. T. 1967 y.
3. To'raqulov Yo.X. Bioximiya. T. 1970 y.

IV- BOB. O'SIMLIKLarda UGLYEVOD ALMASHINUVI.

Fizik — suv yetishmasligi yoki ortikligi, yoruqlik va xaroratlarining uzgarishi, radiofaol nurlar va mexanik ta'sirlar.

Kimyoviy — xar xil tuzlar, gazlar, gerbitsidlar, fungitsidlar, sanoat chikindilar va boshqalar.

Biologik — shikastlovchi xasharotlar, patogen mikroorganizmlar, parazitlar, boshqa o'simliklar bilan raqobat va boshqalar.

O'simliklarning stressorlar ta'siriga chidamliliği o'sish va ri-vojlanish bosqichlarida xar xil bo'ladi. Tinim davrida ularning chidamliligi eng yukrri bo'ladi. Eng chidamsizlik — o'simliklarning yosh maysalarida kuzatiladi. Keyinchalik o'simliklarning o'sish va rivojlanishi bilan bir katorda ularning

chidamlilik darajasi ham to pishib yetilish bosqichigacha ortib boradi. Ammo o'simliklarning gullash fazasi, ayniqsa, gametalarning shakllanish muddati xam kritik sanaladi. Chunki bu muddatda o'simliklar stressorlar ta'sirida kuchli zararlanishi vaxrsidtsorlikni keskin kamaytirishi mumkin.

Kuchli va tez ortib borayotgan stressorlar ta'siridan paydo bo'ladigan nospetsifik jarayonlarga kuyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Membranalar o'tkazuvchanligi ortadi va membrana potentsiali uzgarishi natijasida ionlar almashinuvi ham buziladi.

Sitoplazmaga Sa^{2+} kirishi o'zgaradi.

Sitoplazmaga rp nordonlik tomonga o'zgaradi.

Protoplazmaning qovushqoqligi ortadi.

Kislородning yutilishi va ATP sarflanishi kuchayadi.

Gidrolitik jarayonlar tezlashadi.

Stress Oqsillarninghosil bo'lishi faollashadi.

Plazmolemmadagi N+ - pompalarning faolligi ortadi.

Etilen va ABK sintezi tezlashadi, xujayralarning bulinishi va o'sishi sekinlashadi, fiziologik va metabolistik jarayonlar o'zgaradi.

Yukrrida sanab utilgan stress reaksiyalar istalgan stressorlar ta'sirida sodir bo'lishi mumkin. Ular xujayra tuzilmalarini ximoyalashga va nokulay uzgarishlardan saklashga қaratilgan (Polevoy, 1989). O'z navbatida, nospetsifik uzgarishlar bilan bir katorda spetsifik uzgarishlar ham paydo bo'ladi (ular xakida keyingi ma'lum bir omillarning ta'sirini izoxlashda tuxtaymiz).

Stressorlar ta'sirida umumiyoq oksillar sintezining kuchsizla-nishi bilan bir katorda maxsus stress-Oqsillarining sintezlanishi қizikarli sanaladi. Masalan, makkajuxorida bunday Oqsillar harorat 45°S bo'lganda xosil bo'ladi va ular issiklik shoki Oqsillari deyiladi. Bu Oqsillarning hayotiyligi 20 soatgacha bo'lib, xujayralar chidamligini boshqaradi. Bunday Oqsillar tsitoplazmada ham - bo'lib, stress sharoitda faollashadi. Ular yadro, yadrocha, membranalarda ximoya funktsiyalarini bajaradi.

Noqulay omillar ta'sirida xujayrada uglevodlar va ayniqsa, prolin (aminokislota) miqdori ham ko'payadi va himoya reaksiyalarida ishtirok etadi. O'simliklarga suv yetmagannda xujayra tsitoplazmasida (arpa, shpinat, guza) prolin kontsentratsiyasi 100 martagacha ko'paygani aniqlangan. Prolin oqsillarni denaturatsiyadan saqlaydi. Prolin to'planganda, osmotik faol organik modda bo'lganligi uchun xujayrada suvni saqlashda ham xizmat qiladi.

Umuman, o'simliklar nokulay muhitda yashagandaularning tanasida etilen va ABK miqdori ko'payadi, modda almashinuv jarayoni pasayadi, o'sish va rivojlanish sustlashadi, k.arisht jarayonlari tezlashadi, tuki-malarda auksin, tsitokinin va gibberellinlar miqdori kamayadi va tinimga utish tezlashadi.

O'simliklarning қurfoқchilikka va Yuqorii harorat ta'siriga chidamliligi. Suvning yetishmasligi ko'p o'simliklarga eng ko'p zararli ta'sir etadi. Suv yetishmasligi, ya'ni qur'goqchilik, dastavval, o'simliklarning suv almashinuv jarayonlariga salbiy ta'sir etadi va o'simlikning boshqa fiziologik jarayonlarida (fotosintez, nafas olish, ildiz orkali mineral elementlarning o'zlashtirilishi, o'simliklar tanasida moddalar transporti va boshqalar) ham namoyon bo'ladi. Natijada o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi sekinlashadi yoki tuxtab қoladi. Qur'goqchilik uch xil, ya'ni tuproq. qur'goqchiligi, atmosfera kurfoқchiliklar va fiziologik қurfoқchiliklar bo'ladi.

TUPROQ, QURG’OQCHILIGI - asosan yozning urtalari va oxirida kuzatiladi. Bu vaqtarda xavoning issik va kuruk kelishi natijasida tuproqdagi suv yer yuzasidan va o’simliklardan tez buglanib, tuproqning қurib krlishi kuzatiladi. Natijada tuproq qur’goqchiligi boshlanadi.

ATMOSFYeRA QURGOQCHILIGI haroratning juda yukori bo’lib, xavoning niobiy namligi kam (10-20 foiz) bo’lishi bilan tavsiflanadi. Bu vak.tda o’simlikda transpiratsiya jarayoni juda jadal bo’ladi. Natijada o’simlikka suvning kelish tezligi bilan un-dan suvning burlanib chikishi urtasidagi moslanish buziladi va o’simlik suliy boshlaydi. Issik. va қuruқ shamol (garm sel) esganda vujudga keladigan atmosfera қurfoқchiligi o’simliklar uchun yanada xavflirok- Garm sel vaqtida tuproqda suvning bo’lishiga karamay, o’simlikning yer ustki organlaridagi suv ko’plab sarflanib, қurfoқchilikka chidamsiz o’simliklar nobud bo’ladi.

FIZIOLOGIK QURROQCHILIK - tuproqda o’simliklarni ta’minalash uchun yetarli miqdorda suv bulsa ham uni ayrim sabablarga kura o’simliklarning o’zlashtira olmasligi bilan tavsiflanadi. Bularga tuproqda tuzlarning to’plaishi (shur tuproqdar), tuproq. Xaroratining juda past bo’lishi, kuchli nordon reaktsiyaga ega bo’lgan tuproklar (rN 3-5) va boshkalarni ko’rsatish mumkin. Bunday tuproqlar-da ku”pchilik kishloq, xujalik ekinlarining usa olmasliklari sabablaridan biri suvni o’zlashtira olmaganligidir.

Қuruқ turqeda O’simliklarning suv bilan ta’minalish jarayoni buziladi. Natijada o’simlikda uzoq vaqtgacha suv tankisligi va sulish xrlati davom etadi. Suv balansining uzoq vaqtgacha buzilib olishi o’simlikda fiziologik jarayonlarning uzgarishiga xam sabab bo’ladi. Suvsizlik natijasida protoplazmaning kolloid va kimyoviy xususiyatlari zararlanadi. Oqsillar sintezi keskin pasayadi. Chunki informatsion RNK iplarini uzuvchi adenozintrifosfataza faollahadi, polisomalar parchalana boshlaydi.

O’simlikning sulishi me’yoriy modda almashinuvining, xujayralarda osmotik xususiyatning buzilishi, turgor holatning yukolishi, yangi moddalar sintezining tuxtashi, gidroliz va parchalanish jarayon- larining kuchayishiga olib keladi. Ko’pchilik hollarda namning yetishmasligi fotosintez jarayoniga salbiy ta’sir etadi. Fotosintez jadal-ligining pasayishiga kuyidagilar sabab bo’ladi: 1) ogizchalarning yopi-lishi natijasida SO_2 ning yetishmasligi; 2) xloroplastlar tuzilma-sining buzilishi; 3) xlorofill sintezining tuxtashi; 4) yoruqlikda fosforlanish jarayonida elektronlar transportining buzilishi;

fotoqimyoviy reaktsiyalar va SO_2 o’zlashtirilishining buzilishi; assimilyator transportining tuxtashi va boshkalar. Shuning uchun Kurfoқchilik o’simliklarning o’sishiga salbiy ta’sir etadi yoki tuxtatadi. Ularning umumiy barg sathini kamaytiradi, bu esa o’simliklarda organik modda hosil bo’lishini susaytiradi va xosilni kamaytiradi. Suvsizlik uzoq, muddatli bo’lganda, xatto o’simliklar nobud bo’ladi.

So’lish yosh o’simliklarga, o’simliklarning yosh organlariga, ayniқsa, yosh generativ (guncha, gul) organlariga ko’proқ ta’sir etadi. Gul organlarining shakllanishi kechikadi, generativ organlarning to’kilishi kuchayadi va hosildorlik keskin kamayadi. O’zbekistonda, odatda haroratning eng Yuqorii, x,avo namligining eng past va tuproq қurfoқchiligi sodir bo’ladigan vaqtga guzaning gullash bosqichi (suvga nisbatan kritik) ham to’fri keladi. Bunga e’tiborsizlik juda

ko'p hosil elementlariningtukilib ketishiga va hosildorlik past bo'lishiga sabab bo'ladi.

Suv takchilligining zararli ta'siri hamma o'simliklarda bir xil emas. Bunga chidamlilik o'simlik turlariga boflik- Masalan, yoruqliksevar o'simliklar (kungabokar, kartoshka va boshqalar) tanasidagi suvning 25-30 foizini yukotganda ham ularda sulishning tashqi belgilari yaxshi sezilmaydi. Soyaga chidamli o'simliklar suvlarini 13-15 foiz yukotishi bilan sulib koladilar. Botkoklikda yashovchi o'simliklar eng chidamsiz bo'lib, suv takchilligi 7 foiz bo'lganda kurib koladi.

O'simliklarning qur'goqchilikka chidamlilik darajasi ularga yashash muhitining ta'siri natijasida, evolyutsiya davomida yaratilgan. ko'rgok.-chilikda yashovchi, қurgokchilikka chidamli o'simliklarning morfologik, anatomik tuzilishi va fiziologik - bioqimyoviy xususiyatlari suv bi-lan yaxshi ta'minlangan o'simliklardan keskin farq kiladi.

Suvi kam sharoitda xaet kechiruvchi va qur'goqnilikka chidamli usim-liklar kserofitlar deyilib, ularning suv bilan ta'minlangan sharoitda yashovchi o'simliklardan farq, kiluvchi belgilariga kserofitlik belgilari deyiladi. Kserofitlarning barglari juda kichik bo'lib, ayrimlarida tikan (kaktuslar, yantok).va tangachalarga aylangan. Ularning bargutikulasiyaxshi rivojlangan, kalin, ogizchaları barg tukimasida chukur joylashgan. Kserofitlarning muxim belgilaridan biri suv buglatuvchi satxlarning kichikligidir .

Madaniy usimliklarning qur'goqchilikka bo'lgan chidamliligin oshirish dolzarb muammo bo'lib, bu soxada ayrim ishlar mavjud. .

O'simliklarning qur'goqchilikka chidamliligi tashki sharoit ta'sirida o'zgaradi. I.I.Tumanovning izlanishlari ko'rsatishicha, o'simliklarga қурғоқчilik bilan ta'sir etish usuli tufayli ularning chidamliligin oshirish mumkin. Tumanov tekshirishlari bir marta suvsizlangan o'simlik shundan keyingi suvsizlanishga ancha chidamli bo'lib, ikkinchi marta suvsizlanish va sulish ularga ancha kuchsiz ta'sir k.idganligini kursatadi. P.A.Genkel chiniktirishni uruғning unayotgan paytida utkazishni tavsiya etdi. Bu usul bo'yicha urur endigina unayotgan vaqtida bir martadan uch martagacha kzfitiladi. Uning ma'lumotlariga kura, bunday ekipishdan oldin chiniktirish qur'goqchilik vaktlarida bugdoy hosilini sezilarli darajada oshiradi. Genkelning tushuntirishi bo'yicha, organizm rivojlanishining dastlabki vaqtlarida kuchlirok chinikadi.

O'simliklarning қурроқchilikka bo'lgan chidamliligin oshirishda uritlarni қo'llash ham ma'lum ahamiyatga ega. Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlarda kaliy, fosfor, kisman azot va ayrim mikroele-mentlar (bor, rux, mis, alyuminiy va boshqalar) ta'siridan o'simliklarning қурғоқchilikka chidamliligi ancha oshganligi ko'rsatilgan. Dmmo azot ko'proq. kullan il ganda, aksincha, chidamlilik pasaygani ta'kidlanadi. Қурроқchilik ta'siriga nisbatan chidamli navlarni tanlash va ulardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Bunday navlar fermentlarning sintetik qobiliyati Yuqorii, boflangan suv miqdori ko'p, xujayra shirasining kontsentratsiyasi nisbatan Yuqorii, mustaxkam pigmentlar tizimi, suvnn saklash qobiliyati kuchli va organik moddalarni tuplash kribiliyati yukoriligi bilan farq kiladi. Bu ko'rsatkichlar kurroқchilikka -chidamlilikning fiziologik va bioqimyoviy tabiatini tavsiflaydi.

Barcha o'simliklar harorat darajalariga bo'lgan munosabatlari bo'yicha ham bir-biridan farq, kiladi. Ba'zi suvutlari 6080°S issiklikka ega bo'lgan buloklarda tark.algan. Ko'pchilik yuksak o'simliklar uchun maksimal harorat 40-50°S ga teng. Ko'shlok xo'jalik ekinlari uchun esa maksimal harorat 39-40° S ga teng bo'lib, xaroratning bundan orta borishi ularni shikastlaydi.

O'simliklar Yuqorii harorat ta'siridan shikastlanganda, ularning ulishdan oldin xujayralari ichida bo'ladijan bioqimyoviy jarayonlar o'rtasidagi muvofiqlik buzilib, protoplazmani zaxarlaydigan keraksiz moddalar vujudga keladi. V.F.Altergot va boshq.a olimlarning fikricha, Yuqorii darajadagi xarorat ta'sirida Oqsillar parchalanishi tezlashadi, xujayralarni zaxarlaydigan ammiak hosil bo'ladi va to'planadi. Tsito-plazmaning mikrostrukturasiga salbiy ta'sir kilib, undagi Oqsil-li-poid birikmalar va plastidalar parchalanadi. Nafas olishda o'osil bo'lgan kimyoviy energiya samaradorligi keskin pasayadi va uning asosiy qismi tashqi muxitga issiklik shaklida tarkaladi.

O'SIMLIKLARNING PAST XARORAT TA'SIRIGA ChIDAMLILIGI. Xaroratning o'simliklar uchun zarur bo'lgan minimal darajadan past bo'lishi ularning zararlanishiga olib keladi. Shuning uchun ham o'simliklarning yashashi ularning sovukka chidamli bo'lishlariga boflik bo'ladi. Chidamlilik darajasi asosida barcha o'simliklarni ikki guruxga bulish mumkin: sovukka va uta sovukda chidamli o'simliklar.

SOVUKKA ChIDAMLI O'SIMLIKLAR. Bu guruxga barcha urta iklimli xududlarda tarkalgan issik.sevar o'simliklarni kiritish mumkin (bodring, pomidor, loviya, krvun, yeryongok va boshq.alar). Ular +3 +5°S da krldirilsa, bir necha kundan keyin nobud bo'ladi. Tropik va subtropik o'simliklar ham 0°S dan biroz yukrri bo'lgan xaroratda kuchli shi-kastlanadi va nobud bo'ladi. Kakao usimligi +8°S da, fuza maysalari + 1+ 3° S da bir kecha-kunduz saklanganda nobud bo'ladi. Issiksevar o'simliklarga sovuk xarorat (0°S dan yuk.ori xarorat darajalari) ta'sir ettarilganda, ular avval, suliq boshlaydi va turgor holatini yukotadi. Masalan, bodring barglari +3°S da uchinchi kuni suliysi va uladi. Demak, suvning transport tezligi ham buziladi. Ammo barglar suv bi-lan yetarli darajada ta'minlanganda ham sovukdan o'ladi.

Issikrevar o'simliklarning sovuk ta'siridan nobud bo'lishining asosiy sabablari: nuklein kislotalari va Oqsil sintezining buzili-shi, protoplazma kovushkligining ko'tarilishi va natijada membranalar utkazuvchanligining buzilishi, assimilyator oqimining tuxtashi, fermentlar faoliyatining uzgarishi va natijada dissimilyatsiya jaraenlarining kuchaiishi, xujayrada zaxarli moddalarning to'plaishi va boshq.alar. Sovuk xarorat ta'sirida fotosintez jarayoni tuxtab koladi, sintez jarayonlariga nisbatan gidroliz jarayonlari jadallahshadi. Sovuk xaroratda zaiflashgan ildiz bugzida patogen mikroorganizmlar rivojlanib, o'simlikni shikastlaydi va nobud kiladi. Tanasida bunday uzgarishlar kuchsiz bo'ladijan yoki bo'lmaydigan o'simliklar sovukka nisbatan chidamli bo'ladi.

UTA SOVUKKA ChIDAMLI O'SIMLIKLAR. Tabiiy sharoitda O°S dan past xarorat ta'sirida shikastlanmaydigan o'simliklarni uta so-vukka chidamli o'simliklar guruxiga kiritish mumkin. Uta sovuk asosan kuzda va қishda sodir bo'ladi. Ko'pchilik o'simliklar kuz va kish oylarini uruf tuganak va ildiz-poya xrlida utkazadi va zararlanmaydi. Kuzgi ekin va daraxtlar kuz ham Kish fasllarini

ochik joyda utkazadi. Shuning uchun ular utasovuk ta'siriga uchraydi, ayrimlari shikastlanadi yoki nobud bo'ladi.

Sovuk o'rgan o'simliklar turgor holatini yukrtadi, barglari kungir tusga kirib, қurib koladi. Utasovuk ta'siridan ularning shirasi muzlaydi, natijada xujayra va to'kimalarida salbiy uzgarishlar boshlanadi. To'kimalarida bo'ladigan salbiy uzgarishlarga karshi yetarli darajada chidamli bulmagan o'simliklar ko'p zararlanadi va xatto nobud bo'ladi.

O'simliklarning sovukka chidamliliga makroelementlar va mik-roelementlar xam ta'sir etadi. Rux mikroelementi xujayrada shakarlar boglangan suv miqdonini ko'paytiradi. Molibden Oqsillar miqdonining ko'payishiga ta'sir etadi. Mis ta'siridan ham o'simliklarning sovukka chidamliligi ortadi.

Savollar

1. O'simliklarning shur tuproqda O'sishga moslanishi.
 2. O'simliklarning Yuqorii va past temperaturaga chidamligi.
 3. O'simliklarning chidamligi bo'yicha N. A. Maksimov va I. Tumonovning ishlarini tushuntiring.
 5. O'simliklarning ildizi orkali oziklanishning o'rganish tarixi va ahamiyati.
 6. Ozik moddalarning o'simlik tanasi bo'ylab harakatlanishi.
 7. Tashqi muhit sharoitining transpiratsiyaga ta'siri
 8. Tashqi muhit omillarining nafas olish intensivligiga ta'siri
 9. Tashqi muhitning xlorofill hosil bo'lishiga ta'siri
 10. Atmosfera va tuproq qur'goqchiligi
 11. Turli ekologik guruxlarga kiruvchi o'simliklarning suv rejimi
 12. Tashqi muhitning xlorofill hosil bo'lishiga ta'siri
 13. Tashqi muhit omillarining transpiratsiyaga ta'siri
 4. O'simliklar O'sishi va rivojlanishining uzaro bo'flikligi va farqi
 5. O'simliklarning O'sishi va O'sishining uch fazasi
 6. O'simliklarning O'sishiga tashqi omillarning ta'siri
- O'simliklar O'sishini aniklash usullari
7. O'simliklarning ildiz orkali oziklanishining ahamiyati va uning
 8. Tinim davrining turlari va uni boshqarish usullari
 10. Kuzigi va baxorgi ekinlarni yaravizatsiya kilish va uning ahamiyati
 12. O'simliklar tinim davri va uning fiziologik tabiatni
 13. O'simliklarning harakatlanishi va harakatlanish turlari
 14. O'simliklarning O'sishiga tashqi omillarning ta'siri.
 15. Ozik moddalarning o'simlik tanasi bo'ylab harakatlanishi. Yuqoriiga ko'tariluvchi va pastga tushuvchi oqimlar.
 16. Mikoriza va uning Yuqorii o'simliklar hayotidagi ahamiyati
 17. O'simliklarning qurg'oqchilikka moslashishi vaqtinchalik va uzoq vaqtli sulish. O'sishning uch fazasi
 18. Yaravizatsiya statsiyasi va uning ahamiyati. Kuzgi va baxorgi ekinlarning yaravizatsiyasi kilinishi
 19. O'sish va rivojlanish tushunchasining ta'rifi. O'sish va rivojlanishning farqi

20. O'simliklarning tinim davri va uning ahamiyati

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

"Tasdiqlayman"

Kimyo-biologiya fakulteti uslubiy
kengashi raisi _____ dots. Hayitov I.
_____ " _____ 2009 yil.

Biologiya yo'nalishi
III kurs talabalari uchun
"O'simliklar fiziologiyasi" fanidan
amaliy mashg'ulotlari uchun

USLUBIY ISHLANMALAR

Tuzuvchi:

o'qit. Sharopova M.
o'qit. Chariyev R.
o'qit. Azimova N.

Botanika kafedrasida ko'rib chiqildi va
№____ qarori bilan tasdiqlandi.
Botanika kafedrasi mudiri
_____ prof.Mustafaev S.M.
«____»_____ 2009 yil.

***Qarshi-2009-2010 y
Mustakil ta'lif mavzulari***

- 1.Laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik.
- 2.O'simliklarga xos aminokislotalar.
- 3.O'simliklarda oksillar biosintezining o'ziga xos xususiyatlari.
- 4.Yashil o'simliklarda qandlarning sintezlanishi.
- 5.O'simlik organlarida organik birikmalarning oqishi.
- 6.O'simliklardi xos yog' kislotalari.
- 7.O'simliklar xujayralarining o'ziga xos xususiyatlari.
- 8.O'simlik hujayrasining kimyoviy tarkibi.
- 9.Hujayradagi kelib chiqishi ikkilamchi bo'lgan moddalari.
- 10.Konstitutsion va zahira moddalari.
- 11.Hujayra energetikasining fizik - kimyoviy asoslari.
- 12.Fotosintezni muhit va organizm holatiga bog'liqligi.
- 13.Kislород miqdorining o'zgarishi va fotosintez jadalligi.
- 14.Fotosintezga sarf buluchi energiya miqdori.

- 15.Fotosintezning sof mahsuldorligi.
- 16.Biologik va xo'jalik hosili.
- 17.Oksidlanish - qaytarilash reaktsiyalarning tiplari.
- 18.Anoerob va aerob degidrogenazalar.
- 19.Turli ekalogik guruh o'simlarida suv almashinushi.
- 20.O'simliklarda suv tanqisligi va anatomiq xususiyatlari.
- 21.Makro - vamikroelemintlarning fiziologik o'rni.
- 22.O'g'itlar qo'llanilishining fiziologik asoslari.
- 23.Meniral o'g'itlarning xillari va qullash normalari.
- 24.O'simliklarning geterotrof oziqlanishi yo'li.
- 25.Ksilema orqalimoddalarning tashilushi.
- 26.Floema orqali moddalarning tashilushi.
- 27.Ksilema va floema shiralarining tarkibi.
- 28.Gulli o'simliklarning jinsiy ko'payishi.
- 29.Changlanish va urug'lanish.
- 30.O'simlik hujayralarining ontogenezi.
- 31.Hujayralarining qarishi va ko'payishi bosqichi.
- 32.Vegetativ ko'payish va uning q..x ahamyati.
- 33.O'simliklarning sintetik o'sish stimulyatorlari va ingibitorlari..
- 34.Defoliantlar va o'simlik anatomo- fiziologik belgilari.
- 35.Desikantlar va retardantlar - fiziologik ta'siri.
- 36.Tashqi omillarning o'simliklarning o'sishiga ta'siri.
- 37.O'zbekiston tuproqlari sho'rланishlari tiplari.
- 38.O'simliklar mineral oziqlanishiga sho'rланishlar ta'siri.
- 39.O'simliklar biologik hosiliga sho'rланishning ta'siri.
- 40.Tuproqlarni yuvish va uning samarasи.
- 41.O'simliklarnitinin holati va fiziologik asoslari.
- 42.Yuqumli kasalliklarga qarshi himoya vositalari.
- 43.Xo'jayin - parazit munosabatlarining genetik nazorati.
- 44.Fakultativ saprofitlar va obligatlar.
- 45.Himoya mehanizmlari.
- 46.Fitoaleksinlar va ularning biosintezi.

O'SIMLIKLER FIZIOLOGIYASI VA BIOXIMIYASI fanidan

Mustaqil ta'lif mavzulari

- 1.Laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik.
- 2.O'simliklarga xos aminokislotalar.
- 3.O'simliklarda oksillar biosintezining o'ziga xos xususiyatlari.
- 4.Yashil o'simliklarda qandlarning sintezlanishi.
- 5.O'simlik organlarida organik birikmalarning oqishi.
- 6.O'simliklardi xos yog' kislotalari.
- 7.O'simliklar xujayralarining o'ziga xos xususiyatlari.
- 8.O'simlik hujayrasining kimyoviy tarkibi.
- 9.Hujayradagi kelib chiqishi ikkilamchi bo'lgan moddalari.
- 10.Konstitutusjon va zahira moddalari.
- 11.Hujayra energetikasining fizik - kimyoviy asoslari.
- 12.Fotosintezni muhit va organizm holatiga bog'liqligi.
- 13.Kislород miqdorining o'zgarishi va fotosintez jadalligi.
- 14.Fotosintezga sarf buluchi energiya miqdori.

- 15.Fotosintezning sof mahsuldorligi.
- 16.Biologik va xo'jalik hosili.
- 17.Oksidlanish - qaytarilash reaktsiyalarining tiplari.
- 18.Anoerob va aerob degidrogenazalar.
- 19.Turli ekalogik guruh o'simlarida suv almashinushi.
- 20.O'simliklarda suv tanqisligi va anatomik xususiyatlar.
- 21.Makro - vamikroelemintlarning fiziologik o'rni.
- 22.O'g'itlar qo'llanilishining fiziologik asoslari.
- 23.Meniral o'g'itlarning xillari va qullash normalari.
- 24.O'simliklarning geterotrof oziqlanishi yo'li.
- 25.Ksilema orqalimoddalarning tashilushi.
- 26.Floema orqali moddalarning tashilushi.
- 27.Ksilema va floema shiralarining tarkibi.
- 28.Gulli o'simliklarning jinsiy ko'payishi.
- 29.Changlanish va urug'lanish.
- 30.O'simlik hujayralarining ontogenezi.
31. Hujayralarining qarishi va ko'payishi bosqichi.
- 32.Vegetativ ko'payish va uning q..x ahamyati.
- 33.O'simliklarning sintetik o'sish stimulyatorlari va ingibitorlari..
- 34.Defoliantlar va o'simlik anatomo- fiziologik belgilari.
- 35.Desikantlar va retardantlar - fiziologik ta'siri.
- 36.Tashqi omillarning o'simliklarning o'sishiga ta'siri.
- 37.O'zbekiston tuproqlari sho'rланishlari tiplari.
- 38.O'simliklar mineral oziqlanishiga sho'rланishlar ta'siri.
- 39.O'simliklar biologik hosiliga sho'rланishning ta'siri.
40. Tuproqlarni yuvish va uning samarasи.
- 41.O'simliklarnitinim holati va fiziologik asoslari.
- 42.Yuqumli kasalliklarga qarshi himoya vositalari.
- 43.Xo'jayin - parazit munosabatlarining genetik nazorati.
- 44.Fakultativ saprofitlar va obligatlar.
- 45.Himoya mehanizmlari.
- 46.Fitoaleksinlar va ularning biosintezi.

KALENDAR REJA

O'SIMLIKLER FIZIOLOGIYASI VA BIOXIMIYASI fanidan				
laboratoriya mashg'ulotlar mavzusi				
Boblar	Nº	Ko'rib chiqiladigan masalalar	soati	sana
O'simliklar hujayrasining fiziologiyasi	1	Plazmoliz va deplazmoliz	2	
	2	Turgor xodisalarini kuzatish	2	
	3	Moddalarning hujayra ichiga o'tishini aniqlash	2	
O'simliklarda uchraydigan organik birikmalar	4	Oqsilning xossalari bilan tanishish	2	
	5	Oqsilning rangli reaksiyalarini	4	
	6	O'simlik tarkibidagi oshlovchi moddalar borligini aniqlash	4	
	7	O'simliklar tarkibidagi alkolloidlarni aniqlash	2	
O'simliklar to'qimasila uchrayligan ba'zi fermentlar	8	Unayotgangan urug'larda amilaza fermentini aniqlash	2	
	9	Saxaroza-invertaza fermentini o'simlik to'qimasidan ajratib olish va uning saxarozaga ta'sirini o'rGANISHI	4	
Fotosintez	10	Barg pigmentlari va ularning xususiyatlari	2	
	11	Barg pigmentlarini M.S.Tsvet usulida bir-biridan ajratish	2	
	12	Yorug'lik ta'sirida kraxmal xosil bo'lishini aniqlash	4	
	13	Fotosintez tezligiga yorug'lik kuchining ta'siri	2	
	14	Fotosintez tezligiga tempiraturaning ta'siri;	2	
	15	Fotosintez jarayonida kislород ajralib chiqishini aniqlash	2	
O'simliklardagi nafas olish jarayoni	16	Ungan urug'lar tomonidan kislород o'zlashtirilishini aniqlash	2	
	17	Nafas olishda ajralib chiqadigan karbonat angidridni	2	
	18	Nafas olish koeffitsientini aniqlash	2	
O'simliklarda suv almashinuvি	29	Ildizning bosim kuchini aniqlash	2	
	20	Guttatsiya hodisasini kuzatish	2	
	21	Barg og'izchalarining ochilish darajasini infiltratsion usulida aniqlash.	2	
	22	Barg og'izchalarini harakatini mikroskopda kuzatish	2	
	23	Transpiratsiyani kobalt usulida	2	
	24	Transpiratsiyani hajviy usulda aniqlash	2	
O'simliklarda mineral almashinuvি	25	O'simliklar kulida uchraydigan makro va mikro elementlarni aniqlash	2	
	26	O'simliklarning azot, fosfor va kaliy elementlariga bo'lgan talabini. V.V. Tserling usulida aniqlash	2	
O'simliklarning o'sishi, ivojlanishi, parvarish qilinishi va vegetativ ko'paytirish usullari	27	Ildizlarning o'sish zonasini aniqlash	2	
	28	Poyaning o'sish zonasini aniqlash	2	
	29	O'simliklarning o'sishiga yorug'lik va qorong'ulikning ta'siri	2	
	30	O'simliklardagi geotropizm harakatini aniqlash	2	
	31	O'simliklarni suvda, qumda, tuproqda o'stirish	4	
	32	O'simliklarni parxesh qilish yo'li bilan ko'paytirish	2	
	33	O''simliklarni bargsiz va bargli qalamchalarini orqali ko'paytirish	2	
O'simliklarning tashqi	34	O'simliklarning issiqliq chidamliligini aniqlash	2	

nogulay omillariga moslashuvini aniqlash	35	Tsitoplazmaning sovuqqa chidamlilagini oshirishda shakarning roli.	2	
JAMI:			80 soat	

1. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Plazmoliz va deplazmoliz.

Umumiy ma'lumot:

O'simlik hujayrasi o'z shirasi konsentratsiyasidan yuqori bo'lgan (gipertonik) eritmaga botirliganda sitoplazmasi membranasidan ajraladi. Bu hodisa plazmoliz deb ataladi. Plazmoliz holatidagi hujayralar suvgaga yoki gipotonik eritmaga botirliganda, hujayra sitoplazmasi qaytadan o'z po'stiga borib taqalishi deb ataladi.

Konsentratsiyasi bir-biriga mos kelgan eritmalar *izotonik* eritma deyiladi.

Kerakli o'quv materiallari.

Mikroskop, buyum oynasi, qoplag'ich oyna, ustara, filtr qog'oz, qizil piyozi, NaCl, KCl yoki saxarozaning 1n li eritmasi.


Darsning maqsadi:

Hujayra ichki suyuqligini o'z membranasi (po'sti)dan ajralishi va qayta o'z holatiga tiklanishini mikroskop ostida kuzatish.

Ishning bajarilishi.

Antotsion (rangli qizil) piyozi po'stidan ustara yordamida yupqa kesik olinadi. yupqa kesik buyum oynasiga qo'yilib, ustiga suv tomiziladi, uni qoplag'ich oyna bilan yopiladi. Hujayralar bir tekis bo'yalgan va tarang holda ko'rindi. Qoplag'ich oynanining bir chekkasiga NaCl, KCl yoki saxarozaning 1 n eritmasidan bir tomchi tomiziladi.

Qoplag'ich oynanining ikkinchi tomonidan filtr qog'oz bilan suv shimdirlab olinadi. SHu vaqtda sitoplazma hujayra po'stidan ajralib o'rtaga to'plana boshlaydi. Sitoplazma birdaniga hujayraning markaziga o'tib ketmasdan, avval hujayra po'stining burchaklaridan ko'cha boshlaydi va to'liq ajraladi (1-rasm).



1-rasm. Plazmoliz hodisasi:

a-normal turgor holatdagi hujayralar; b-sitoplazmaning hujayra po'stidan ajralishi, ya'ni botiq plazmoliz; v-qavariq plazmoliz; g-sitoplazmaning ayrim uchastkalarida hujayra po'sti bilan bog'langan Gext ipchalari (d).

Sitoplazmaning ba'zi bir qismlari sitoplazmatik ipchalar yordamida hujayra po'stiga bog'langan bo'ladi. Bu ipchalar G ye x t ipchalari deb ataladi.

Oradan bir oz vaqt o'tgach, qoplagich oynaning bir chekkasiga bir tomchi suv tomizib, ikkinchi tomonidan dastlab tomizilgan kimyoviy eritma filtr qog'oz bilan shimdirlib olinadi. Suvning qayta shamilishi natijasida sitoplazma dastlabki holatiga qaytadi, ya'ni *deplazmoliz* hodisasi ro'y beradi.

Nazorat uchun savollar.

1. Plazmoliz hodisasi deb nimaga aytildi?
2. Deplazmoliz hodisasi qanday sodir bo'ladi?
3. Sitoplazmaning hujayra po'stida ajralish holatlarini aytинг?

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
4. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
5. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
6. Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

2. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Turgor hodisasini kuzatish.

Umumiy ma'lumot.

Tashqi muhit eritmasining osmotik bosim kuchi hujayra osmotik bosim kuchidan ko'p bo'lsa g i p ye r t o n i k, kam bo'lsa g i p o t o n i k , hujayra va eritmalarining osmotik bosim kuchlari bir-biriga teng kelsa i z o t o n i k eritma deyiladi.

Osmotik potensiali kuchli bo'lgan o'simlik hujayrasini suvgaga solganda tashqaridagi suv ichkariga o'tib, hujayra taranglashib, turgor holatga kekadi. Hujayrani turgor holatga keltirgan kuch t u r g o r b o s i m k u c h i deyilib, T harfi bilan belgilanadi. Turgor bosim kuchi ta'sirida hujayra po'sti kengayadi yoki buziladi. Biroq hujayra po'sti ma'lum darajagacha kengayib turgor bosimga teng bo'lgan kuch bilan ta'sir ko'rsatadi. Bu kuch W harfi bilan belgilanadi. Hujayra suvgaga to'yinganda osmotik bosim kuchi, turgor bosim kuchi va unga qarshi kuchlar o'zaro tenglashadi.

$$P=T-W$$

Kerakli o'quv materiallari:

Kartoshka, NaCl yoki qandning 1n eritmasi, chizg'ich, ikkita katta probirka, ustara.


Darsning maqsadi:

Kartoshka kesigi yordamida hujayralarning turgor holatini aniqlash.

Ishning bajarilishi.

Kartoshkadan uzunligi 5 sm, ko'ndalang kesimi 64 mm^2 bo'lgan 10 dona kesik tayyorlanadi (2-rasm). Kesiklarning 5 tasi NaCl yoki saxarozaning 1n eritmasiga, qolgan 5 tasi suvgaga solinadi. Oradan 1-1,5 soat o'tgach kesiklarning hamma tomoni qayta o'lchanadi. Qand yoki NaCl eritmasiga solingan kesiklar burishib, hajmi kichrayib qoladi, suvgaga solinganlarining hajmi aksincha, kattalashib to'qimalari taranglashadi.

Hujayra yoki to'qimalarning taranglashi t u r g o r o s y e n t holat, taranglanish prosessining o'zi t u r g o r deyiladi.



2-rasm. Turgor hodisasini aniqlash uchun ishlataladigan bo'lakchalarining hajmi (mm) va shakli.

Izoh: Kartoshka kesiklari
qo'yiladi.

darsning boshida tayyorlanib eritma va suvgaga solib

Nazorat uchun savollar

1. Turgor nima?
2. Turgor bosim kuchi deb nimaga aytildi?
3. Laboratoriyada turgor hodisasi qanday usulda olib boriladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslardan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
4. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
5. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
6. Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

3. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Moddalarning hujayra ichiga o'tishini aniqlash.

Kerakli o'quv materiallari.

Kallodiy eritmasi yoki sellofan qog'oz, yod yoki FeCl_3 eritmasi, 2 foizli kraxmal kleysteri yoki anor po'chog'idan tayyorlangan eritma, stakancha, keng og'izli probirka.

Darsning maqsadi:

Moddalarni hujayra membranasiga o'tishini aniqlash uchun stakandagi yod eritmasiga kraxmal solingan sellofan qog'ozni botirib, yod eritmasini sellofan orqali kraxmal eritmasi bilan aralashini kuzatish.

Ishning bajarilishi:


Buning uchun og'zi keng toza quruq probirkaga kallodiy eritmasi qo'yiladi va devoriga yuqtirish maqsadida probirka bir tekis aylantiriladi. Kallodiy yuqtirilgan probirka qo'lida ishqalab isitiladi. Undan efir hidi chiqishi tugagandan so'ng probirka sovuq suv bilan chayiladi, keyin devoriga yopishgan kallodiy pardasi pinset (lanset) yordamida ajratiladi. Pardani oson ajratish uchun kallodiy pardasi bilan probirka devori orasiga bir necha tomchi suv tomizilsa, kallodiy xaltacha shaklida ajraladi. Xaltachani butun ekanligini aniqlash uchun puflab ko'rildi.

Agar kallodiy eritma bo'lmasa, eritma o'rniqa sellofan qog'ozdan foydalanadi. Sellofan qog'oz ishqalanganda (shiqirdagan) ovoz chiqarishi va yupqa bo'lishi kerak.

Sellofan qog'ozga yoki ajratib olingan kallodiy xaltachasi ichiga 2 foizli kraxmal eritmasi qo'yib, uni yod (I) yoki K I eritmasi solingan stakanga botiriladi. Oradan bir oz vaqt o'tgach xaltacha ichidagi kraxmal eritmasi rangi o'zgara (ko'kara) boshlaydi. Bu hodisa chala o'tkazuvchi parda orqali sof eritma ionlari o'tishini, kalloid zarrachalarining kraxmal misellalari o'tmaganligini ko'rsatadi (3-rasm).

3-rasm. Moddalarning hujayra ichiga o'tishi unda to'planishi.

a-kollodiy xaltacha , b-yod+kaliy yodid eritmasi, v-xaltacha osib qo'yiladigan shisha tayoqcha.



Tajriba oxirida eritmadiagi yod ionlari xaltacha ichiga o'tib bo'lganligi aniqlanadi. Agar stakandagi sarg'ish yod eritmasi rangsizlanib qolsa, bu hodisa eritmadiagi yod ionlari xaltachaga o'tib bo'lganligini ko'rsatadi. Buni quyidagicha tushinish mumkin. Kraxmal misellalari chala o'tkazuvchi parda orqali tashqariga o'ta olmaydi. Yod ionlari va molekulalari xaltacha ichiga bemalol o'tib, kraxmal bilan qo'shilishi natijasida boshqa turdag'i birikmaga aylanadi, ya'ni yod kraxmal bilan bog'lanadi. SHu sababli yod tashqariga chiqmasdan xaltacha ichida to'planadi.

Eslatma. Kallodiy xaltacha o'rniga sellofan qog'oz, kraxmal kleysteri o'rniga anor po'chog'idan tayyorlangan eritmadan, yod eritmasi o'rniga FeCl_3 ning och sariq eritmasidan foydalanish mumkin. Anor po'chog'idan eritma tayyorlash uchun u suvda qaynatilib, filtrlanadi. Po'choq tarkibidagi oshlovchi modda – tannin suvga ajralib chiqqach eritma sifatida ishlataladi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.O'simlik hujayrasiga suv handay so'rildi?
2. Moddalarni hujayra membranasiga o'tishini handay anihlanadi?
3. Gipotonik va gipertonik eritma nima?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5..Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

4. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Oqsilning xossalari bilan tanishish.

Umumiy ma'lumot:

Barcha tirik organizmlarda uchraydigan oqsil birikmalari juda murakkab tuzilgan bo'lib, ularning sintezlanishida 20 xil aminokislota ishtirok etadi. Aminokislotalarning xilma-xil nisbatda va har xil izchillikda bir-bir bilan bog'lanishidan oqsillar hosil bo'ladi. Oqsillar oddiy (proteinlar) va murakkab (proteidlar) gruppasiga bo'linadi.

Proteinlar faqat aminokislotalardan hosil bo'lган sof oqsil birikmalardir. Proteidlar esa sof oqsil bo'lмаган moddalar bilan qo'shilishidan hosil bo'ladi. O'simliklar to'qimasidagi oqsillarning ba'zi xossalari bilan tanishish uchun quyidagi mashg'ulotni o'tkazish tavsiya qilinadi. Mashg'ulot o'tkazish uchun dastlab toza kolbaga 5 g no'xat yoki chigit uni solinadi. Ustiga 10% li NaCl yoki $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ eritmasidan 50 ml qo'yib, aralashma 3 minut chayqatiladi. So'ngra 30 minut tindiriladi. SHundan keyin eritma burmali filtr orqali toza quruq kolbaga filtrlanadi. Filtrat loyqa bo'lsa, u qayta filtrlanadi. Bu holda filtratga globulin gruppasiga kirgan oddiy oqsil o'tadi. Keyin oqsilning xossalari bilan quyidagicha tanishiladi:

Kerakli o'quv materiallari: No'xat yoki chigit uni, 2 ta kolba, shtativ, probirkalar, spirt, lampa, filtr qog'oz, voronka, 10% li NaCl yoki $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$, 5-10% li Pb $(\text{CH}_3\text{COO})_2$ eritmasi, 10% li NaOH, 20% NaCl, MgSO₄ yoki $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$, NaCl kristallari, ammiak, HCl, HNO₃ yoki H₂SO₄, 10% li CuSO₄ eritmasi.

Darsning maqsadi:

O'simliklar tarkibida oqsillar mavjudligini aniqlash va shu oqsillar xossalari bilan tanishish.

Ishning bajarilishi.

1. Toza quruq probirkaga 1 ml filtrat solib, ustiga 3-5 ml suv qo'yiladi. Agar probirkadagi tiniq filtrat loyqalansa, bu hol globulin suvda erimaganligini ko'rsatadi. SHu probirkaga 3-5 ml 20% li NaCl va MgSO₄ ning neytral tuzlari yoki $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ eritmalaridan biri qo'shib aralashtirilsa, loyqalangan eritma qaytadan tiniq holga keladi. Bu hodisa globulin kuchsiz konsentrasiyalı tuz eritmasida ham erishini ko'rsatadi.
2. Toza probirkaga 1 ml filtrat qo'yib, unga 0,5 g NaCl kristallari qo'shiladi. Bu holda probirkadagi eritmaning konsentrasiyasi 50% ortadi, globulin cho'kadi, eritma esa loyqalanadi. Bu hodisa oqsilning sho'rланishi deyiladi. Eritmaga suv qo'shib konsentrasiyasi pasaytirilsa, u yana tiniq holga keladi.

3. Toza quruq probirkaga 1 ml filtrat qo'yib, ustiga NCl, HNO₃ yoki H₂SO₄ birortasidan 5 tomchi qo'shiladi. Kuchli kislota ta'sirida oqsil denaturasiyalanadi, ya'ni ivib qoladi va o'z xususiyatini yo'qotadi. Bu cho'kmaning neytral tuzlar eritmasida va suvda erimasligini tajriba qilib ko'rish kerak.

4. Probirkaga 1 ml filtrat qo'yib spirt lampa alangasida isitiladi. Filtratdagi oqsil issiqlik ta'sirida o'z xususiyatini yo'qotib, cho'kmaga tushadi.

Filtrat tarkibidagi oqsil bor-yo'qligini aniqlash uchun ba'zi rangli reaksiyalar qilib ko'riladi.

Masalan:


1. Biruyet reaksiyasi. Bu reaksiyani o'tkazishda probirkaga 1 ml filtrat qo'yib, unga 10% li ishqor va bir necha tomchi CuSO₄ ning 10% li eritmasi qo'shiladi. Reaksiya prosessida hosil bo'lган Cy(OH)₂ eritmasi cho'kmasi oqsil ta'sirida ko'kish-binafsha rangli eritmaga aylanadi. SHunday qilib, oqsil tarkibida peptid gruppasi (CO-NH) mavjudligi Biruyet reaksiyasini vujudga keltiradi.



2. Ksantoprotein reaksiyasi. Bu reaksiyani o'tkazishda probirkaga 1 ml filtrat va 2-3 tomchi konsentrangan HNO₃ qo'yib, aralashma isitiladi. Natijada sariq rangli cho'kma va eritma hosil bo'ladi. Probirkadagi eritma sovugandan keyin unga asta-sekin 1-2 tomchi ammiak qo'shilsa cho'kma va eritma zarg'aldoq tusga kiradi. Bunda fenilalanin, triptofan va tirozin aminokislotalari ishtirokida ksantoprotein reaksiyasi boradi.

3. Millon reaksiyasi. Probirkaga 1 ml filtrat qo'yiladi va ustiga bir necha tomchi Millon reaktivini tomizib qaynatiladi. Hosil bo'lган cho'kma qizg'ish tusga kiradi. Bu hodisa oqsil tarkibida tirozin aminokislotosi borligini ko'rsatadi.

4. Fol reaksiyasi. Bu reaksiya oqsil tarkibida oltingugurt atomlari tutgan uistin va uistein aminokislotalarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Uistin va uistein aminokislotalari tarkibida mustahkam bog'lanmagan holdagi oltingugurt molekulalari uchraydi. SHu sababli bu aminokislotalarga NaOH ga qo'rg'oshin asetat eritmasi qo'shilgan aralashma ta'sir ettirilganda, aminokislota tarkibidan oltingugurt molekulalari ajralib chiqib, qo'rg'oshin molekulalari bilan qo'shiladi. Natijada bu aralashma qo'rg'oshin sulfid tuzi (PbS) ga, uistin va uistein aminokislotalari siren aminokislotasiga aylanadi. Ayni vaqtida probirkada qora rangli cho'kma hosil bo'ladi. Bu reaksiya quyidagicha boradi.





Filtratdagi uistin va uistein aminokislotalarning miqdoriga ko'ra, reaksiya vaqtida hosil bo'lган cho'kmaning rangi har xil bo'ladi. Masalan, aminokislolar miqdori kam bo'lsa cho'kma qo'ng'ir, ko'p bo'lsa qora rangda bo'ladi. Bu mashg'ulot quyidagicha o'tkaziladi.

Tekshiriladigan oqsil eritmasidan probirkaga 5-10 tomchi solib, unga 5-10 tomchi Fol reaktivi qo'shib qaynatiladi. 1-2 minutdan so'ng aralashmada qo'ng'ir yoki qora cho'kma hosil bo'ladi.

5. Ningidrin reaksiyasi. Oqsilli filtratga bir necha tomchi suvda eritilgan 0,5% li Ningidrin eritmasidan qo'shib qizdirilganida eritma pushti yoki ko'k-binafsha rangga kiradi.

6. Adashkevich reaksiyasi. Bu reaksiyani o'tkazishda dastlab oqsilli eritmaga bir necha tomchi konsentrangan sirka kislota (CH_3COOH) qo'shib, ehtiyotlik bilan isitiladi. Eritma sovugandan keyin probirkaga devori bo'y lab ehtiyotlik bilan konsentrangan H_2SO_4 qo'yiladi. SHunda probirkadagi eritma ikki qavatga ajraladi, ya'ni yuqorida sirka kislota, pastda H_2SO_4 bo'ladi, ularning chegarasida qizil-binafsha halqa hosil bo'lганligi tarkibida aminokislota va oqsillar borligini ifodalarydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Oqsillar qanday organizmlarda uchraydi?
2. Organizmlar uchun oqsilning roli nimadan iborat
3. Oqsil tarkibida qancha aminokislolar uchraydi?
4. Tajribada oqsillarning xossalari qanday bilish mumkin?

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi – asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.

2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
4. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
5. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
6. Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

5. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Oqsilning rangli reaksiyaları (M.X. Chaylaxen usulida).

Kerakli o'quv materiallari:

5% li CuSO₄, spiritning 96% li eritmasi, 10% li NaOH, 1:1 nisbatda suv bilan suyultirilgan nitrat kislota, 1:2 nisbatda suv bilan suyultirilgan ammiak eritmasi, g'o'za, lavlagi, karam va boshqa o'simliklarning bargi.

Darsning maqsadi:

O'simliklar tarkibidagi oqsillarni rangli reaksiyalar orqali bir-biridan ajratish.

Ishning bajarilishi.

G'o'za yoki biror boshqa o'simlikning bargi qaynab turgan suvga botiriladi va 1-2 minutdan so'ng suvdan olib 96⁰li spirit qo'yilgan kolbaga solinadi. Kolba og'ziga sovutgich o'rnatiladi. So'ngra kolbani suv hammomiga qo'yib, 30-60 minut isitiladi. Bunda barg tarkibidagi yashil va sariq pigmentlar, erkin aminokislotalar va suvda eriydigan oqsil (albumin) lar spiritda to'planadi.

Rangsizlangan barglarni kolbadan olib, distillangan suvga botirib olinadi va har qaysisi alohida yassi idishga yoyiladi. yassi idishlarda quyidagi reaksiyalar o'tkaziladi.

1. Biruyet reaksiyasi. Petri idishidagi yoki boshqa bir likopchadagi barg ustiga mis kuperosi (CuSO₄) ning 5% li eritmasi qo'yilib, 1 soat saqlanadi. So'ngra bargni eritmadan olib distillangan suvda chayiladi va 10% NaOH solingan idishga botirib qo'yib, unda ham 1 soat saqlanadi. Bunda barg to'qimasining binafsha rangga kirishi uning tarkibidagi oqsillar va peptid bog'lari bo'lgan pepton, polipeptidlar borligini ko'rsatadi.

2. Ksantoprotein reaksiyasi. Bunda konsentrangan nitrat kislota 1:1 nisbatda suv bilan aralashtiriladi. Rangsizlantirilgan barg shu eritmaga 15-30 minut solib qo'yilgandan so'ng sariq rangga kiradi. Agar uni ikkinchi idishga solib qo'yilgandan so'ng (sariq rangga kiradi)

1:2 nisbatda suv bilan suyultirilgan ammiak qo'yilsa, barg zarg'aldoq rangga kiradi. Bu reaksiya ham barg tarkibida oqsil borligini ko'rsatadi. Lekin protaminlar gruppasidagi oqsillarni ksantoprotein reaksiyasi yordamida aniqlab bo'lmaydi.

3. Millon reaksiyasi. Rangsizlantirilgan barg Millon reaktivida 30-60 minut saqlanganida qizg'ish rangga kiradi. Bu hodisa barg tarkibida oqsillar borligini ko'rsatadi.

Eslatma: Rangning to'q va och bo'lishiga qarab, oqsil miqdorini 5 balli sistema bilan baholash mumkin. Masalan, oqsil juda oz bo'lsa 1, oz bo'lsa 2, o'rtacha bo'lsa 3, ko'p bo'lsa 4 va juda ko'p bo'lsa 5 ball bilan baholanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Barg tarkibidagi oqsillarni qaysi usul yordamida aniqlash mumkin?
2. Biuret reaksiyasi qanday bajariladi?
3. Million reaksiyasi qanday boradi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi – asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
4. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
5. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.

Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

6.Laboratoriya ishi.

Mavzu: O'simlik tarkibida oshlovchi moddalarni aniqlash.

Umumiy ma'lumot:

O'simliklarda moddalar almashinuvni prosessida o'ziga xos ba'zi birikmalar hosil bo'ladi. Bular oshlovchi moddalar deyiladi. Ular xom terini oshlashda foydalaniladi. O'simliklardan olinadigan oshlovchi moddalar fiziologik aktiv birikmalar qatoriga kiradi va o'simliklarning o'sishi hamda rivojlanishi davrida ularning miqdori o'zgaradi. Masalan, S.V. Durmishidze ma'lumotlariga ko'ra uzumning urug'i tarkibida kaxetin miqdori iyul oyida 70% ni tashkil qilgan bo'lsa, sentyabr oyida 20% dan oshmag'an.

Oshlovchi moddalar ta'sirida oqsillar gullanadi. Oshlovchi moddalar bilan ishlangan terining elastikligi ortadi, suv va chirituvchi bakteriyalarga chidamliligi ortadi.

Oshlovchi moddalar asosan paporotniklar va ikki pallali o'simliklar to'qimasida uchraydi. Ular oq qayin, dub, kashtan, tol, qarag'ay kabi daraxtlar po'stlog'idan, dub, akumpinging bargidan, ravoch va ildizidan olinadi.

O'simliklar tarkibida oshlovchi moddalar bor-yo'qligi quyidagi usullar bo'yicha aniqlanadi:

Kerakli o'quv materiallari:

Spirit, lampa, har xil o'simliklarning bargi, filtr qog'oz, voronka, 1% li FeCl_3 eritmasi.

Darsning maqsadi:

Maxsus reaksiyalar yordamida qaysi tur o'simlikdarda oshlovchi moddalar borligini aniqlash.

Ishning bajarilishi.

1. O'simlikning biror qismidan olib, 5-6 ml suvda qaynatiladi. Keyin sovutib filtrdan o'tkazilgandan so'ng, unga 1-2 tomchi 1% li temir (III) xlorid eritmasi qo'shiladi. Oshlovchi moddalarning miqdoriga qarab bu aralashma to'q yoki och qora rangga kiradi. Bu tajribaning natijasi quyidagi jadval shaklida yozib boriladi.

O'simlik turi	Tekshirilayotgan materialning qaysi qismidan olinganligi.	Qorayish darajasi		
		kuchli i	o'rtacha	kuchsi z

2. O'simlik biror organini shirasini siqib olib, unga bir tomchi FeCl_3 eritmasi qo'shiladi. Agar bu aralashma qora rangga kirsa, unda oshlovchi modda borligini bildiradi.

3. O'simlikning kesilgan qismiga bir tomchi FeCl_3 eritmasi tomiziladi, bu joyning qorayib qolishi uning tarkibida oshlovchi modda borligidan dalolat beradi.

Nazorat uchun savollar.

1. O'simliklarda moddalar almashinuvi prosessi qanday boradi?
2. Oshlovchi moddalar nima?
3. Qanday o'simliklar tarkibida oshlovchi moddalar bor?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
4. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
5. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
6. Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

7. Laboratoriya ishi.

Mavzu: O'simliklar tarkibida alkoloidlar

borligini aniqlash.

Umumiylar:

Tarkibida azot saqlagan va asosiy xossalari ega bo'lgan geterosiklik birikmalar alkoloidlar deyiladi. Alkoloidlar achchiq ta'mli bo'lib, loladoshlar, ayiqtovondoshlar oilasiga kiradigan o'simliklarda va ikki pallali do'kkakdoshlarning po'stlog'i, bargi, poyasi va boshqa qismlarida (1-2%), xin daraxtining po'stlog'ida (20%) uchraydi.

Alkoloidlarning o'simliklar uchun ahamiyati hali to'liq o'r ganilmagan, biroq ular oqsillar almashinuvida ishtirok etishi mumkin. Masalan, tamaki maysalar tarkibida nikotin miqdori

ortib borishi hisobiga oqsil kamayadi, urug'ning yetilishida, aksincha, nikotin miqdori kamayib, oqsil ko'payadi. Alkoloidlar moddalar almashinuvida ishtirok etishini bir qancha olimlar tajribada isbotlaganlar

Kerakli o'quv materiallari:

Lyupin, kartoshka, bangadevona yoki boshqa alkoloidli o'simliklar, shisha tayoqcha, pipetka, lyugol eritmasi (yodning kaliy yodiddagi eritmasi), havoncha.

Darsning maqsadi:

yuqorida nomlari ko'rsatilgan o'simliklar yoki boshqa tarkibida alkoloidi bor (tamaki, termopsis, ayiqtovon ...) o'simlikning ezilgan massasiga kaliy yodid eritmasi tomizib o'simlik tarkibida alkoloid oz yoki ko'pligi, bor yoki yo'qligini aniqlash.

Ishning bajarilishi:

Alkoloidlarni aniqlashda o'simliklardan olingan shiraga ta'sir ettiriladigan tannin va pikrin kislotaning suvdagi to'yangan eritmalari, 1% li yod+kaliy yodid yoki $K_4Fe(CN)_6$ eritmasi va boshqa maxsus birikmalar bor.

Tajriba uchun tarkibida alkoloid bo'lган bironta o'simlik (tamaki, termopsis yoki ayiqtovon) ning ildizi, bargi yoki mevasini havonchaga solib shisha tayoqcha bilan eziladi. SHu ezilgan massaga bir tomchi yod eritmasi tomizilsa, qizg'ish-qo'ng'ir cho'kma hosil bo'ladi. Bu cho'kma miqdoriga qarab alkoloidning ko'p yoki ozligi aniqlanadi.

Tajriba natijalari quyidagi jadval shaklida yozib boriladi.

O'simlik turi	Tekshirish uchun olingan o'simlik	CHO'kma miqdori		
		ko'p	o'rtach a	oz

Nazorat uchun savollar:

1. Alkoloidlar qaysi o'simliklar tarkibida ko'p uchraydi?
2. O'simliklarda alkoloidlar borligini qanday aniqlash mumkin?
3. Alkoloidlar o'simliklarning qaysi a'zolarida ko'proq to'planadi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

9.Laboratoriya ishi.

Mavzu: Saxaroza-invertaza fermenti (enzim)ni o'simlik to'qimasidan ajratib olish va uning saxaroza (shakar)ga ta'sirini o'rganish.

Umumiy ma'lumot:

Tirik organizmlarda sodir bo'ladigan moddalar almashinushi prosessining borish tezligi fermentlar aktivligiga bog'liq. SHuning uchun fermentlar organik katalizatorlar deyiladi. Fermentlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, har bir ferment ma'lum bir organik moddaga yoki uning ayrim qismlariga ta'sir qiladi. Tirik organizmlarda fermentlarning 2000 dan ko'proq turi uchraydi.


Kerakli o'quv materiallari:

Quruq achitqi, 5-10% li saxaroza eritmasi, 10% li NaOH va CuSO₄ eritmalar, probirkalar, suv hammomi, kvars qum, havoncha, spirt, lampa, pipetka.


Darsning maqsadi. O'simliklar to'qimasidan fermentlarni ajratib olish va uni shakarga ta'sirini o'rganish.

Ishning bajarilishi.

SHakarni parchalashda ishtirok etadigan fermentning ta'sirini o'rganish uchun achitqi zamburug'i tarkibidan saxaroza fermenti ajratib olinadi. Bu ish quyidagicha bajariladi. 0,5 g achitqiga bir oz qum va 5 ml suv qo'shib havonchada eziladi. Aralashmaga 15 ml 60° li suv qo'shib 30 minut tinch qoldiriladi. So'ngra burmali filtrdan o'tkaziladi. Filtrat tiniq bo'lishi kerak, agar loyqa bo'lsa qayta filtrlanadi. Filtratda saxarozani (qamish va lavlagi shakarini) parchalovchi saxaroza yoki invertaza fermenti bo'ladi. Ikkita toza quruq probirkaga 5 yoki 10% li saxaroza eritmasidan 10 ml qo'yiladi. Ularning har qaysisiga 1 ml dan filtrat qo'shiladi. Bitta probirkadagi eritma shu vaqtning o'zidayoq spirt lampa alangasida qaynatiladi. Ikkinci probirka qizdirilmasdan 40° issiq suv hammomiga joylanadi, so'ngra birinchi probirka ham ikkinchi probirka yoniga qo'yiladi va 20-30 minut tinch qoldiriladi. So'ngra ikkala probirkadan 3 ml dan eritma olib, probirkalarga 3 ml 10% li NaOH hamda 3 ml 10% li CuSO₄ reaktivlari qo'shiladi va bu aralashma spirt lampa alangasida qizdiriladi. Natijada Cu(OH)₂ ning ko'k cho'kmasi hosil bo'ladi. Bu reaksiya quyidagicha boradi:



Agar ferment ta'sirida shakar monosaxaridlarga parchalangan bo'lsa, Cu(OH)₂ glyukoza bilan reaksiyaga kirishib, mis (I)-oksid (CuO), mis (II)-oksid (Cu₂O) ga aylanadi, qizil yoki sariq rangdagi cho'kma hosil qiladi. Bu reaksiya quyidagicha boradi:



Ferment qo'shib qizdirilgan probirkadan olingan eritmada yuqorida aytilgan reaksiya yuz bermaydi, chunki shakar eritmasiga qo'shilgan ferment issiqlik ta'mirida buziladi, ya'ni o'z xususiyatini butunlay yo'qotadi. SHu sababli probirkadagi shakar monozalarga parchalanmasdan qoladi va Cu(OH)₂ bilan reaksiyaga kirishmaydi.

Nazorat uchun savollar.

1. O'simliklar to'qimasidan fermentlarni qanday ajratib olish mumkin?
2. Qaysi o'simliklar tarkibida saxaroza miqdori ko'p bo'ladi?
3. Saxaroza-invertaza fermentini o'simlik to'qimasidan ajratib olish uchun saxaroza qanday ta'sir qiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

10. Laboratoriya ish.

Mavzu: Barg pigmentlari va ularning xususiyatlari.

Umumiy ia'lumot:

Fotosintez prosessi xlorofill ishtirokida boradi, uning vositasida yorug'lik nuri yutiladi. Xlorofill yutgan spektr nurlarining energiyasi suv molekulasini parchalashda ishtirok etadi. Suv tarkibidan ajralgan vodorod atomlari hisobiga CO_2 organik moddalargacha qaytariladi. Xlorofill tomonidan yutilgan yorug'lik energiyasi hisobiga fotoliz prosessi borishi bilan birga energiyaga boy N molekulalari to'planadi. Kelajakda ular energiyasi fotosintez qorong'ulik fazasida organik moddalarning sintezlanishida sarflanadi.

Quyosh energiyasining yutilishida ishtirok etadigan xlorofill pigmentlari a ($\text{C}_{56}\text{H}_{72}\text{O}_5\text{N}_4\text{Mg}$) va b ($\text{C}_{56}\text{H}_{70}\text{O}_6\text{N}_4\text{Mg}$) shaklda bo'ladi. Bulardan tashqari suvo'tlarda d ($\text{C}_{55}\text{H}_{71}\text{O}_1\text{N}_4\text{Mg}$) va ximiyaviy formulasi aniqlanmagan s xlorofill turlari va oltingugurt bakteriyalarida bakterioxlorofill deb atalgan yashil pigmentlar mavjud. Xlorofill boshqa zarg'aldoq ksantofill va sariq karotin pigmentlari xloroplast tarkibida bo'ladi.

Darsning maqsadi: Barglardan xlorofill pigmentini ajratib olinib, uning tarkibi va xususiyatlari o'r ganiladi.

Kerakli o'quv materiallari:

Spektroskop, yashil barg, probirkali shtativ, spirt, benzin, kristall holdagi yoki spirtda eritilgan ishqor, 20% li HCl, spirt, lampa, $\text{Cu}(\text{CH}_3\text{COO})_2$ yoki $\text{Zn}(\text{CH}_3\text{COO})_2$

Ishning bajarilishi:

Pigmentlarning xususiyatlari bilan tanishish uchun quyidagi ishlar bajariladi.


1. Bargdagi pigmentlar spirt eritmasiga o'tkaziladi. Buning uchun biror o'simlikning quruq yoki ho'l bargi maydalanganadi. Maydalangan bargga qum qo'shiladi va aralashma eziladi.

Ezilgan massaga 10 ml etil spiriti qo'shiladi va spirit to'q yashil eritmasi filtr yordamida toza quruq probirkaga yoki kolbaga filtrlanadi.


2. Pigmentlar Kraus usulida bir-biridan ajratiladi. Filtratdagi yashil rangli spirit eritmasi tarkibida 2 ta yashil xlorofill (a va b), 2 ta sariq pigment (karotin va ksantofill) bo'ladi. Bargdan olingan pigmentlarning biri spiritda, ikkinchisi benzinda oson eriydi. SHundan foydalanib pigmentlarni bir-biridan ajratib olish uchun asosan spirit va benzin ishlatiladi.

Quruq toza probirkaga 2-3 ml filtrat solib, unga 3-5 ml benzin qo'shib chayqatiladi. Bir necha minutdan keyin eritma 2 qavatli bo'lib qoladi. Ustki qavatda benzin, pastda spirit to'planadi. Xlorofill spiritga nisbatan benzinga yaxshiroq eriydigani uchun yuqori qavatda to'planadi. Eritma yashil rangga bo'yaladi. Bu qavatga xlorofilidan tashqari benzinda yaxshi eriydigan karotin pigmenti ham o'tadi. Spirit qavatida esa sariq pigment (ksantofill) yig'iladi. Agar spirit va benzin qavatlari bir-biridan qiyinlik bilan ajraladigan bo'lsa, probirkaga 1-2 tomchi suv qo'shib qayta chayqatiladi.

3. Feofitin hosil bo'lishi va vodorod atomining metall bilan qayta o'rin almashinishi aniqlanadi. Buning uchun filtratdan 2-3 ml olib, unga 20% li HCl kislotadan 4 tomchi qo'shiladi. Bunga filtrat yashil rangdan qo'ng'ir rangga kiradi. Bu reaksiya vaqtida xlorofill tarkibidagi Mg metali ajratilib, kislotadagi H bilan o'rin almashinadi va feofitin hosil bo'ladi. Bu reaksiya quyidagicha bajariladi:




Agar qo'ng'ir rangli eritmaga sirka kislotaning mis tuzi $Cu(CH_3COO)_2$ yoki ruh tuzi $Zn(CH_3COO)_2$ kristallaridan asta-sekin qo'shilib qizdirilsa qo'ng'ir rangli eritma qaytadan yashil tusga kiradi. Bu reaksiya quyidagicha boradi:



Bu reaksiya vodorod o'rmini metall (Cu yoki Zn) oladi, ya'ni xlorofill molekulasi metall organik birikma ekanligi isbotlanadi. Bu sirkal kislota katalizatorlik vazifasini bajaradi.

4. Xlorofillga ishqorlarni ta'siri tekshiriladi. Buning uchun quruq toza probirkaga filtratdan 2-3 ml olib, ozgina KON yoki NaOH kristallaridan qo'shib ehtiyotlik bilan qizdiriladi. Eritma sovigandan keyin ustiga 2-3 ml benzin tomizib, tinch qoldiriladi. Keyin qaralganda eritmada (benzin qavatida) sariq pigment (karotin), pastki qavatida yashil pigment (xlorofill) bo'lganligi ko'rindi. Ksantofill pigmenti xlorofill bilan birga pastki qavatda qoladi.

Xlorofill xlorofilindikarbon kislota bilan metil va fitol spirtlarining birikishidan hosil bo'ladi. SHunga ko'ra xlorofill murakkab efirlar gruppasiga kiradi. Xlorofillga ishqor ta'sir etganda sovunlanish reaksiyasiga kirishadi, ya'ni xlorofilindikarbon kislota tuzlariga, erkin metil va fitol spirtlarga parchalanib ketadi. Bu reaksiya quyidagicha boradi:



xlorofilindikarbon metil

kislotaning kaliyli spirt

tuzi

Sovunlanish reaksiyasida xlorofill rangini saqlab qolsa ham benzinda eruvchanlik xususiyatini yo'qotadi.

5. Xlorofill va boshqa pigmentlarning spektr nurlarini yutishi aniqlanadi. Buning uchun spektroskopda ko'zga tashlanib turgan 7 xil rangni aniq ko'rib olish kerak. Birinchi ishda qo'llangan probirka spektroskop oldiga qo'yiladi. Avvalo benzin qavatdagi xlorofill so'ngra spirt qavatdagi ksantofill nuri yutgan nurni aniqlash uchun sovunlanish reaksiyasi o'tkazilgan probirka ishlataladi. Xlorofill spektrda ko'ringan qizg'ish va ko'kish-binafsha nurlarni, sariq pigment ksantofill va karotin ko'kish-binafsha nurlarni yutganligi ko'rindi.

Nazorat uchun savollar.

1. Fotosintez nima?

2. Fotosintez jarayoni kayerda amalga oshadi?

3. Barg pigmentlарини кандай аниklash mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi – asoslardan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.

11 . Laboratoriya ishi.

Mavzu: Barg pigmentlarini M.S. Svet metodida bir-biridan ajratish.

Umumiy ma'lumot:

Rus olimi M.S.Svet (1901) «Xlorofill donachalarining fizik va ximik tuzilishi» degan ilmiy ishida, barg pigmentlarini bir-biridan ajratish uchun xromotografik usulini kashf etdi.

M.S.Svetning xromotografik usuli ayni vaqtida keng ko'llanilmoqda. Buning uchun oq bo'r yoki shakar kukunidan ustun tayyorlanadi. SHu ustun orqali pigmentli spirt eritmasi astag'sekin o'tkaziladi, moddalarning adsorbillanish darajasiga ko'ra pigmentlar birin ketin bir-biridan ajraladi. Oq bo'r yoki shakarga tez adsorbillangan modda ustunning yuqori qismida, kamroq adsorbillangani bir oz pastroqda, adsorbillanmaydigani to'g'ridan-to'g'ri ustundan o'tadi.

M.S.Svet ana shu usuldan foydalanib, rangli spirtli eritmada “a” va “b” xlorofill, karotin va ksantofill pigmentlarining molekulalari borligini ko'rsatib berdi.

Darsning maqsadi:

Bargdagи pigmentlarni bir-biridan ajratib, ularni ranglarini farq qilib, xlorofil a,b, karotin va ksantofillarni ajratish.

Kerakli o'quv materiallari:

O'simlik barglari, shisha nay, doka, 1-2 litrli idish, benzin, etil spirt, metil spirt, havoncha, kvars qumi, shakar kukuni, stakan, filtr qog'oz, ajratish voronkasi.

Ishning bajarilishi:

Aviasion benzinning 70⁰ da qaynaydiganining ikki qismiga bir qism 95% li spirt qo'shib aralashma taylorlanadi.

Quruq toza chinni havonchaga 0,2 g kvars qum solib, unga 1 g maydalangan o'simlik bargini qo'shib eziladi. Yuqorida taylorlangan eritmadan 10-15 ml ezilgan massaga qo'shib yana eziladi. Ezilgan massani stakanga solib usti shisha plastinka bilan yopiladi. Bu eritma 30 minut davomida aralashtiriladi. Keyin eritma filtrlanadi, filtr ustidagi qoldiq toza benzin bilan rangsizlanguncha yuviladi.

Filtrat ajratish voronkasiga qo'yilib bir necha marta chayqatiladi, so'ngra tindiriladi. Filtrat tinganidan so'ng ikki qavatga ajraladi. Yuqoridagi benzin qavatida karotin, xlorofil a,b molekulalari va ksantofil molekulalari, pastdag'i spirt qavatida esa ksantofil pigmenti yig'iladi. Keyin spirt qavat boshqa idishga qo'yib olinadi. Voronkada qolgan benzin eritmasi tarkibidagi ksantofil molekulalarini yo'qotish uchun 8 qism metil spirtga bir qism suv qo'shilgan aralashmdan 10 ml qo'shib chayqatiladi. Spirt qavati qaytadan oqizib olinadi.

Benzin qavatidagi suv molekulalarini yo'qotish uchun bu qavat quruq filtr orqali suziladi. Filtratga xlorofilning a,b molekulalari va karotin pigmenti o'tadi.

Filtrat tarkibidagi pigmentlarni bir-biridan ajratib olish ishlari quyidagicha bajariladi.

Uzunligi 15-20 sm, diametri 2-2,5 sm keladigan shisha nay olib, uning bir uchiga doka bog'lanadi. Doka ustiga zinch qilib gigroskopik paxta yoyiladi. Idish ichiga qand kukuni to'ldiriladi. Qand ustining balandligi 5-7 sm dan oshmasligi kerak. Qand ustini taylorlashda kukunning zinchligi bir xil bo'lishi shart, aks holda adsorbsiyalanuvchi pigmentlarning joylashish tartibi buzilishi mumkin, qand kukunini zichlashtirish uchun bir tomoni yassilangan tayoqcha ishlatiladi. Qand kukuni ustiga 10 ml benzin qo'yib, idishning og'zi tiqin bilan berkitiladi. Tiqinga o'rnatilgan egri nay o'z navbatida 1-2 l li idish bilan tutashtiriladi. Qand ustini benzin bilan to'yintirilgandan so'ng, ustiga pigmentli filtrat qo'yiladi. So'ngra idishning og'zi nay o'rnatilgan rezina tiqin bilan berkitilib, tutashtirilgan idish orqali unga havo beriladi. Bu bosim yordamida nayga solingen pigmentli benzin eritmasi asta-sekin siqib tushiriladi.

Qand ustining yuqori qavatida sarg'ish-yashil tusdagi xlorofil b, undan pastroqda ko'kish-yashil rangli xlorofil a joylashadi. Eritma tarkibidagi karotin stakanga o'tib ketadi. Agar pigmentlarning konsentrasiyasi kuchli bo'lsa, ustinning pastki qavatida karotin pigmenti to'q sariq tusda to'planadi. Eritmada ksantofil pigmentining molekulalari qolgan taqdirda, ular xlorofil a dan keyinda joylashadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Barg pigmentlarini bir-biridan ajratishning xromotografik usulini qaysi olim kashf etgan?
2. M.S.Svet bargdagi xlorofill pigmentlarini qanday aniqladi?
- 3.Laboratoriya sharoitida barg pigmentlarini bir-biridan qanday ajratiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi – asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.

12 . Laboratoriya ishi.

Mavzu: Yorug'lik ta'sirida kraxmal hosil bo'lishini aniqlash.

Umumiy ma'lumot:

Fotosintez prosessida dastlab uglevodlar hisobiga kraxmal va har xil organik birikmalar hosil bo'ladi. Bu moddalar o'simliklarning nafas olishi vaqtida va boshqa prosesslarning borishida sarflanadi. SHulardan kraxmal hosil bo'lishini aniqlaymiz.

Kerakli o'quv materiallari:

Qorong'u joyda turgan o'simlik, shakl tushirilgan qora qog'oz, shisha qalpoq, 300 yoki 500 vattli elektr lampa, spirt, HCl, oq bo'r, yod eritmasi.

Darsning maqsadi:

Kraxmal hosil bo'lishini aniqlashni o'rganish.

Ishning bajarilishi:

Tajriba o'tkaziladigan o'simlik bir-ikki kun qorong'u joyda saqlanadi. Qorong'uda o'simlik barglaridagi kraxmal parchalanib, oddiy shakarlarga aylanadi. Buni aniqlash uchun o'simlik barglaridan olib, issiq suvgaga botiriladi va spirtga solib rangsizlantiriladi. Oqargan bargga yod eritmasi ta'sir ettirilganda uning usti qizarib qolsa, bu hodisa kraxmal parchalanib ketganligini bildiradi.

Qorong'u joyga qo'yilgan o'simlik barglaridan bandi bilan uzib olib, suvli stakanga solib qo'yiladi. Barg plastinkasi birorta shakl yasalgan qora qog'oz bilan yopiladi. So'ngra stakanning ustiga shisha qalpoq kiydirib, kuchli yorug'lik tushib turadigan joyda 1-2 soat saqlanadi. Fotosintez prosessi normal borishi hamda barg ko'p miqdorda karbonat angidrid bilan ta'minlanib turishi uchun marmar yoki oq bo'r solingan idishga kislota qo'yib, shisha qalpoq ichiga qo'yiladi. Oradan 1-2 soat vaqt o'tgach barg qalpoq ichidan olinib, qora

qog'ozdan bo'shatiladi va darhol qaynab turgan suvga, so'ng spirtga botirib rangsizlantiriladi. So'ngra bargni likopchaga yoyib, ustiga yod eritmasi tomiziladi. Agar yorug'lik ta'sirida kraxmal hosil bo'lgan bo'lsa, u holda qora qog'ozdagagi shaklning o'rni ko'k rangga bo'yaladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Fotosintez prosessida kraxmal qanday hosil bo'ladi?
2. Fotosintez prosessida xlorofillning roli nimadan iborat?
3. Bargdan pigmentlarni qanday ajratish mumkin?
4. Eritmada nechta pigment bo'ladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslardan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
4. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
5. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
6. Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

13. Laboratoriya ishi.

Mavzu. Fotosintez tezligiga yorug'lik kuchining ta'siri.

Umumiyl ma'lumot:

YOrug'lik fotosintez prosessining kechishi uchun muhim ahamiyatga ega. Turli o'simliklarning yorug'likka bo'lgan talabi turlichadir. yorug'sevlar g'o'zaning yorug'likka talabi ayniqsa shonalanishi va gullash davrida orts, soyaparvar o'simlik samshit hatto yorug'likning 1/100 qismi bo'lsa ham o'saveradi, chunki bunday o'simliklarda xlorofill miqdori ko'p bo'ladi va ozgina tushgan yorug'likni ham ushlab qoladi.

Kerakli o'quv materiallari:

Elodeya o'simligi, NaHCO₃ tuzi, 200-300 ml hajmdagi ximiyaviy stakan, qaynatilgan suv, shisha tayoqcha, 200-500 vattli elektr lampa, chizg'ich, pichoq, qaychi, sekundomer, ip.

Darsning maqsadi:

Elodiya o'simligini svuga solib, unga yorug'lik ta'sir ettiriladi, o'simlikning kesilgan qismidan ajralib chiqadigan pufakchalar sonini hisoblash yo'li bilan fotosintez tezligini aniqlanadi.

Ishning bajarilishi: Bu ishni bajarish uchun suv o'simliklaridan Elodeyaning zararlanmagan poyasi olinadi va ichimlik sodasi bilan boyitilgan sovuq svuga solinib, uning uchki qismi kesiladi. Olingan novdaning suv betiga ko'tarilib chiqmasligi uchun u shisha tayoqchaga bog'lab tushiriladi.

O'simlik yorug'likka qo'yilishi bilan poyaning kesilgan qismidan po'fakchalar ajralib chiq boshlaydi.

YOrug'lik darajasining fotosintez tezligiga ta'sirini o'rghanish uchun stakandagi elodeyani yorug'lik manbaidan turli (40, 80, 120 sm) masofalarga joylashtiriladi va ma'lum vaqt oralig'ida ajralib chiqayotgan po'fakchalar sanaladi. Agar yorug'lik manbai sifatida foydalanilayotgan elektr lampasi 200-300 vattli bo'lsa, masofa oralig'i 40-50 mm bo'lishi kerak. Har bir masofa oralig'ida ajralib chiqayotgan po'fakchalar soni daftarga yoziladi, so'ngra esa olingan natijalar asosida xulosa qilinadi.

Nazorat uchun savollar.

1. yorug'likning fotosintez prosessiga qanday ta'siri bor?
2. Mashg'ulot jarayonida fotosintez tezligiga yorug'lik qanday ta'sir etadi?
3. Mashg'ulot uchun qanday jihozlar ishlataladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslardan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.

4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.

5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.

6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

14. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Fotosintez tezligiga temperaturaning ta'siri.

Umumiy ma'lumot:

Fotosintez tezligiga temperaturaning ta'sirini o'rganishda rangli ekranlardan foydalaniladi. Har xil hajmdagi stakanlarga temperaturasi turlichcha bo'lган (sovuv, issiq) suv ishlataladi.

O'simlikning nur manbaidan uzoqligi	Ekran	Temperatura $^{\circ}\text{S}$	5 min. davomida ajralib chiqqan po'fakchalar soni
40 sm	oq	20°S	
60 sm	oq	20°S	
80 sm	oq	20°S	
40 sm	oq	10°S	
60 sm	oq	10°S	
80 sm	oq	10°S	

Kerakli o'quv materiallari:

Suv o'simligi, 200-500 ml hajmdagi ximiyaviy stakan, shisha tayoqcha, issiq suv, termometr, 200-500 vattli elektr lampa.

Darsning maqsadi:

Suv o'simligini suvli stakanlarga solib, undagi suvni turli xil tempraturada saqlab, o'simlikda boradigan fotosintez tezligini o'rganiladi.

Ishning bajarilishi:

Tajriba vaqtida temperatura bir me'yorda tutib turish uchun o'simlik joylashtirilgan stakanligi suvgaga termometr tushirib qo'yiladi. Avval xona temperaturasida ($10-20^{\circ}\text{S}$), so'ngra sovuq ($5-10^{\circ}\text{S}$) temperaturada tutiladi va po'fakchalar ajralishini kuzatib sanaladi. Olingan natijalar jadvalga yozib olinadi va har xil temperaturaning fotosintez tezligiga bo'lган ta'siri haqida xulosa qilinadi.

Nazorat uchun savollar.

1. Fotosintezga temperaturaning ahamiyati qanday?
2. Fotosintezga temperatura qanday ta'sir ettiriladi?
3. Mashg'ulot uchun kerakli jihozlar?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

15 .Laboratoriya ishi.

Mavzu: Fotosintez jarayonida kislorod ajralib chiqishini aniqlash.

Umumiy ma'lumot:

O'simlilar fotosintez jarayonida karbonat angidridni yutib kislorod ajralib chiqaradi. Bu jarayon tabiatda moddalar almashinuv jarayonini muvofiqlashtirib turadi. Quruqlikda va suvda yashovchi o'simliklar bu jarayonni bir xilda amalga oshiradilar. Tajribada kislorodni ajralib chiqishini suv muhitida o'suvchi elodiya o'simligida aniqla ancha qulay hisoblanadi. Chunki suvli muhitda gaz ajralib chiqayotganda pufakchalar hosil bo'ladi. Ajradib chiqqan pufakchalar hisobiga kislorod ajralib chiqayotganiga xulosa qilish mumkin.

Kerakli o'quv materiallari:


Elodiya (suv o'simligi) katta banka, shisha voronka, probirka, gugurt.

Darsning maqsadi:

Fotosintez jarayonida kislorodning ajralib chiqishini o'rganish.

Ishning borishi:

Mashg'ulotni bajarish uchun bankaga suv qo'yiladi va ichiga elodiya o'simligi poyasidan bir nechta kesib olib, kesik tomonini yuqoriga qilib joylashtiriladi. Suv ichida poyaning kesigi yangilanadi. Shisha voronkani bankadagi suv o'simligi ustiga tushiriladi. Bunda voronka uchi ham suvgaga botib turishi kerak. Suvga ozgina choy sodasi (NaHCO_3) solib, karbonat angidridga boyitiladi. Probirkaga yaxshilab suv to'latib, bosh barmoq bilan yopib suv ichida voronka uchiga kiygizamiz (8-rasm).



8-rasm. Suv o'tlaridan fotosintez vaqtida kislorod ajralib chiqishi.

Bu vaqtida poyaning kesilgan joyidan kislorod pufakcha shaklida ajralib chiqib, probirkaga yig'ila boshlaydi. Probirka gazga to'lgandan keyin uni ehtiyyotlik bilan olib og'ziga cho'g' yoki gugurt cho'pi tushirilsa, kislorod ta'sirida yonib ketadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Atmosferada qancha miqdorda kislorod bo'ladi?
2. Kislorodning o'simliklarga qanday ta'siri bor?
3. Fotosintez jarayonida kislorod ajralib chiqishini qanday aniqlash mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

16. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Ungan urug'lar tomonidan kislorod o'zlashtirishini aniqlash.

Umumiy ma'lumot:

Nafas olish prosessi barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lib, hayot uchun zarur energiya hosil qilishda asosiy manba hisoblanadi. Odamlar, hayvonlar va ko'pchilik o'simliklarda nafas olish erkin kislorod hisobiga boradi va aerob nafas olish prosessi deyiladi. Bunda sarflanadigan organik modda quyidagi tenglamaga muvofiq suv va karbonat angidridgacha parchalanadi.



Kislorodsiz sharoitda o'simliklarda anaerob nafas olish prosessi sodir bo'lib, bunda quyidagi reaksiyaga muvofiq energiya ajralib chiqadi.



Anaerob nafas olishda sarflanadigan organik moddaning oksidlanish natijasida etil spirt va karbonat angidrid ajralib chiqadi. Anaerob nafas olishda aerob nafas olishdagiga qaraganda energiya bir necha marta kam ajraladi. Kislorodsiz sharoitda hayot kechirishiga moslashgan ayrim mikroorganizmlarda anaerob nafas olish prosessi sodir bo'lib, oraliq mahsulotlar qatorida etil spirt, sut kislota, moy kislota va har xil gaz lar ajraladi. Mikroorganizmlarning anaerob nafas olish prosessi bijg'ish deyiladi. Nafas olish har qanday prosesslarida ham ajralgan energiyaning ko'p qismi mazkur mavjudotlarning hayot prosesslarida sarflansa, qolgan qismi issiqlik va yorug'lik ta'sirida tashqi muhitga tarqaladi. Bunda faqat organik moddalar sarflanmay, hayot uchun muhim bo'lgan birikmalar sintezlanadi. Demak aerob nafas olish, anaerob nafas olish va bijg'ish prosesslari juda murakkab bo'lib, bunda sarflanuvchi ortganik moddlar o'zgarishga uchraydi. Ma'lum vaqtida ma'lum miqdordagi o'simliklar to'qimasidan ma'lum miqdorda karbonat angidrid ajralishi nafas olish intensivligi deyiladi. Nafas olish intensivligi tashqi faktorlarga bog'liq bo'ladi.

Kerakli o'quv materiallari:


Ungan urug'lar egri shisha nay o'rnatilgan tiqin, probirkaga qo'yilgan ishqor eritmasi, rangli suv solingan idish.

Darsning maqsadi:

Og'zi bekitilgan (ikkita) idishda ya'ni havo kira olmaydigan qilib bekitilgan kolba ichiga yangi unayotgan urug'lar qanday qilib nafas olishini aniqlash.

Ishning borishi:

Mashg'ulotni o'tkazish uchun kolbaning yarmigacha ungan yoki nish otgan urug' solib, ular orasiga KOH yoki NaOH eritmasi qo'yilgan probirka joylanadi. Kolbaning og'zi egri shisha nay o'rnatilgan kauchuk tiqin bilan mahkam berkitiladi. Egri shisha nayning ikkinchi uchi rangli suv qo'yilgan idishga botirib qo'yiladi (11-rasm).



11-rasm. Nafas olish prosessida o'simliklar tomonidan kislorod iste'mol qilinishi aniqlanadigan asbob:

a-NaOH eritmasi quyilgan probirka; b-ungan urug'lar solingan kolba; v-ungan urug'lar; g-rangli eritmali idish; d-rangli eritmani kolba bilan birlashtiradigan shisha nay; ye-shtativ.

Oradan 20-30 minut o'tgach, idishdagi rangli eritma shisha nay orqali yuqoriga ko'tarila boshlaydi. Urug'larning nafas olishi qancha kuchli bo'lsa, rangli eritmaning ko'tarilishi ham shuncha kuchayadi. Rangli eritmaning ko'tarilishi kolba ichidagi havoning siyraklashuviga bog'liq. Ungan urug' nafas olish jarayonida kislorod qabul qilib, karbonat angidrid ajratadi. Ajralgan karbonat angidrid gazi probirkadagi ishqor bilan reaksiyaga kirishib bog'lanadi. Natijada kolba ichidagi havo siyraklashadi, uning o'rniga nay ichidagi rangli eritma ko'tariladi.

Nazorat uchun savollar.

1. O'simliklarning nafas olishi nima?
2. Uning umumiy tenglamasini yozing?
3. Ungan urug'lar tomonidan kislorod qanday o'zlashtiriladi?

Foydalilanigan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.

2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
4. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
5. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.

17. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Nafas olishda ajralib chiqadigan karbonat angidrid gazi (CO_2) ni aniqlash.

Kerakli o'quv materiallari:

To'rtta kolba, egri nay o'rnatilgan kauchuk tinqinlari, kauchuk naylar, aspirator, ungan urug' yoki ko'kargan o'simlik organlari, $\text{Ba}(\text{OH})_2$ eritmasi.

Darsning maqsadi. O'simliklar urug'larini nafas olish jarayonini aniqlash.

Ishning bajarilishi.

Bu mashg'ulotni o'tkazish uchun 200-300 sm^3 hajmdagi to'rtta kolba olinadi. Kolbalarning og'zi ikkita egri shisha nay o'rnatilgan kauchuk tinqinlar bilan mahkam qilib berkitiladi. SHisha naylarning biri uzun bo'lib, kolba tagiga 1 sm yetmasdan turishi kerak. Ikkinchisi kalta bo'ladi. Kolbalar kauchuk nay vositasida shisha nay orqali tutashtiriladi.

Birinchi, ikkinchi va to'rtinchi kolbalarning yarmigacha $\text{Ba}(\text{OH})_2$ eritmasi qo'yiladi, uchinchi kolba esa ungan urug' yoki o'simlikning boshqa organi bilan to'ldiriladi. To'rtinchi kolbagaga suv to'ldirilgan katta ballon-aspirator tutashtiriladi.

Urug'lar normal nafas olish uchun zarur kislorod aspirator yordamida tashqi havodan yetkazib turiladi. Aspiratorning jumragi ochilib, undagi suv oqizilganda ichidagi havo siyraklashadi. Aspirator vositasida ulangan kolbalar orqali tashqaridan havo o'ta boshlaydi. Havo tarkibidagi karbonat angidrid birinchi va ikkinchi kolbalardagi $\text{Ba}(\text{OH})_2$ eritmasi tomonidan yutiladi. Tiniq barit suvining loyqalanib oq cho'kma hosil qilishi CO_2 gazi yutilganini ko'rsatadi.

Karbonat angidriddan tozalangan havo va uning tarkibidagi kislorod uchinchi kolbaga o'tib, undagi o'simlik organlari tomonidan nafas olishda qabul qilinadi. yutilgan kislorod o'rniga karbonat angidrid gazi ajralib chiqadi. Ajralib chiqqan CO_2 gazi to'rtinchi kolbadagi $\text{Ba}(\text{OH})_2$ eritmasi tomonidan yutiladi. Tiniq barit suvi loyqalanib, oq cho'kma hosil qiladi. Demak,

o'simliklar ham boshqa tirik organizmlar singari nafas olish vaqtida kislorod o'zlashtirib, karbonat angidrid gazi ajratib chiqarar ekan. Birinchi va ikkinchi kolbalarga nisbatan, to'rtinchi kolbadagi cho'kmaning miqdori ko'proq bo'ladi.

Nazorat uchun savollar.

1. Nafas olishda karbonat angidrid qanday ajralib chiqadi?
2. Mashg'ulotni o'tkazish uchun qanday jihozlar ishlataladi?
3. Urug'lar normal nafas olishi uchun kislorod qanday yetkazib turiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.


18. Laboratoriya ishi.

Mavzu: O'simliklarning nafas olish koeffisiyentini aniqlash.


Umumiy ma'lumot:

Nafas olishda ajralib chiqadigan karbonat angidrid (CO_2) miqdorining qabul qilingan kislorod miqdoriga bo'lgan nisbati nafas olish koeffisiyenti deyiladi. Bu ko'rsatkich nafas olish prosessida sarflangan organik birikmaning turini aniqlashga ham yordam beradi.


Darhaqiqat, nafas olishda uglevodlar sarflansa, nafas olish koeffisiyenti 1 ga teng bo'lishi tenglamadan ko'rindi:




Moyli o'simliklarda nafas olish prosessi moy kislotalar hisobiga borganligidan koeffisiyenti 1 dan kichik bo'ladi. Masalan:



Nafas olish prosessi organik kislotalar hisobiga borsa, koeffisiyent quyidagi tenglama asosida 1 dan katta bo'ladi.



Bu reaksiyaga asosan kislorodi kam birikmalar sarflanganda nafas olish koeffisiyenti 1 dan kichik, kislorodi ko'p bo'lgan birikmalar sarflanganda esa 1 dan katta bo'lar ekan. Nafas olish koeffisiyentini aniqlashda, odatda, moyli o'simliklar maysasi ishlatiladi.



12-rasm. Nafas olish koeffisiyentini aniqlashda ishlatiladigan asbob:

1-probirka; 2-egri shisha kapillyar; 3-millimetrlı qog'oz; 4-shisha kapillyarning teshigi; 5-kapillyar uchiga joylashtirilgan suv tomchisi; 6-kauchuk tiqin; 7-nish otgan urug'lar; 8-ishqor shimdirilgan filtr qog'oz.

Kerakli o'quv materiallari:

Egri kapillyar shisha nay o'rnatilgan kauchuk tiqinli katta hajmli probirka, temir shtativ, g'o'za, kanakunjunut va boshqa moyli o'simliklar maysalari, filtr qog'oz tasmalari, 20% li KON eritmasi.

Darsning maqsadi: O'simlikning unayotgan urug'laridan ajralib chiqayotgan kislorod va karbonat angidridning miqdorini tajribada o'rganish.

Ishning bajarilishi:

Buning uchun 12-rasmda ko'rsatilgan asbob olinadi. Uning ichiga chigit yoki kanakunjutning nish otgan urug'laridan solinib, probirkaning og'zi shisha kapillyar nay o'rnatilgan tiqin bilan zinch yopiladi. So'ngra nay uchiga pipetka yordamida bir tomchi suv kiritgach, vaqt belgilanadi. Oradan 20-30 minut o'tgandan so'ng nay uchiga kiritilgan suv tomchisi nay bo'ylab probirka tomonga harakatlanadi. Suv tomchisining o'tgan masofasi jadvalning A grafasiga yozib qo'yiladi. Bu ish 3 marta takrorlanib, o'rtacha son topiladi. Keyin shisha nay o'rnatilgan tiqinni olib, uning atrofi ishqor shimdirligani filtr qog'oz bilan o'raladi va probirkaning og'zi berkiladi. Nay uchiga suv tomchisi joylashtirilib, vaqt belgilanadi. 20-30 minut o'tgach, nay ichidagi suv tomchisi siljigan masofa aniqlanib, natijasi B grafasiga yoziladi. Bu ish har 3 marta takrorlanib o'rtachasi topiladi. Bunda A grafadagi o'rtacha son maysalar tomonidan yutilgan kislorodni, B grafadagi o'rtacha son nafas olishda ajralib chiqqan va ishqori qog'ozga shimilgan CO₂ hamda maysalar tomonidan yutilgan O₂ miqdorini ifodalaydi. Nafas olish koeffisiyenti topilgan sonlar asosida quyidagi tenglamaga muvofiq topiladi:

$$\frac{CO_2}{O_2} = \frac{B - A}{A}$$

Tenglamadagi B-A ishqorli qog'ozga shimilgan SO₂ miqdorini ko'rsatadi.

O'simlik turi	YUtilgan kislorod miqdori			YUtilgan kislorod va ajralgan SO ₂ miqdori «B» ml			Nafas olish koeffisiyenti $\frac{CO_2}{O_2} = \frac{B - A}{A}$	
			o'rtachas i			o'rtachas i		
	Takror	Takror		lanish	lanish			

G'o'za							
Bo'g'doy							
Zig'ir							

Nazorat uchun savollar.

1. O'simliklarning nafas olish koeffisneti nima?
2. O'simliklarda nafas olish prosessi qanday boradi?
3. Nafas olish koeffisnetini aniqlash uchun qaysi o'simliklardan foydalaniladi?

Foydalanimgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

19.Laboratoriya ishi.

Mavzu: Ildizning bosim kuchini aniqlash.

Umumiy ma'lumot:

O'simliklar sharoitga qarab suvni turlicha qabul qiladi. Suvni asosan ildiz tukchalari orqali qabul qiladi, undan o'tkazuvchi naylar orqali poyaga o'tadi. Naychalar ichidagi konsentrangan eritma tomonidan aktiv shimilgan suv hisobiga hosil bo'lgan kuch ta'sirida o'tkazuvchi naylar ichidagi shira yuqoriga ko'tariladi.

Suv va eritmalarni harakatlantiruvchi kuch ildizning bosim kuchi deb ataladi.

Kerakli o'quv materiallari:

YAxshi baquvvat o'sgan o'simlik (bodring, qovoq, qovun, pomidor, makkajo'xori, paxta yoki boshqa o'simlik) pipetka, egri shisha nay yoki shisha manometr, ustara yoki o'tkir pichoq, shisha nay ichiga qo'yish uchun rangli suv.

Darsning maqsadi:

O'simlikning kesilgan poyasi hisobiga ildizdan keladigan suv va eritmalar nay ichidagi rangli suyuqlikning yuqoriga ko'tarilishi hisobiga o'simlik naychalari orqali suv va eritmalar harakatlanayotganligi, bu harakat ildiz bosimi orqali amalga oshayotganligini aniqlash.

Ishning bajarilishi:

Ildizning bosim kuchini aniqlash uchun qishda bargli funksiya, bahor va yozda boshqa o't poyali o'simliklardan foydalanish mumkin.

Tajriba o'tkaziladigan o'simlikni bir kun oldin kechqurun yoki tajriba kuni ertalab yaxshilab sug'oriladi. Keyin shu o'simlikni poyasi yer yuzidan bir necha sm (3-5 sm) balandlikdagi qismidan o'tkir ustara yoki pichoq (lezviya) yordamida kesib olinadi. O'simlik poyasining (qirqilgan) yer yuzida qolgan qismiga kauchuk nay o'rnatib, unga shisha nay kiygiziladi.

SHisha nay ichiga rangli suv yoki gliserin eritmasi qo'yib suyuqlik sathi belgilanadi. So'ngra shisha nay ichiga kesilgan poyadan suyuqlik chiqib yig'ilashni boshlaydi. Bu kesilgan poyadan suyuqlikning chiqishi o'simlikning «yig'lashi», suyuqlikni esa o'simlik shirasi deyiladi. SHira chiqishini va shisha trubka ichiga yig'ilishini butun kun davomida har 2 soatda kuzatib turish zarur.

Kuzatish davrida shisha nay ichidagi dastlabki suv kamayadi va oradan bir oz vaqt o'tgandan so'ng yuqoriga ko'tarila boshlaydi.

Suvning yuqoriga ko'tarilishi ildiz bosimiga bog'liq. Ildiz bosim kuchi qancha kuchli bo'lsa, nay ichidagi suyuqlik (shira) shuncha ko'p va tez ko'tariladi. SHiraning ajralib chiqishi o'simlik turiga bog'liq.

Tajriba natijalarini talabalar daftariga yozib boradi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'simlikning tanasi bo'ylab suv qanday harakatlanadi?
2. Ildiz bosim kuchi deb nimaga aytildi?
3. O'simlikda ildiz bosim kuchini qanday aniqlash mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

20.Laboratoriya ishi.

Mavzu: Guttasiya hodisasini kuzatish.

Umumiy ma'lumot:

Guttasiya hodisasi deb havo nam bo'lganda yoki uzoq davom etgan yog'ingarchilikdan keyin shikastlanmagan o'simlik barglari uchidan shira oqib chiqishiga aytildi. O'simliklarda « y i g' l a sh » hodisasi, o'simliklar novdasi tashqi muhit ta'sirida shikastlanganda, shu joyidan shira tomchilab chiqa boshlaydi


Kerakli o'quv materiallari.

3-5 kunlik maysalar, shisha stakan yoki qalpoqcha, xloroform eritmasi va paxta.

Darsning maqsadi:

yosh maysalarni uchki qismidan suvning guttasiyalanishini kuzatish.

Ishning bajarilishi: Guttsiya hodisasini aniqlash tuvakda bug'doy, arpa yoki sholi o'stiriladi. O'stirish ishlari dars boshlashdan oldin talabalar tomonidan 3-5 kun oldin amalga oshiriladi. Tajriba oldidan 3-5 kunlik maysalar yaxshilab qondirib sug'oriladi. Sug'orilgan maysalar ustiga shisha stakan yoki shisha qalpoqcha to'nnarib qo'yiladi. Oradan 30-60 minut o'tgach maysalar bargining uchida suv tomchilari paydo bo'ladi. Bu hodisa havo va tuproq tarkibidagi nam haddan tashqari ortib ketganda yuz beradi. Namning normadan ortiq bo'lishi suvning bug'lanishiga to'sqinlik qiladi. Natijada o'simliklar tarkibidagi ortiqcha suv ildiz bosimi ta'sirida barglar uchidan siqib chiqariladi. SHu tariqa ildiz bosimi o'simlik tarkibidagi suvni normal darajada saqlab turadi (4-rasm).



4-rasm. Guttasiya hodisasi:

a-o'simlik barglarining uchidan ajralib chiqadigan suv tomchilari.

Tuvakchada o'stirilayotgan maysalar yoniga xloroform shimdirligani paxta qo'yilsa, guttasiya hodisasi to'xtab qoladi. Agarda paxtani olib tashlansa guttasiya hodisasi yangidan boshlanadi. Bu hodisa xloroform o'simliklar ildiziga ta'sir etib, o'sish va rivojlanishiga

to'sqinlik qiladi. Tuvakchada o'stirilayotgan maysalarda xloroform ta'sirida guttasiya hodisasi birdaniga emas, balki oradan bir qancha vaqt o'tgandan keyin to'xtaydi.

Nazorat uchun savollar.

- 1** Guttasiya hodisasi deb nimaga aytildi?
2. Yig'lash va guttasiya hodisalari qanday amalga oshadi?
3. O'simlik barglarida ajralib chiqqan suv tomchilari qanday aniqlanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslardan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

21. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Barg og'izchalarining ochilish darajasini infiltrasiya usulida aniqlash.

Umumiy ma'lumot:

O'simlik tanasidan bug'lantirilgan suvning ko'p qismi barg plastinkasida joylashgan og'izchalar orqali tashqi muhitga chiqariladi.

Og'izcha loviyasimon hujayralardan tashkil topgan bo'lib, hujayralari o'ziga xos tuzilishga ega.

O'simlikning yashash sharoitiga va turiga qarab, og'izchalar barg plastinkasining pastki va ustki tomonida joylashgan bo'ladi. 1 mm barg sathidagi og'izchalar soni ham har xil bo'ladi. O'rta hisobda 1 mm barg sathida 50-500 donagacha barg og'izchalari joylashgan bo'ladi.

Barg og'izchalarining ochilish darajasini quyidagi usullardan aniqlash mumkin.

F. Lloyed usuli. Bu usulda o'sib turgan o'simlik barg epidermisi shilib olinib absolyut spirtga solib qo'yiladi.

G. X. Molotkovskiy usuli. Barg yuzasini va og'izchalarini fotoplyokaga rasmga olish.

Molish metodi. Molishning infeltrasiya metodi bo'yicha barg og'izchalari orqali spitr, benzol va ksilol molekulalarining o'tib ketish darajasi hisobga olinadi.

Frensis Darwin usuli. Bu usulda F. Darwin ishlab chiqqan parometr asbobi qo'llaniladi.

Kerakli o'quv materiallar:

Bargli har xil o'simliklar, 3 ta pipetka, spirt, benzol va ksilol eritmalar.

Darsning maqsadi:

Barg og'izchalarini ochilish darajalarini aniqlash uchun 3 xil eritma (spirt, benzol, ksilol)larni bargga tomizib, bu eritmalar bargda qanday o'zgarishi va shu o'zgarishiga qarab og'izchalar holatini aniqlash.

Ishning bajarilishi: Bitta barg plastinkasi orqa tomonining bir joyiga birinchi pipetka bilan bir tomchi spirt, ikkinchi pipetka bilan ikkinchi joyiga bir tomchi benzol, uchinchi pipetka bilan bargning uchinchi joyiga ksilol tomiziladi. Agar barg og'izchalari yaxshi ya'ni keng ochilgan bo'lsa spirt o'tib og'izcha ostidagi to'qimaning hujayralar orasidagi bo'shliqlarni to'ldirib, barg ustida yaltiroq, tiniq dog' hosil qiladi. Bargdagi og'izchalar kam ochilgan bo'lsa, spirt o'ta olmay havoga bug'lanib ketadi. Natijada bargda dog' hosil bo'lmaydi.

Bargdagi benzol tomizilgan joyga e'tibor beriladi. Agar barg og'izchalar o'rta darajada ochiq bo'lsa, benzol eritmasi barg to'qimasiga o'tib moysimon dog' hosil bo'ladi. Og'izchalar

kam ochilgan bo'lsa benzol molekulasi barg to'qimasiga o'ta olmaydi va dog' ham hosil bo'lmaydi.

So'ngra bargning ksilol eritmasi tomizilgan joyga diqqatimizni qaratamiz. Agar bargda yaltiroq dog' hosil bo'lgan bo'lsa, og'izchalarining ochilish darajasi juda ham kichik ekanini ko'rsatadi, chunki bu eritma spirit va benzol eritmalari o'ta olmaydigan kichik teshikdan ham o'ta oladi.

Bajarilgan tajribaning natijasini quyidagi jadvalga yoziladi.

O'simliklar turi	Tajriba o'tkaziladigan vaqt	Barg og'izchalarining ochilish darajasi		
		to'la	o'rtacha	kam
G'o'za	ertalab, tush vaqtida va hokazo. yuqorigi, pastgi yarus va hokazo.			

Nazorat uchun savollar

1. Barg og'izchasi qanday tuzilishga ega?
2. Barg og'izchalarining ochilish darajasini qanday usullardan aniqlash mumkin?
3. Barg og'izchalarini infiltrasiya usulida qanday aniqlash mumkin?

Foydalilanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

22. Laboratoriya ishi.

**Mavzu: Barg og'izchalarining harakatini
mikroskopda kuzatish.**

Umumiy ma'lumot:

O'simliklar barg og'izcha (ustisa) lari orqali suv bug'latish transpirasiyadeyiladi. Bundan tashkari, bar epidermisi hujayralaridan ham suv bug'lanadi. Barg plastinkasi kutin modda bilan qoplanganligi uchun bu qavat orqali sodir bo'ladigan bug'lanishi kutikulyar transpirasiyasi deyiladi. Ko'pchilik o'simliklarda barg og'izchalari ikkita loviyasimon hujayradan tashkil topgan bo'lsa, g'alladoshlarda boshqacharoq tuzilgan.

Kerakli o'quv materiallari:

Mikroskop, ustara, buyum va qoplag'ich oynalar, filtr qog'oz, o'simliklar bargi, gliserinning 5 % eritmasi, paxta, shisha tayoqcha, suvli stakan.

Darsning maqsadi:

Barg og'izchalarini ochilish va yopilishini gliserin eritmasi yordamida mikroskopda kuzatish.

Ishning bajarilishi:

Geran, tradeskansiya yoki boshqa biror bir o'simlik yorug' va nam joyda saqlanadi. SHu o'simlikdan barg olib, bargning epidermis ya'ni ustki po'sti ustara yoki lezviya bilan avaylab shilib olinadi, olingan epidermis buyum oynasiga tomizilgan 5 % gliserin eritmasiga qo'yiladi va ustidan qoplag'ich oyna bilan yopiladi (oradan 15-20 minut o'tgach). Tayyorlangan preparat mikroskopning 8 x li yoki 40 x li ob'yektlari orqali tekshiriladi. Gliserin eritmasining konsentrasiyasi hujayra shirasining konsentrasiyasiga nisbatan yuqoriq bo'lganligi uchun, hujayra shirasi tarkibidagi suvni gliserin o'ziga tortib oladi. Natijada hujayrada plazmoliz hodisasi ro'y beradi, shu vaqtda barg og'izchalari yopiladi. Oradan 15 minut vaqt o'tgach gliserin sitoplazmadan o'tib hujayra shirasida to'planadi. Hujayra shirasining konsentrasiyasi ko'tariladi va tashqi eritmadagi suvni o'ziga tortib oladi. Natijada barg og'izchasi hujayralariga suv kirib deplazmoliz hodisasi ro'y beradi, chunki gliserin barqaror plazmoliz hosil qilmaydi, shu sababli barg og'izchalari qaytadan ochiladi. Agar qoplag'ich oynaga bir tomchi suv tomizilib, gliserin filtr qog'oz bilan shimdirib olinsa, barg og'izchalari kengroq ochiladi, chunki suv qo'yilishi natijasida tashqi gliserinning konsentrasiyasi hujayra shirasining konsentrasiyasiga nisbatan pasayib qoladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Transpirasiya nima?

2. Transpirasiya prosessining boshqarishda barg og'izchalarining harakati qanday sodir bo'ladi?

Barg og'izchalarining harakati qanday sodir bo'ladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

23. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Transpirasiya jarayonini kobalt usulida aniqlash

Umumiy ma'lumot:

O'simlik tanasidan suvning parlanishiga tranpirasiya prosessi deyiladi. Transpirasiya prosessini aniqlashda tarozida o'lchash, havoni so'rish va kobalt xlor usullarida aniqlash mumkin. Barg plastinkasida 5% li kobalt xlorid tuziga botirib, keyin quritilgan filtr qog'oz tutilsa, u namlik ta'sirida pushti rangga kiradi. U pushti rangga qanchalik tez kirsa, tranpirasiya prosessi shunchalik kuchli borayotganligini ko'rsatadi. Bargni ostki va ustki tomonida transpirasiya prosessi bir-xil bormaydi. SHuningdek, transpirasiya turli o'simliklarda yoki qari va yosh barglarda turlicha borishini tajriba orqali aniqlash mumkin.

Kerakli o'quv materialari: Bir necha xil o'simlik, CoCl_2 , filtr qog'oz, sekundomer, buyum oynalari, pinset, elektr plitka.

Darsning maqsadi:

Barglar orqali suvning bug'lanishi transpirasiya hodisasini CoCl_2 shimdirlilgan filtr qog'ozni barg yuzasiga qo'yib, filtr qog'ozdagi ko'k rang o'zgarishi va pushti rangga qayta kirishi natijasida haqiqatdan ham bargda transpirasiya jarayoni sodir bo'layotganini aniqlash.

Ishning bajarilishi:

Mashg'ulotni boshlashdan oldin CoCl_3 ning 3 yoki 5 % eritmasi tayyorlanadi. Uzunligi 5 sm eni 2 sm keladigan filtr qog'oz bo'lakchalari tayyorlanadi. SHu bo'lakchalardan 4-5 tasiga CoCl_3 ning eritmasi shimdirliladi.

CoCl_3 tuzi tarkibida suv bo'lganda pushti rangda bo'ladi. (Eritma shimdirlilgan filtr qog'oz). Bu tuz quritilganda uning tarkibidagi suv bug'lanib ketishi natijasida ko'k rangga kiradi.

Quritib qo'yilgan ko'k rangli CoCl_3 tuzi nam havoga qoldirilsa, yana pushti rangga kiradi. CoCl_3 ning analiz xususiyatidan foydalanib o'simliklardagi transpirasiya jarayoni aniqlanadi.

SHimdirilgan pushti rangli filtr qog'oz bo'lakchalari elektr plitka ustida yoki quyosh nurida quritiladi. Qog'oz quriy boshlashi bilan ko'k tusga kira boshlaydi. Ko'k tusga kirgan filtr qog'ozni tezlik bilan bargning oldi yoki orqa tomoniga qo'yib, uning ustidan buyum oynasi bilan yopiladi, aks holda havoda namlik ko'p bo'lsa filtr qog'ozning ko'k rangi pushti rangga o'tib qolishi mumkin. Buyum oynasi yopilgandan so'ng vaqt belgilanadi. Bir oz vaqt (5-10 minut) o'tgandan keyin ko'k rangli qog'oz pushti rangga aylana boshlashini kuzatiladi va bu vaqt belgilanadi.

Soyada va yorug'da o'sgan bir nechta o'simlikni tajriba qilib jadvalga yoziladi.

Barglardagi transpirasiya jarayoni.

O'simlik turi	Barglarning		Barglar turgan joy		Barglarning joylashishi	
	yuza tomoni	orqa tomoni	soya	YOrug'	yuqori qismida	pastki qismida

Nazorat uchun savollar:

1. Transpirasiya prosessi nima?
2. Transpirasiyani qanday aniqlash metodlarini bilasiz?
3. Transpirasiya jarayonining kobalt xlorid usulida qanday aniqlaniladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslardan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 1.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
2. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 3.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 4.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 5.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

24. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Transpirasiyani hajmiy

usulda aniqlash.

Umumiy ma'lumot:

Transpirasiya intensivligi deb ma'lum yuzadan yoki og'irlikdan ma'lum vaqt ichida bug'langan suvning miqdoriga aytildi, odatda u bir soatiga gramm yoki soatiga dm^2 hisobiga chiqariladi. Ko'pincha transpirasiya intensivligi 1 g bargda soatiga 0,1 dan 2-4 g gacha o'zgarib turadi.

Kerakli o'quv materiallari:

Byuretkalar, tindirilgan vodoprovod suvi, Mor qisqichi, tok qaychi, temir shtativ, soat, tiqin parmasi.

Darsning maqsadi: O'simliklar suv bug'latishini aniqlash

Ishning bajarilishi:

Buning uchun avval kauchuk tilinga o'simlik novdasi o'rnatiladi. So'ngra 25 ml hajmli byuretkaga suv to'lg'azib, og'zi novdali tiqin bilan berkitiladi. Byuretkaga solingan suvda havo pufakchalari bo'lmasligi shart, chunki suv tarkibida erigan gaz qolsa, tajribani o'tkazishga halaqt beradi. Vodoprovod suvini bir kun oldin chelakka qo'yib tindirilsa, havosi chiqib ketadi. Keyin ana shu suvdan ishlatiladi.

Byuretkalarga o'simlik novdasi joylangandan so'ng byuretka asta-sekin to'nnkarilib shtativga o'rnatiladi. Byuretkadagi suv bug'lanib kamayishining oldini olish uchun uning ikkinchi uchiga kauchuk nay kiygizilib, mahkam berkitiladi. Tajribani boshlashdan oldin byuretkadagi suvning sathi qaysi nuqtaga to'g'ri kelishi belgilab olinadi. Suv kamayishi transpirasiya prosessi borayotganligini ko'rsatadi. Transpirasiya prosessi hamma o'simliklarda ham bir xil tezlikda boravermaydi. SHuning uchun 2-3 xil o'simlik olib, ularning transpirasiya intensivligini aniqlash tavsiya etiladi. Bu tajribani geran, navro'zgul va boshqa o'simliklar ustida o'tkazish mumkin.

Tekshirish vaqtı tugagandan so'ng suvni bug'latishda ishtiroy etgan barglar sathini aniqlash uchun novdaning uchida, o'rtasida va pastida joylashgan barglardan 3 tasi olinadi. Ularning o'rta qismidan barg yuzasining katta-kichikligiga ko'ra, $4-10\text{ sm}^2$ hajmda bo'laklar kesib olinadi. Keyin bu bo'laklarning umumiy vazni aniqlanadi, shu vaqtning o'zida novdada qolgan barglarni ham kesib olingan barg bo'laklariga qo'shib vazni aniqlangach, barglarning umumiy yuzasi quyidagicha topiladi.

YUzasi aniq barg bo'laklarini a, ularning vaznini b bilan ifodalasak, novdadagi umumiy barg yuzasini v bilan ifodalab, quyidagi tenglama bo'yicha barglarning umumiy sathi x topiladi:

$$a - \delta \quad x = \frac{a \cdot \delta}{\delta}$$

$$x - \delta$$

Barglarning umumiy sathi topilgandan keyin transpirasiya intensivligi 20-mashg'ulotda ko'rsatilgandek hisoblab topiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Transpirasiya intensivligi nima?
2. Transpirasiyani hajmiy usulda qanday aniqlash mumkin?
3. Hajmiy usulni aniqlashda qanday jihozlar ishlataladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

25. Laboratoriya ishi.

Mavzu: O'simliklar kulida uchraydigan makro va mikro elementlarni aniqlash.

Umumiy ma'lumot:

Mineral elementlar o'simlikning hayotida muhim ahamiyatga ega. O'simlikda kechadigan barcha fiziologik prosesslar normal darajada borishi uchun mineral elementlar katta rol o'ynaydi. Jumladan, nafas olish, fotosintez, o'sish va rivojoanish prosesslarini normal borishi uchun mineral tuzlar yetarli miqdorda bo'lishi kerak. Dastlab o'simlik urug'larida zapas holda bo'lgan mineral elementlardan foydalanadi, keyinchalik zarur bo'lgan mineral elementlarni tuproqdan ildiz orqali oladi. O'simliklar ba'zi elementlarni ko'p miqdorda talab qiladi. Bularga makroelementlar deyiladi. Makroelementlarga azot, fosfor, oltingugurt, kaliy, kalsiy, magniy, temir kiradi. Bular fiziologik xususiyatlari ko'ra 2 guruhga bo'linadi. Metallardan kaliy, kalsiy, magniy va temir metaloidlardan azot, oltingugurt Ikkinchi xil elementlarni o'simliklar oz miqdorda talab qiladi. Bularga mikroelementlar deyiladi. Bularga bor, mis, rux, marganes, molibden, yod, alyuminiy va boshqalar kiradi.

Kerakli o'quv materiallari:

Mikroskop, kul, buyum oynalari, shisha tayoqcha, distillangan suv, 10% li HCl, 1% li H₂SO₂, 1% li PtCl₄, 1% li H₂SO₄, NH₃, 1% li Na₂HPO₄, 1% li (NH₄)₂MoO₄, 1% li Sr(NO₃)₂, 1% li K₄[Fe(CN)₆], 1% li Na₂CuPb(NO₂)₆ eritmalari.

Darsning maqsadi: Bir necha xil o'simliklarni qurigan qismlarini yoqib, kuli ajratib olinadi va kulning tarkibidagi makro-mikro elementlar aniqlanadi.

Ishning bajarilishi:


Tuproqdan qabul qilinadigan mineral elementlarning ba'zilari (N, P, S, Mg, Fe, Co) bevosita organik moddalarning molekulalari tashkil bo'lishida ishtirok etsa, ko'pchiligi moddalar almashinuvi prosesslarini aktivlashtirishda ishtirok etadi.

O'simliklar kulida uchraydigan elementlarni aniqlash uchun tamaki yoki yog'och kuli ishlatiladi. Avvalo ikkita probirkaga 0,2 grammdan kul solinadi, so'ngra ularning biriga distillangan suv, ikkinchisiga HCl ning 10% li eritmasidan qo'yib chayqatiladi. Ular reaksiyaga kirishib bo'lgandan keyin aralashmalar filtrlanadi.

Tayyorlangan filtratdan pipetkada 1 tomchi olib, buyum oynasiga tomiziladi. Keyin buyum oynasiga biror elementni aniqlash uchun qo'llaniladigan tegishli reaktivdan 1 tomchi tomiziladi. Oynadagi tomchilar bir-biridan 2 sm narida bo'lishi kerak.

Keyin bu tomchilar shisha tayoqcha yoki gugurt cho'pi bilan bir-biriga qo'shiladi. U quriganidan keyin mikroskopda ko'rildi. Har qaysi reaksiyaning borishida o'ziga xos tuzilgan kristallar hosil bo'lganligi kuzatiladi.

Birinchi probirkadagi filtratda suvda eriydigan xlorid tuzlar bo'ladi. Xloridlarni aniq belgilashda talliy (I)-sulfat (Tl_2SO_4) ning 1% li eritmasi ishlatiladi. Bu reaksiya quyidagicha boradi.



Tally xlorid kristallari har xil shakllarda ko'rindi.


Ikkinchini probirkadagi filtratda kaliy, kalsiy, magniy, fosfor, oltingugurt va temir elementlarini aniqlash kerak. Bu ish quyidagi tartibda bajariladi.

1. Kaliyni aniqlashda reaktiv sifatida platina xlorid tuzining 1% li eritmasi ishlatiladi.

Reaksiya natijasida hosil bo'lgan kompleks tuz kristallari sarg'ish-yashil tusda tovlanib turadi. Bu reaksiya quyidagicha boradi:




Kaliyni $Na_2PbCu(NO_2)_6$ dan iborat kompleks tuzining 1% li eritmasi yordamida aniqlash mumkin. Bu reaksiya quyidagicha boradi:



Tajribani o'tkazish uchun suvda eritilgan kul filtratidan buyum oynasiga tomizib, spirt lampa alangasida quritiladi. Oyna sovigandan keyin 1 tomchi reaktiv $[NaPbCu(NO_2)_6]$ qo'shiladi. Preparatdagi kristallar to'q jigarrangda tovlanib turadi.


2. Filtratga 1% li H_2SO_4 qo'shilganda ninasimon va boshqa shakllardagi gips kristallari paydo bo'lishi bu filtratda kalsiy borligini ifodelaydi. Bu reaksiya quyidagicha boradi:




3. Filtratda magniy borligini aniqlash uchun buyum oynasi ustiga tomizilgan filtrat tomchisi avval ammiak bilan neytrallanib, so'ngra unga natriy gidrofosfatning 1% li eritmasi qo'shilsa, unda yulduzsimon, yashiksimon va patsimon kristallar ko'rindi. Bu reaksiya quyidagicha boradi:




4. Ammoniy molibdatning nitrat kislotada tayyorlangan 1% li eritmasidan buyum oynasidagi filtrat tomchisiga qo'shilganda, yashil rangli yumaloq, 4 va 3 qirrali kristallar hosil bo'lishi filtratda fosfor borligini ifodalaydi. Bu reaksiya quyidagicha boradi:



5. Kul tarkibidagi S 1% li stronsiy nitrat tuzi eritmasi yordamida aniqlanadi. Mikroskopda qaralganda preparatda mayda, sariq rangli, yumaloq kristallar borligi ko'rindi. Bu reaksiya quyidagicha boradi:



6. Filtratda temir elementi borligi rangli reaksiya yordamida aniqlanadi. Bu reaksiya oq shisha ustida yoki probirkada olib boriladi. Filtratga 1% li kaliy ferasianid (sariq qon tuzi) eritmasi qo'shilsa, berlin lazuri hosil bo'ladi. Bu reaksiya quyidagicha boradi:



Nazorat uchun savollar:

1. O'simlik hayotida mineral elementlarning vazifasi nimadan iborat?
2. Qanday mikroelementlar bor?
3. O'simliklar kulida uchraydigan elementlarni qanday aniqlaniladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
4. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
5. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
6. Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

26. Laboratoriya ishi.

Mavzu: O'simliklarning azot, fosfor va kaliy elementlariga bo'lgan talabini V.V. Serling usulida aniqlash.

Umumiy ma'lumot:

O'simliklarga azot, fosfor va kaliy elementlari yetishmaganda barglarida o'ziga xos o'zgarishlar sodir bo'ladi. Biroq ko'zga yaqqol tashlanadigan bunday belgilar hosil bo'lgandan keyin o'simliklar yetishmagan elementlar bilan ta'minlanganda ham hosili keskin kam bo'ladi. Buning oldini olish ustida ko'p olimlar ish olib boradilar va chora tadbirlarni belgilaydilar. SHulardan mакtab sharoitida ishlash qulay va ko'p narsa talab qilmaydigan V.V. Serling usulidan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu usul vositasida mакtab tabiatshunoslari o'z tajriba uchastkalaridagi yoki kolxoz-sovxozi dalalaridagi o'simliklarni kuzatib, ular qanday elementlarga ehtiyoj sezishini aniqlab, tegishli o'g'itlar berish zarurligini aniqlaydilar.

Kerakli o'quv materiallari:

1, 2, 3, 4, 5 va 6 raqamli har xil eritmalar, buyum oynalari, filtr qog'oz, tekshiriladigan o'simliklar to'qimasi.

Darsning maqsadi: Bir necha xil o'sib turgan o'simliklarning barglaridan namunalar olib, ulaga kerakli kimyoviy moddalar ta'sir ettiriladi va bargning holatiga qarab NPK ning qaysi bri yetishmasligi aniqlanadi.

Ishning bajarilishi:

Buning uchun ekin maydonlaridagi o'simliklarni ko'rib chiqib, ularning o'rtacha rivojlanganlarini tanlab, bir nechta sining barglari bandi bilan yulib olinadi. Barglar qaysi ekin maydonidan va qachon olinganligi yozib qo'yiladi. Keyin quyidagi tajriba o'tkaziladi:

1. O'simliklarga azot elementi yetishmasligini aniqlash uchun barg bandidan 2-3 mm qalinlikdagi 7 ta kesik olinib ustiga oq qog'oz qo'yilgan buyum oynasiga ketma-ket va bir-biridan 0,5-1 sm narida joylashtiriladi. So'ng kesiklarning biriga H_2SO_4 + difenilamindan 1-2 tomchi tomizib, undan oqib chiqqan eritmaning rangi quyidagi standart qog'ozdagi rangli dog'larga solishtiriladi. O'simlikning azot elementiga bo'lgan talabi standart qog'oz rangining dog'lariga qarab aniqlanadi. Bunday ishni bir necha o'simlikdan olingan barglar bandida aniqlab, o'rtachasi topiladi.

2. O'simliklarning fosfor elementiga bo'lgan talabi quyidagi tartibda aniqlanadi:

- eni 1 sm, bo'yi 3 sm keladigan zich filtr (oqtasma) qog'ozdan kesiklar tayyorlab, $(NH_4)MoO_4$ reaktiv shmdirilib, keyin quritiladi;

b) $(\text{NH}_4)_2 \text{MoO}_4$ shimdirligan va quritilgan filtr qog'ozni buyum oynasiga yozib qo'ygandan so'ng ustiga barg bandidan yoki o'simlikning boshqa organlaridan olingen kesiklar birin-ketin joylashtiriladi. Kesiklar ustiga toza buyum oynasi yopilib, ehtiyyotlik bilan 1-2 minut davomida siqib turiladi, so'ngra kesiklar olib tashlanadi. Ulardan oqib chiqqan shira hisobiga filtr qog'oz ustida nam dog' qoladi;

v) filtdagi nam dog' ustiga benzedin + CH_3COOH dan bir tomchi tomizib, keyin quritiladi;

g) qurigandan so'ng ustiga CH_3COONa reaktividan tomizib, o'simlikning fosfor elementiga bo'lган talabi standart qog'ozga muvofiq aniqlanadi.

3. O'simliklarning kaliy elementiga bo'lган talabini aniqlash uchun buyum oynasiga eni 1 sm, bo'yи 3 sm bo'lган filtr qog'oz bo'lakchasini qo'yib, ustiga birin-ketin o'simlik to'qimasi kesiklari joylashtirilgach, har qaysi kesik shisha tayoqcha bilan sekin ezilgandan keyin olib tashlanadi. Kesiklarni ezganda oqib chiqqan shira dog'lari ustiga dipikrilamin + MgO reaktivи va uning ustiga 1 tomchi 2n HCl tomiziladi. Kaliy elementiga bo'lган talab darajasi standart (qog'ozda ko'rsatilgan) ranglar bilan solishtirib aniqlanadi.

O'simliklarning azot, fosfor va kaliya talabini aniqlashda ishlataladigan reaktivlarni tayyorlash.

A. H_2SO_4 + difenilaminni tayyorlash uchun texnik tarozida 1 g difenilamin kristallaridan tortib olib, 100 ml hajmli kolbaga solinadi. Uning ustiga juda ehtiyyotlik bilan solishtirma og'irligi 1,84 ga teng bo'lган kuchli sulfat kislotadan 30-50 ml qo'shib, difenilaminni to'la eriguncha chayqatiladi. U erib bo'lgach, kolba chizig'iga yetguncha yana ehtiyyotlik bilan sulfat kislota qo'yiladi. SHu yo'sinda tayyorlangan eritma qora (jigarrang) shisha idishga qo'yib qo'yiladi.

B. $(\text{NH}_4)_2 \text{MoO}_4$ reaktivini tayyorlash uchun ammoniy molibdat $(\text{NH}_4)_2 \text{MoO}_4$ dan 6 g olib, 100 ml hajmli kolbaga solinadi. Kolbaning yarmigacha distillangan suv qo'yib, chayqatilgan holda eritiladi. So'ngra kolba chizig'igacha suv qo'shilgach, eritmani qora (jigarrang) rangli idishga qo'yib, ustiga juda ehtiyyotlik bilan solishtirma og'irligi 1,2 ga teng bo'lган nitrat kislotadan qo'shib yaxshilab aralashtiriladi.

V. Benzedin + Cu_3COOH reaktivini tayyorlash uchun 0,05 g benzedin olib, 100 ml hajmli kolbaga solinadi, ustiga 10 ml kuchli sirkha kislota qo'yib eritiladi va o'lchamli kolba chizig'igacha distillangan suv qo'shiladi. Bu eritma ham boshqa idishga qo'yib qo'yiladi.

G. CH_3COONa reaktivи uchun natriy sirkha kislota (NaCH_3COO) ning to'yungan eritmasi tayyorlanadi. Buning uchun kimyoviy stakanga 50 ml distillangan suv qo'yib 50-60° gacha isitiladi. So'ngra shu issiq suvgaga NaCH_3COO kristallaridan qo'shib, shisha tayoqchada

aralashtirib eritiladi. Qo'shilgan tuz kristallari boshqa erimasa, to'yingan eritma hosil bo'lганligini ko'rsatadi. Eritma xona temperaturasigacha sovitilgandan so'ng boshqa idishga qo'yiladi. Bunda birinchi idishda erimasdan qolgan tuz kristallarining bir qismi ham shu idishga solinadi.

D. Dipikrilamin + MgO reaktiv uchun 3 g dipikrilamin va 1,3 gr magniy oksid (MgO) olib, 100 ml hajmli kolbaga solinadi, ustiga 50 ml distillangan suv qo'yib, 15-20 soat tinch qo'yiladi. Vaqt o'tgandan so'ng filtrlanadi. Filtrat boshqa idishga qo'yib qo'yiladi.

E. 2n HCl reaktiv, ya'ni 2n xlorid kislota tayyorlash uchun solishtirma og'irligi 1,19 bo'lган HCl eritmasidan 167 ml olib, 1 litr hajmli kolbaga qo'yiladi. So'ogra kolbaning chizig'igacha distillangan suv qo'shib yaxshilab aralashtiriladi. 2n HCl ning solishtirma og'irligi 1,036 ga teng bo'lishi shart.

Eslatma: Eritmalar solingen idishlarga reaktivning nomeri yozilgan etiketka yopishtirib qo'yiladi. Ularning har biri uchun alohida pipetka ishlatiladi va ularga ham etiketka osib qo'yiladi.

Nazorat uchun savollar.

1. O'simlik barglarida azot, fosfor va kaliy elementlari yetishmasa qanday holat ro'y beradi?
2. Serling usulida o'simliklarning azot, fosfor, kaliyga bo'lган talabini qanday aniqlash mumkin?
3. Mashg'ulotni bajarish uchun qanday reaktivlar ishlatiladi?

Foydalaniman adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
4. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
5. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.

27. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Ildizlarning o'sish zonasini aniqlash.

Umumiy ma'lumot:

O'simliklar hujayralarining o'sishi uch fazadan iborat. Ular embrional, cho'zilish va differensiyalanish fazalaridir.

Embrional fazada hujayralarning po'sti yupqa, hujayra ichi sitoplazma bilan to'lgan bo'ladi. Bu fazada meristema hujayralarining bo'linishi hisobiga o'simliklarning ichki qismi o'sadi. Ildizlarda meristema hujayralari bo'linib tursa-da, meristema to'qimasining hajmi 1 santimetrdan ortmaydi, poyalarda esa 2-18 sm oralig'ida bo'ladi.

Embrional fazani o'tagan hujayralar cho'zilish fazasida eniga kengayib, uzunasiga cho'ziladi. Bu faza oxirida hujayralardagi vakuollar to'planib, markaziy o'rinni egallaydi.

Differensiyalanish fazasida har bir hujayra shakllanib, ma'lum to'qimalarning hosil bo'lishini ta'minlaydi.

Kerakli o'quv materiallari:

Paxta, no'xat, makkajo'xori yoki boshqa o'simliklarning ungan urug'lari, tush, ip yoki ingichka nina, tug'nagich, nam kamera uchun idish, trubka, qaychi, spirt, lampa, filtr qog'ozi, termostat, millimetrga bo'lingan qog'oz yoki chizg'ich.


Darsning maqsadi:

O'simlik ildizlari ma'lum tartibda rivojlanib, biz bu mashg'ulotimizda yangi unayotgan urug'dan hosil bo'lgan ildizni sutka davomida o'sish tezligini aniqlaymiz.

Ishning bajarilishi.

Mashg'ulotni o'tkazish uchun oldindan undirilgan no'xat, g'o'za yoki boshqa biror xil o'simlik urug'ini olib, ildizi 1-1,5 sm uzunlikda bo'lganda qora tush bilan orasini 1 mm dan qilib chiziqlar chiziladi. Tush ip yoki ingichka nina, sim yordamida yuqtiriladi. Ildizga shunday belgilar qo'yilgan urug'dan chiqib kelayotgan o'simlikni barg pallalari orqali ingichka sim o'tkaziladi, simning bir tomoni rasmida ko'rsatilgandek probkaga osib qo'yiladi (10-rasm). Uning normal o'sishini ta'minlash uchun stakan yoki banka olib uning devorlarini ichki tomoniga namlangan filtr qog'ozi yopishtiriladi. So'ngra bu idishning uchidan bir qismiga suv solib probka ichiga osilgan unayotgan urug'lar nam kameraga joylashtiriladi. Bu tajribani qorong'u joyda va normal temperaturada ($20-25^{\circ}\text{S}$) termostatda olib boriladi. Tajriba

uchun 10 dona ungan urug' olinsa bo'ladi. Oradan 24 soat vaqt o'tgach, ildizlardagi chiziq oralari millimetrlarga bo'lingan qog'oz yordamida o'lchab olinadi va natijasi yozib boriladi.



10-rasm. Ildizning o'sish zonasini aniqlash.

Eslatma: Nam kamerani tayyorlash uchun yarim litrli shisha banka olib, uning ichki devori namlantirilgan filtr qog'oz bilan yopiladi va 1/4 qismigacha suv qo'yiladi. Bankaga mos keladigan polietilen qopqoqning bir necha yeridan teshiladi. Teshiklarga mahkamlangan simning bir uchiga urug'lar ilintirib qo'yiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Qanday o'sish fazalarini bilasiz?
2. O'simliklar hayotida vitaminlar qanday rol o'ynaydi?
3. Ildizlarni o'sish zonasini qanday aniqlash mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
1. 2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
2. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
3. 4. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
4. 5. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
5. Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

28. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Poyaning o'sish zonasini aniqlash.

Kerakli o'quv materiallari:

Ikki pallali biror xil o'simliklarni ungan urug'lari, siyoh (tush), ip yoki ingichka nina, chizg'ich yoki millimetrga bo'lingan qog'oz, filtr qog'oz, Petri kosachasi, termostat.

Darsning maqsadi:

O'simlikning poyasini sutka davomida qaysi darajada o'sishini aniqlash.

Ishning bajarilishi:

Mashg'ulotni bajarish uchun tanlab olingen biror xil o'simlikni urug'i olinib nam kamerada nam filtr qog'ozi orasidagi Petri kosachasida normal temperaturada o'stiriladi. Urug'dan ungan yosh o'simlikning uchidagi o'sish nuqtasidan pastga qarab 1 mm oralig'ida 2-3 sm uzunlikda rang bilan belgilar chiziladi. Belgi chizish uchun ipdan yoki ingichka ninadan foydalaniladi. Belgilangan o'simlik 24 soat davomida qorong'u joyda turgan termostat ichiga qo'yiladi. Termostatni temperaturasi bir xil bo'lishi kerak. So'ngra o'simlikni oldin belgilangan joyini qayta o'lchab analiz qilinadi va daftarga yozib qo'yiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Poya nima?
2. Poya qanday o'sadi?
3. Mashg'ulotda poyaning o'sish zonasini qanday aniqlash mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.

5Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.

6. Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

29. Laboratoriya ishi.

Mavzu: O'simlikning o'sishiga yorug'lik va qorong'ulikning ta'siri.

Umumiy ma'lumot:

O'simliklarni o'sishiga tashqi sharoit faktorlaridan yorug'lik va qorong'ulik katta ta'sir ko'rsatadi. O'sish prosessi qorong'ida yoruqqa nisbatan tez boradi. yorug'lik o'sish prosessini sekinlashtirib yoki to'xtab qolishiga sababchi bo'ladi.

Kerakli o'quv materiallari: No'xat, kungaboqar, kartoshka yoki boshqa o'simliklarni yosh o'simtasi, chizg'ich yoki millimetrlarga bo'lingan qog'oz, qorong'u shkaf.

Darsning maqsadi: Biror bir o'simlikni bir necha kun davomida qorong'u yoki yorug' joyda o'sish tezligini aniqlash.

Ishning bajarilish tartibi:

Biror xil o'simlik yoki yuqorida nomlari ko'rsatilgan o'simliklarni qorong'ida o'stirib, poyasi 3-4 sm ga yetganida yoruqqa chiqarib qo'yamiz. O'simlikka yorug'lik hamma tomonidan bir tekisda tushishi kerak.

O'simliklar butun kun bo'yli (9-12 soat) yorug'likda turganidan keyin poyaning bo'yli qayta o'lchanadi. So'ngra o'simlikni kechasi yorug' tushmaydigan shkaf ichiga qo'yiladi. Ertalab o'simlikni shkafdan olib, poyasining bo'yli qayta o'lchanadi va yoruqqa quyiladi. SHu zayilda tajriba bir necha sutka takrorlanadi. Tajriba davomida mumkin qadar namlikni va haroratni bir xilda bo'lib turishini ta'minlash kerak. Tajriba natijasida olingan ma'lumotlar analiz qilinib, daftarga (kundalikka) yozib boriladi.

Nazorat uchun savollar:

2. O'simliklar yorug'likka nisbatan qanday moslanishlarga ega?
3. YOrug'sevr o'simliklarga misollar keltiring?
4. YOrug'sevr o'simliklar qorong'uda qolib ketsa qanday o'zgarishlarga uchraydi?
5. Tajribani o'tkazish tartibini tushuntiring?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi – asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
4. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
5. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
6. Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

30. Laboratoriya ishi.

Mavzu: O'simliklardagi geotropizm harakatini aniqlash.

Umuiy ma'lumot:

Erning tortish kuchiga nisbatan o'simlik organlarining harakatlanishi geotropizm deyiladi. O'simlikning o'q ildizi yerning tortish kuchi ta'sirida pastga egilib o'sishi musbat, poyaning yer betidan yuqoriga intilib o'sishi esa manfiy geotropizm deyiladi. Ko'pchilik olimlar fikricha geotropizm hodisasi fototropizm singari o'simlik to'qimasidagi auksin miqdoriga bog'liq. Boshqacha aytganda o'imlikning ba'zi organlarida o'sish prosesslari jadal o'tishi uchun auksin miqdori kam talab qilinsa, boshqa organlari uchun auksin konsentrasiyasi yuqori bo'lishi zarur.

Kerakli o'quv materiallari:


Chigit, no'xat yoki boshqa o'simlikni urug'li maysasi, shisha plastinka, karton qog'oz, ip, 1-2 l li banka, termostat.

Darsning maqsadi:

O'simliklardagi qonuniyatlarga asosan o'simliklarni ildizi pastga kurtakli novda yoki poya yuqoriga o'sishini aniqlash.

Ishning bajarilishi:

SHisha plastinka qog'oz bilan o'ralib, 1-2 sm qalinlikda yoki 4-5 qavat karton qog'oz bo'laklari ip bilan bog'lanadi. Ildizi tik o'sgan urug' tug'nagich yordamida karton qog'oz ustiga biriktirib qo'yiladi. SHu tartibda tayyorlangan urug' tagiga suv qo'yilgan shisha banka joylashtirilib, bankaning usti oyna bilan berkitiladi (9-rasm).



9-rasm. Geotropizmni kuzatish uchun tayyorlangan banka:

1-shisha idish; 2-shisha plastinka; 3-torf yoki karton qog'oz; 4-ip yoki shpagat; 5-maysa; 6-suv.

Normal temperatura hosil qilish uchun urug' joylangan banka termostatga qo'yiladi. Urug'dan o'sib chiqqan ildiz va poyaning uzunligi taxminan 5-10 mm ga yetgandan so'ng, ildiz yuqoriga, poya pastga qaratib qo'yiladi. Oradan bir-ikki kun o'tgach tajribada yuz bergen o'zgarishlar aniqlanadi, ya'ni yerning tortishish kuchi yoki o'simliklardagi qonuniyat bo'yicha poya yuqoriga qarab, ildiz esa pastga qarab o'sadi. Tajriba davomi va xulosasi daftarga yozib boriladi, rasmi chizib olinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'simliklar qanday harakatlanadi?
2. Geotropizm nima?
3. O'simliklardagi geotropizm harakatini aniqlash uchun qanday jihozlar ishlataladi?
4. O'simliklarda geotropizm harakatlanishi qanday aniqlanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.

2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.

3 Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.

4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.

5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.

6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

31. Laboratoriya ishi.

Mavzu: O'simliklarni suvda, qumda, tuproqda

o'stirish.

Umumiy ma'lumot:

O'simliklarni suvda o'stirish. O'simliklarni mineral tuzlarning yoki ionlarning suvdagi eritmasida o'stirish usulini Rossiyada K.A. Timiryazev keng qo'llagan.

Kerakli o'quv materiallari.

Petri idishi, filtr qog'oz, o'simlik urug'i, suv, oyna, 1-3 l li shisha idishlar, qora qog'oz, parafin.

Darsning maqsadi: Urug'larni suv vannasida, qumda, tuproqda o'stirish usullarinni o'rGANISH.

Ishning bajarilishi:

Bu mashg'ulot quyidagi tartibda olib boriladi:

Urug'ni undirish usullari. Petri idishiga yoki yuza likopchaga filtr qog'oz yozib, ustiga yirik – maydaligi bir xil bo'lган va zararlanmagan 100-200 dona ivitilgan urug' joylanadi. Usti filtr qog'oz bilan yopiladi va 10-20 ml distillangan suv po'r kab 25-30° issiq termostatga qo'yib undiriladi.

Urug'ni vannada undirish. Buning uchun tunukadan vanna yasaladi. So'ngra vannaning yarmigacha vodoprovod suvi yoki tindirilgan ariq suvi qo'yiladi. Keyin vanna usti oyna bilan yopiladi. Oynaning ustiga 1-2 qavat filtr qog'oz yozib, ustiga saralangan va ivitilgan urug' joylanadi, usti filtr qog'oz va doka bilan yopiladi. Urug' ustidagi filtr qog'oz va dokaning uchlari vannadagi suvga tegib turishi kerak. Urug'lar ustiga yopilgan doka va filtr qog'oz orqali namlab turiladi.

Maysalarni chin barg yozguncha o'stirish. Hajmi 0,5 l li bankaga suv to'ldirilib, usti parafin shimdirlgan doka bilan yopiladi. Dokaning 10-20 ta joyini teshib, yuqorida ko'rsatilgan usulda undirilgan urug'lar orasidan ildizi 1-2 sm chamasi o'sgan urug'lar tanlab olinadi va shu teshiklarga momiq yordamida mahkamlab joylanadi. Ungan bu urug'lar doka ustida o'sa boshlaydi. Ikki pallali o'simliklar ikkita chin barg, bir pallali o'simliklar esa uchta chin barg chiqarguncha shu holda o'stiriladi. O'simliklarni suvda o'stirishda quyidagi aralashmalardan foydalaniladi: pryanishnikov eritmasi, knop eritmasi, gelrigel eritmasi, krone eritmasi.

Eslatma: yuqorida ko'rsatilgan tuzlar aralashmasini 1 l distillangan suvda eritish kerak.

O'simliklarni suvda o'stirish uchun 1-3 l va undan ko'p eritma sig'adigan shisha idishlar ishlatiladi. Bu idishlar qora qog'oz bilan o'raladi. Idish ichiga eritma solinganda u quyosh nuri ta'sirida isib ketmasligi uchun qora qog'oz ustidan oq doka yoki oq qog'oz o'raladi.

SHisha idishlarning og'zi 3 ta teshikli po'kak yoki yog'och tiqin bilan berkitiladi. Po'kak tiqindagi havo yo'llarini berkitish uchun uni qaynab turgan parafinga 3 minut solib qo'yiladi. So'ngra olib sovitiladi. Tiqin sirtiga ilashgan ortiqcha parafin pichoq bilan qirib olinadi.

Ish tartibi: a) jadvalda ko'rsatilgan tuzlar aralashmasidan bittasi tanlab olinib, eritma tayyorlanadi; b) tayyorlangan eritma shisha idishlarga to'ldirilib qo'yiladi; v) ildizi va yer ustti qismlari bir tekis rivojlangan o'simlik tanlab olinib, tiqindagi bitta teshikka mahkam o'rnatiladi; d) tajriba boshlangan kun va tajribadan kutilgan maqsad kuzatish daftariga yozib qo'yiladi. Tiqindagi ikkinchi teshikka o'simlikni bog'lash uchun yog'och tayoqcha, uchinchisiga pulverizator o'rnatiladi. Eritma pulverizator yordamida havo bilan boyitib turiladi. Buning uchun eritmaga har kuni 3 minut davomida pulverizator orqali havo yuboriladi. Idish ichidagi eritma har 5-10 kunda almashtirib turiladi. Bunda tajriba uchun olingan o'simliklarning yer ustki qismlari va ildizlari qanday rivojlanganligi aniqlanadi. Olingan ma'lumotlar asosida jadval va diagrammalar tuziladi.

O'simliklarni qumda o'stirish. Buning uchun quyidagi ishlar bajariladi.

Qum tayyorlash. Qumda suv bilan tekis harakatlanishi uchun qum zarrachalarining diametri 0,2-0,4 sm orasida bo'lishi shart. SHu sababli urug' ekiladigan qum mayda ko'zli elakdan o'tkaziladi. Qum zarrachalarining diametri 0,4 sm dan katta bo'lsa, idishga qo'yilgan suv tezda qum tagiga oqib tushadi. Agar qum zarrachalarining diametri 0,2 sm dan kichik bo'lsa, qumdagagi havo yo'llari suv bilan berkilib qolib, idishlarning nafas olish prosessi buziladi.

Qumni organik moddalar qoldig'idan tozalash. Elangan qum konsentrangan HCl eritmasida 2-3 kun saqlanib, so'ngra kislota mutlaqo yo'qolguncha vodoprovod suvi bilan yuviladi.

Qumda kislota ionlari bor-yo'qligi lakmus qog'oz yordamida aniqlanadi. Eng oxirida qum distillangan suv bilan bir necha marta chayiladi. Qumdan oqib chiqqan distillangan suvda Cl

ionlari bor-yo'qligini aniqlanadi. Buning uchun distillangan suvga nitrat kislotaning kumush tuzi qo'shiladi. Xlor ionlari bo'lmasa, cho'kma hosil bo'lmaydi, aks holda cho'kma hosil bo'ladi.

Xlor ionlaridan ozod bo'lgan qum tunuka laganchaga 10-15 sm qalinlikda yoyilib, 400° temperaturada qizdiriladi. SHu bilan qum tayyor bo'ladi.

O'simlik normal o'sishi va rivojlanishini ta'minlash uchun yuvilgan va quritilgan qumga Pryanishnikov yoki Gelrigel eritmasi yoki tuz kristallari qo'shiladi. Agar bu oziq moddalar kristall holda aralashtirilsa, qumga zarur miqdorda suv qo'yib aralashtiriladi va idishlarga zich qilib to'ldiriladi. SHu tarzda tayyorlangan idishlarning har biriga oldindan ivitib qo'yilgan urug'lardan 5 donadan ekiladi. Tajriba natijalari daftarga yozib boriladi.

Eslatma: Qumni tozalash uchun xlorid kislota eritmasi bo'lmasa, yuvilgandan so'ng 400° issiqda qizdiriladi. SHu tartibda tayyorlangan qumni oddiyroq tajribalarda ishlatish mumkin.

O'simliklarni tuproqda o'stirish. O'simliklarni tuproqda va qumda o'stirishda vegetasion idishlar ishlatiladi. Buning uchun katta hajmli shisha idishlar yoki tunukadan yasalgan maxsus chelaklardan foydalaniadi. Ularning ichi surik deb atalgan bo'yoq bilan bo'yaladi. Bo'yoq qurigandan keyin idishning ichki devoriga benzinda eritilgan parafin surkaladi. Idishning tashqi tomoni ohak atalasi bilan bo'yaladi yoki dokadan tikilgan paxtali ko'rpa cha bilan o'raladi.

Tuvak idishdagi tuproq va o'simliklarni suv bilan ta'minlab turish uchun idish tubiga ma'lum miqdorda shag'al solib, uning orasiga tunuka yoki shisha nay o'rnatiladi. Vegetasion idishga o'sha nay orqali suv qo'yib turiladi. SHag'alning usti 1-2 qavat filtr qog'oz va bir qavat doka bilan yopiladi. Doka ustiga idishning hajmiga qarab, 0,5-1 kg miqdorda elangan qum bosiladi. So'ngra vegetasion idish barvaqt tayyorlab qo'yilgan tuproq bilan to'ldiriladi. Tuproq zich qilib bosiladi va qatqaloq paydo bo'lmasligi uchun ustiga 0,5-1 kg qum sepiladi.

Vegetasion idishlarga solinadigan tuproq zarrachalarining diametri 1 sm dan katta bo'lmasligi kerak. Bu tuproq strukturasini yo'qotmaydigan, ya'ni donador bo'lishi shart. Buning uchun tuproqni vegetasion idishlarga to'ldirishdan oldin 3:1 nisbatda elangan qum aralashtiriladi. Qum aralashgan tuproqqa zarur miqdorda mineral tuzlar solib, qayta aralashtiriladi. Jumladan, bir kilogramm tuproqqa 0,5 gr natriy selitrasи (NaNO_3); 0,5 gr kaliy tuzi (KCl); 0,75 gr superfosfat [$\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$] qo'shiladi.

Vegetasion idishga solinadigan suv miqdori quyidagicha aniqlanadi.

Tuproqning namligini aniqlash. Analitik tarozida uchta byuksning vazni aniqlanadi. So'ngra ularga oldindan tayyorlab qo'yilgan tuproq to'ldirilib, ularning tuproq bilan bирgalikdagi vazni aniqlanadi. Tuproqni yaxshi quritish uchun byukslar quritgich shkafga qo'yilib, 105° issiqda 6

soat saqlanadi. So'ngra byukslar shkafdan olinib eksikatorda sovitiladi. Sovigan byukslar qayta tortilib, yana 2 soat davomida quritgich shkafga qo'yiladi. Ularning vazni doimiyga kelguncha buni davom ettiriladi. Bu ma'lumotlardan tuproqning sof vazni quritishdan oldin 7,915 gr, quritilganda yo'qotgan vazni 1,840 gr ekanligini ko'ramiz. So'ngra tuproq namligi prosent hisobida quyidagicha aniqlanadi:

$$x = \frac{100 \cdot 1,840}{7,915} = 23,44\%$$

1,840 - x

Endi tuproqning nam sig'imini aniqlash kerak. Buning uchun uzunligi 18-20 sm va diametri 3-5 sm li shisha nay olib, uning bir uchi doka bilan mahkam berkitiladi; so'ngra uni tarozida tortib, sof vazni aniqlanadi. Keyin to'rtdan uch qismiga tuproq solib, tuproq bilan birlashtiriladi. Nihoyat, nay baland devorli kristallizatorga joylanadi va ichidagi tuproq yuzasiga teng kelguncha unga suv qo'yiladi.

Nay suvli kristallizator ichida 1-3 kun turgandan keyin nayning aylanasi filtr qog'oz bilan quritiladi va tarozida tortiladi.

Eslatma: Tuproqning nam sig'imini aniqlashda shisha nay o'rniga temirdan yasalgan maxsus silindrda foydalanish mumkin.

Jadval ma'lumotlariga asoslanib, tuproqqa qo'shimcha shimilgan suv miqdori prosent hisobida aniqlanadi. Bu masala quyidagi proporsiya bilan yechiladi:

$$x = \frac{44,240 \cdot 100}{224,185} = 19,73\%$$

224,185 - 44,240
100 - x

Demak, 100 gr tuproq 19,73 gr suv shimar ekan. SHunday qilib, bu tuproq tarkibida ilgari bo'lган va keyin shimilgan suvning umumiyyati miqdori $23,24 + 19,73 = 42,97\%$ bo'ladi.

Tuproq tarkibida 23,24 gr suv borligini aniqlab oldik. Endi bu tuproqning sof (suvdan tashqari) vaznini aniqlash kerak. Bu quyidagicha bajariladi:

$$100 - 23,24 = 76,76 \text{ gr.}$$

SHu tariqa 76,76 gr quruq tuproqni suvgaga to'yintirish uchun unga 42,97% suv qo'shish kerak bo'lsa, 100 gr quruq tuproqni suvgaga to'yintirish uchun, ya'ni uning to'la nam sig'imini aniqlash uchun:

$$76,76 - 42,97 \quad x = \frac{42,97 \cdot 100}{76,76} = 55,97 \text{ гп}$$

$$100 - x$$

suv qo'shish kerak.

O'simliklar normal o'sib rivojlanishi uchun tuproq tarkibida havo ham bo'lisi zarur. Agar havo bo'lmasa, o'simliklarning nafas olish prosessi buziladi va nobud bo'ladi. Bunday hodisa yuz bermasligi uchun tuproqni namiqtirishda uning to'la nam sig'imiga nisbatan 60-70% suv berish kerak. Bu masala quyidagi tenglama yordamida hal qilinadi:

$$55,97 - 100 \quad x = \frac{55,97 \cdot 60}{100} = 33,58 \text{ гп}$$

$$x - 60$$

Binobarin, 100 gr quruq tuproqni to'la nam sig'imining 60% gacha namiqtirish uchun beriladigan suv miqdori 33,58 gr ekanligi aniqlanadi. Lekin tuproq tarkibida 23,24% suv borligi aniqlangan edi. SHunga asoslanib, 100 gr tuproqqa 33,58 gr emas, balki o'sha darajaga yetish uchun kerakli bo'lган miqdorda suv beriladi. Buni aniqlash uchun tuproqqa qo'shilishi zarur bo'lган suv miqdori (33,58 gr) dan tuproq tarkibidagi suv miqdori (23,24 gr) ayiriladi. Bu 10,34 gr ni tashkil etadi. Demak, vegetasion idishdagi har 100 gr tuproqqa 10,34 gr hisobidan qo'shimcha suv qo'yish kerak ekan.

Endi vegetasion idishga suv qo'yishdan oldin, undagi tuproq tarkibida qancha suv borligini aniqlash kerak.

Misol uchun vegetasion idishdagi tuproqning vazni 8,971 kg deb olamiz. Agar bu tuproqning 100 grammida 23,24 gr suv bo'lsa, uning hammasi tarkibida qancha suv borligini aniqlash uchun quyidagicha tenglama tuziladi.

$$100 - 23,24 \quad x = \frac{8,971 \cdot 23,24}{100} = 2,084 \text{ кг}$$

$$8,971 - x$$

Quruq tuproqning vaznini aniqlash uchun uning umumiyl vaznidan suvning vazni ayiriladi. Bu holda tuproqning sof vazni: $8,971 - 2,084 = 6,887 \text{ kg}$ bo'ladi.

Endi quruq tuproq namligini 60% ga yetkazish uchun unga qancha suv qo'shish kerakligini aniqlash kerak. Bu masala quyidagi tenglama bo'yicha yechiladi:

$$100 - 33,58 \quad x = \frac{6,887 \cdot 33,58}{100} = 2,310 \text{ кг}$$

$$6,887 - x$$

Demak, tajriba o'tkazilayotgan tuproqning namligini 60% ga yetkazish uchun unga 2,310 kg suv qo'shish kerak bo'ladi.

Ammo tenglamani yechishda ma'lum bo'lgan suv miqdorining hammasini bermay, faqat yetishmagan qismini berish zarur. Buning uchun tuproq namligini 60% ga yetkazishda kerak bo'lgan suv miqdoridan tuproq tarkibidagi umumiyl suv miqdori ayiriladi. CHunonchi, 2310-2084=226,0 gr.

Demak, vegetasion idishdagi tuproqning namligini to'la nam sig'imiga nisbatan 60% ga yetkazish uchun idishga 226,0 gr suv qo'yish kerak. So'ngra idishdagi tuproqqa ivitilgan urug'dan 5 dona ekiladi. Idish ichidagi tuproq namligini doimo 60% darajada saqlash maqsadida idish taroziga qo'yilib, kamaygan suv miqdori hamisha to'ldirilib turiladi. SHu tariqa, vegetasion idishlar mineral, makro va mikro elementlar ta'sirini, tuproq va boshqa xil tashqi muhit faktorlarining o'simliklarga ta'sirini tekshirib turish imkonini beradi.

Nazorat uchun savollar.

1. O'simliklarni qanday parvarish qilish usullarini bilasiz?
2. O'simlikni suvda qanday o'stiriladi?
3. O'simlikni qumda qanday o'stiriladi?
4. O'simliklarni tuproqda qanday o'stirish mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

32.Laboratoriya ishi.

Mavzu: O'simliklarni parxesh qilish yo'li bilan ko'paytirish.

Umumiy ma'lumot: O'simliklarda vegetativ ko'payish keng tarqalgan. Vegetativ ko'payish o'simliklarda qalamchalari orqali, ildizpoyasi orqali, piyozbosh, tugunak, barg va parxesh qilish yo'llari orqali amaoga oshirish mumkin. Parxesh yo'li bilan ko'proq butasimon o'simliklar ko'paytiriladi. O'simlikning novdasini egib, tuproqqa ko'miladi, novdaning uchi tuproqdan chiqarilib qo'yiladi. Novdaning yerga ko'milgan qismidan ildizlar chiga boshlashi bilan, novda shu yeridan asosiy o'simlikdan ajratiladi.

Kerakli o'quv materiallari:

O'tkir pichoq yoki tok qaychi, tok, anor, anjir, atirgul, tol va shunga o'xhash daraxt va bo'talar.

Darsning maqsadi:

O'sib turgan o'simlikning o'zidan tez o'sib chiqish uchun yangi o'simlik parxish (ona o'simlikning ildiz bo'g'zidan o'sib chiqqan novda tuproqqa yarim ko'milib, novda ildiz olgandan so'ng yosh o'simlikni ona o'simlikdan ajratib olish usuli) yo'li bilan vegetativ ko'paytirish.

Ishning bajarilishi:

Anor, tok, tol, anjir, atirgul va boshqa shu kabi vegetativ yo'l bilan ko'payuvchi o'simlik tanlab olinadi. Bu o'simlikni erta bahorda ildiz bo'g'zidan bir yillik novdasi o'sib chiqib turgan bo'lishi kerak. SHu novdani asosiy tanadan ajratmasdan egib, yerga ko'mib ekiladi (6-rasm).



6-rasm. Parxish usulida ko'paytirish tartibi.

Ildiz olishni tezlatish maqsadida poyaning tuproqqa ko'milgan joyidagi po'stloqni bir necha joyidan pichoq bilan kesib kallus (organik moddalar to'plangan shish) hosil qilinadi va undan ildiz tez o'sib chiqadi. Oradan bir qancha vaqt o'tgandan so'ng tuproqqa ko'milgan novdaning bir necha joyidan ildizlar paydo bo'ladi, ildiz otgan novdadan yuqoriga qarab poya ham o'sib chiqadi. yer yuzasiga o'sib chiqqan poya va hosil bo'lgan ildizlar yaxshi rivojlangandan keyin yerga ko'milgan novda asosiy o'simlik tanasidan kesib ajratib olinadi. O'sib chiqqan ushbu yosh novda mustaqil ravishda rivojlanaveradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Parxish qilish nima?
2. Parxish qilish yo'li bilan o'simliklar qanday ko'paytiriladi?
3. Qanday o'simliklarni parxesh qilish yo'li bilan ko'paytiriladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslardan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

33.Laboratoriya ishi.

Mavzu: O'simliklarni bargsiz va bargli qalamchalar orqali ko'paytirish.

Kerakli o'quv materiallari:


O'tkir pichoq, belkurak, terak, tol, anor va shunga o'xshash vegetativ ko'payuvchi o'simliklar qalamchalari.

Darsning maqsadi:

Vegetativ yo'l bilan ko'payuvchi o'simliklardan qalamchalar olib ko'paytirish.

Ishning bajarilishi:

Tol, terak, atirgul, siren, tok, limon, krishovnik, qoraqat (smorodina) va boshqa xil o'simliklar ushbu usulda ko'paytiriladi. Qalamchalar erta bahor yoki kuz boshida o'tqaziladi. Har bir qalamchalarni uzunligi 25-40 sm uzunlikda yuqorigi va pastgi uchlarini o'tkir pichoq bilan qiya qilib kesiladi. Kesish vaqtida qalamchalarning yuqorigi va pastgi uchlariga yaqin qismida bittadan kurtak bo'lishi shart (7-rasm).



7-rasm. Bargsiz qalamcha.

Qalamchalar o'tqaziladigan yerning tuprog'i chuqur va sifatli qilib yumshatiladi. Qalamchaning uchki tomoni yer betiga qoldirilib, boshqa qismi tuproq bilan ko'miladi va uning aylanasidagi tuproq ehtiyyotlik bilan bosib zichlanadi.

Bargli qalamchalardan ko'paytirish.

Kerakli o'quv materiallari:

O'tkir pichoq, parnik yoki nam qum to'ldirilgan tuvaklar, siren, floks, limon va shunga o'xshash o'simliklar, chirindili tuproq.

Darsning maqsadi:

Vegetativ yo'l bilan ko'payuvchi ayrim o'simliklarni bargli qalamchalari bilan ko'paytirish usulini o'rganish.

Ishning bajarilishi:

YUqorida nomlari ko'rsatilgan o'simliklardan biri tanlab olinib, 1-2 ta barg va bitta kurtak qoldirib qalamcha tayyorlanadi. Bargli qalamchalarni 15-20 sm qilib tayyorlasa bo'ladi.

Qalamchadagi barglar orqali transpirasiya jarayonini kamaytirish uchun shu barglarni yarmi kesib tashlanadi.

Bargli qalamcha ildiz olguncha parnikda yoki usti shisha qalpoqcha bilan yopilgan tuvaklarda parvarish qilinadi. Buning uchun tuvakka qum to'ldirib, yetarli darajada namiqtiriladi, so'ngra unga qalamcha o'tqazilib, ustiga shisha idish to'nnkarib qo'yiladi.

SHisha qalpoqcha devorlarida paydo bo'lган suv tomchilari quritib turiladi, chunki suv tomchisi orqali o'tadigan quyosh nurlari qalamcha bargini kuydirib yuborishi mumkin.

Bargli qalamcha ildiz olgandan so'ng u tashqi muhit sharoitiga o'rgatiladi. Buning uchun tuvak ustidagi shisha qalpoqcha vaqt-vaqt bilan olinib, qalamcha ochiq havoga (o'rgatiladi) tutiladi. Qalamchalarni doimiy joyga o'tqazishdan oldin chirindi, tuproq va qum aralashmasi bilan tuvak to'ldiriladi va o'simlik o'tqaziladi. Qalamchalarni issiq quyosh nuri ta'siridan himoya qilish maqsadida tuvaklar soya joyda saqlanadi. Qalamchalar parnikda o'stirilganda ham yuqorida aytib o'tilgan tadbirlar qo'llaniladi. Qalamcha ildiz olib tutib ketgandan so'ng doimiy joyga ko'chirib o'tqaziladi. Qalamcha asosan bahor boshida ko'chirib o'tqazilsa yaxshi tutib ketadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Bargsiz qalamchalar qanday ko'paytiriladi?
 2. Qanday o'simliklarni bargsiz ko'paytirish mumkin?
 3. Mashg'ulot uchun qanday materiallar ishlatiladi
1. Bargli qalamchalardan qanday ko'paytiriladi?
 2. Qanday o'simliklar bargli qalamchalaridan ko'paytiriladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.

3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.

4. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.

5. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.

6. Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

34.Laboratoriya ishi.

Mavzu: O'simliklarning issiqqa chidamliligini

aniqlash.

Umumiy ma'lumot:

O'simliklar dunyosiga kirgan ba'zi termofil bakteriyalar va suvo'tlar $60-80^{\circ}\text{S}$ issiqda ham yashay oladi. SHuning uchun bunday akteriyalar va ssvo'tlar issiq buloqlarda tarqalgan.

Ko'pchilik issiq iqlimli sharoitda o'suvchi o'simliklar maksimum $49-51^{\circ}\text{S}$ gacha o'z hayot faoliyatini davom ettiradi. Boshqa o'simliklarda masalan: KARTOSHKADA BU $42,5^{\circ}\text{s}$ dan oshmasligi mumkin.

Issiqlikka chidamli o'simliklani setoplazma yopishqoqligi va elastikligi kuchli bo'ladi.

Bunday o'simliklar to'qimalarida mahkam bog'langan suv miqdori mezofit o'simliklardagiga nisbatan bir necha marta (56-70 %) ko'p bo'ladi.

Kerakli o'quv materiallari:

Bir necha xil o'simlik, suv hammomi, 0,2 n HCl, idishlar.

Darsning maqsadi. O'simlik barglarini issiq suv hammomiga solib, issiqqa chidamliligini aniqlash,

Ishning bajarilishi.

Bu mashg'ulotni o'tkazish uchun 3-4 xil o'simlikning har qaysisidan oltita barg kesib olinadi. Bu barglar (35° li) issiq suv qo'yilgan idishga solinadi. So'ngra bargli idish suv hammomiga joylanib, idishdagi suvning temperaturasi 35° dan pasaymasligi va shu darajadan yuqori ko'tarilmasligini ta'minlash uchun suv hammomi 30 minut isitib turiladi. Vaqt o'tgandan so'ng idishdagi har xil o'simlik bargidan bittadan olib sovuq suvgaga solinadi. So'ngra barglar solingan idishdagi suvning temperaturasi 40° gacha isitiladi, oradan 10 minut o'tgach, idishdan yana bittadan barg olinib ikkinchi idishdagi sovuq suvgaga solinadi.

Endi barglar solingan idish ichidagi suvning temperaturasi har 10 minut o'tishi bilan 45, 50, 55 va 60° gacha oshirib turiladi. Idishdagi suvning temperaturasi har 5° gacha ko'tarilgan sari yuqorida o'tkazilgan ishlar takrorlanadi.

Bu ishlar tugagach, sovuq suvli idishga qoldirilgan barglarni suvdan olib, yassi idishga qo'yilgan 0,2 n HCl eritmasiga solinadi. Oradan 20 minut o'tgach, tajriba natijasi quyidagi jadvalga yoziladi.

O'simlik turi	Temperatura (t°)					
	35	40	45	50	55	60
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Nazorat uchun savollar:

- O'simlikning issiqlikka chidamliligi nima?
- O'simliklarning issiqlikka chidamliligini qanday aniqlash mumkin?
- Mashg'ulot uchun qanday materiallar kerak bo'ladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
- Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

35.Laboratoriya ishi.

Mavzu: Sitoplazmaning sovuqqa chidamliligini oshirishda shakarlarning roli.

Umumiy ma'lumot:

Kerakli o'quv materiallari:

Probirkalar, shtativ, qizil karam yoki qizilcha, ustara, qor, kristal holidagi tuz, shisha idishlar, termometr, mikroskop, buyum oynalari, millimetrli qog'oz yoki lineyka.

Darsning maqsadi:

O'simliklar hujayrasi tarkibidagi sitoplazmani uglevodalar sovuq muhitda himoya qilishini o'ragnish.

Ishning bajarilishi.

Bu mashg'ulot uchun qizil karam yoki qizilcha parenximasidan oltita bo'lakcha tayyorlanadi. Bo'lakchalarning ko'ndalang kesigi 25 mm^2 , uzunligi 1-2 sm bo'lishi kerak. Bo'lakcha ustidagi rangli shira yuvib tashlanadi. Shtativdagi uchta probirkaning biriga 10 ml suv, ikkinchisiga 10 ml 0,5 n va uchinchisiga 10 ml 1 n shakar eritmasi qo'yiladi. Yuqorida tayyorlangan bo'lakchalardan har qaysi probirkaga ikkitadan solinadi. So'ngra probirkalar shtativdan olinib, qor va tuz aralashmasi solingan idishda 20 minut saqlanadi (3 qism qorga 1 qism tuz aralashtirilsa, uning temperaturasi 24^0 gacha pasayadi). Oradan 20 minut o'tgach, probirkalar xona temperurasidagi suvli idishga qo'yilib, muzi eritiladi, keyin ulardagi suyuqliklarning rangi solishtirilib ko'rildi. So'ngra har qaysi probirkadagi bo'lakchalardan yupqa kesik tayyorlanadi va mikroskopda tekshiriladi. Suvli probirkadagi bo'lakchalarning kesigini tekshirganda, hujayradagi antosion bo'yoq chiqib ketgani sababli, hujayralar oqarib qolganligi ko'rindi, chunki past temperatura ta'sirida sitoplazma o'tkazuvchanlik xususiyatini yo'qotadi va hujayralar rangsizlanadi. 0,5 n (saxaroza) eritmada bo'lakcha hujayralarning ba'zilari rangsizlansa, ba'zilarida sitoplazma to'la buzilmaganligi sababli, antosion bo'yoqni o'zida saqlab qolganligi ko'rindi. 1 n eritmadagi bo'lakcha hujayralari past temperatura ta'sirida nobud bo'lmay, tirik qolganligi aniqlanadi. Demak, hujayra tarkibida to'plangan uglevod (shakar)lar qish faslida o'simliklarni past temperatura ta'siridan saqlashda katta ahamiyatga ega ekan.

Nazorat uchun savollar:

1.O'simliklar hujayralari sovuqqa chidamliligi nimalar hislbiga amalga oshadi?

2. O'simliklar hujayralarida shakarning rolini tushuntiring?

3. Mashg'ulotn bajarish tartibini tushuntiring?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1

36. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Oqsilning xossalari bilan tanishish.

Umumiy ma'lumot:

Barcha tirik organizmlarda uchraydigan oqsil birikmalari juda murakkab tuzilgan bo'lib, ularning sintezlanishida 20 xil aminokislota ishtirok etadi. Aminokislotalarning xilma-xil nisbatda va har xil izchillikda bir-bir bilan bog'lanishidan oqsillar hosil bo'ladi. Oqsillar oddiy (proteinlar) va murakkab (proteidlar) gruppasiga bo'linadi.

Proteinlar faqat aminokislotalardan hosil bo'lган sof oqsil birikmalardir. Proteidlar esa sof oqsil bo'lмаган moddalar bilan qo'shilishidan hosil bo'ladi. O'simliklar to'qimasidagi oqsillarning ba'zi xossalari bilan tanishish uchun quyidagi mashg'ulotni o'tkazish tavsiya qilinadi. Mashg'ulot o'tkazish uchun dastlab toza kolbaga 5 g no'xat yoki chigit uni solinadi. Ustiga 10% li NaCl yoki $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ eritmasidan 50 ml qo'yib, aralashma 3 minut chayqatiladi. So'ngra 30 minut tindiriladi. SHundan keyin eritma burmali filtr orqali toza quruq kolbaga filtrlanadi. Filtrat loyqa bo'lsa, u qayta filtrlanadi. Bu holda filtratga globulin gruppasiga kirgan oddiy oqsil o'tadi. Keyin oqsilning xossalari bilan quyidagicha tanishiladi:

Kerakli o'quv materiallari: No'xat yoki chigit uni, 2 ta kolba, shtativ, probirkalar, spirt, lampa, filtr qog'oz, voronka, 10% li NaCl yoki $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$, 5-10% li Pb $(\text{CH}_3\text{COO})_2$ eritmasi, 10% li NaOH, 20% NaCl, MgSO₄ yoki $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$, NaCl kristallari, ammiak, HCl, HNO₃ yoki H₂SO₄, 10% li CuSO₄ eritmasi.

Darsning maqsadi:

O'simliklar tarkibida oqsillar mavjudligini aniqlash va shu oqsillar xossalari bilan tanishish.

Ishning bajarilishi.

1. Toza quruq probirkaga 1 ml filtrat solib, ustiga 3-5 ml suv qo'yiladi. Agar probirkadagi tiniq filtrat loyqalansa, bu hol globulin suvda erimaganligini ko'rsatadi. SHu probirkaga 3-5 ml 20% li NaCl va MgSO₄ ning neytral tuzlari yoki $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ eritmalaridan biri qo'shib aralashtirilsa, loyqalangan eritma qaytadan tiniq holga keladi. Bu hodisa globulin kuchsiz konsentrasiyalı tuz eritmasida ham erishini ko'rsatadi.
2. Toza probirkaga 1 ml filtrat qo'yib, unga 0,5 g NaCl kristallari qo'shiladi. Bu holda probirkadagi eritmaning konsentrasiyasi 50% ortadi, globulin cho'kadi, eritma esa loyqalanadi. Bu hodisa oqsilning sho'rلانishi deyiladi. Eritmaga suv qo'shib konsentrasiyasi pasaytirilsa, u yana tiniq holga keladi.

3. Toza quruq probirkaga 1 ml filtrat qo'yib, ustiga NCl, HNO₃ yoki H₂SO₄ birortasidan 5 tomchi qo'shiladi. Kuchli kislota ta'sirida oqsil denaturasiyalanadi, ya'ni ivib qoladi va o'z xususiyatini yo'qotadi. Bu cho'kmaning neytral tuzlar eritmasida va suvda erimasligini tajriba qilib ko'rish kerak.

4. Probirkaga 1 ml filtrat qo'yib spirt lampa alangasida isitiladi. Filtratdagi oqsil issiqlik ta'sirida o'z xususiyatini yo'qotib, cho'kmaga tushadi.

Filtrat tarkibidagi oqsil bor-yo'qligini aniqlash uchun ba'zi rangli reaksiyalar qilib ko'riladi.

Masalan:


1. Biruyet reaksiyasi. Bu reaksiyani o'tkazishda probirkaga 1 ml filtrat qo'yib, unga 10% li ishqor va bir necha tomchi CuSO₄ ning 10% li eritmasi qo'shiladi. Reaksiya prosessida hosil bo'lган Cy(OH)₂ eritmasi cho'kmasi oqsil ta'sirida ko'kish-binafsha rangli eritmaga aylanadi. SHunday qilib, oqsil tarkibida peptid gruppasi (CO-NH) mavjudligi Biruyet reaksiyasini vujudga keltiradi.



2. Ksantoprotein reaksiyasi. Bu reaksiyani o'tkazishda probirkaga 1 ml filtrat va 2-3 tomchi konsentrangan HNO₃ qo'yib, aralashma isitiladi. Natijada sariq rangli cho'kma va eritma hosil bo'ladi. Probirkadagi eritma sovugandan keyin unga asta-sekin 1-2 tomchi ammiak qo'shilsa cho'kma va eritma zarg'aldoq tusga kiradi. Bunda fenilalanin, triptofan va tirozin aminokislotalari ishtirokida ksantoprotein reaksiyasi boradi.

3. Millon reaksiyasi. Probirkaga 1 ml filtrat qo'yiladi va ustiga bir necha tomchi Millon reaktivini tomizib qaynatiladi. Hosil bo'lган cho'kma qizg'ish tusga kiradi. Bu hodisa oqsil tarkibida tirozin aminokislotosi borligini ko'rsatadi.

4. Fol reaksiyasi. Bu reaksiya oqsil tarkibida oltingugurt atomlari tutgan uistin va uistein aminokislotalarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Uistin va uistein aminokislotalari tarkibida mustahkam bog'lanmagan holdagi oltingugurt molekulalari uchraydi. SHu sababli bu aminokislotalarga NaOH ga qo'rg'oshin asetat eritmasi qo'shilgan aralashma ta'sir ettirilganda, aminokislota tarkibidan oltingugurt molekulalari ajralib chiqib, qo'rg'oshin molekulalari bilan qo'shiladi. Natijada bu aralashma qo'rg'oshin sulfid tuzi (PbS) ga, uistin va uistein aminokislotalari siren aminokislotasiga aylanadi. Ayni vaqtida probirkada qora rangli cho'kma hosil bo'ladi. Bu reaksiya quyidagicha boradi.





Filtratdagi uistin va uistein aminokislotalarning miqdoriga ko'ra, reaksiya vaqtida hosil bo'lган cho'kmaning rangi har xil bo'ladi. Masalan, aminokislolar miqdori kam bo'lsa cho'kma qo'ng'ir, ko'p bo'lsa qora rangda bo'ladi. Bu mashg'ulot quyidagicha o'tkaziladi.

Tekshiriladigan oqsil eritmasidan probirkaga 5-10 tomchi solib, unga 5-10 tomchi Fol reaktivi qo'shib qaynatiladi. 1-2 minutdan so'ng aralashmada qo'ng'ir yoki qora cho'kma hosil bo'ladi.

5. Ningidrin reaksiyasi. Oqsilli filtratga bir necha tomchi suvda eritilgan 0,5% li Ningidrin eritmasidan qo'shib qizdirilganida eritma pushti yoki ko'k-binafsha rangga kiradi.

6. Adashkevich reaksiyasi. Bu reaksiyani o'tkazishda dastlab oqsilli eritmaga bir necha tomchi konsentrangan sirka kislota (CH_3COOH) qo'shib, ehtiyotlik bilan isitiladi. Eritma sovugandan keyin probirkaga devori bo'y lab ehtiyotlik bilan konsentrangan H_2SO_4 qo'yiladi. SHunda probirkadagi eritma ikki qavatga ajraladi, ya'ni yuqorida sirka kislota, pastda H_2SO_4 bo'ladi, ularning chegarasida qizil-binafsha halqa hosil bo'lганligi tarkibida aminokislota va oqsillar borligini ifodalarydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Oqsillar qanday organizmlarda uchraydi?
2. Organizmlar uchun oqsilning roli nimadan iborat
3. Oqsil tarkibida qancha aminokislolar uchraydi?
4. Tajribada oqsillarning xossalari qanday bilish mumkin?

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi – asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.

7. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
8. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
9. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
10. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
11. Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

37. Laboratoriya ishi.

Mavzu: Oqsilning rangli reaksiyalari (M.X. Chaylaxen usulida).

Kerakli o'quv materiallari:

5% li CuSO₄, spiritning 96% li eritmasi, 10% li NaOH, 1:1 nisbatda suv bilan suyultirilgan nitrat kislota, 1:2 nisbatda suv bilan suyultirilgan ammiak eritmasi, g'o'za, lavlagi, karam va boshqa o'simliklarning bargi.

Darsning maqsadi:

O'simliklar tarkibidagi oqsillarni rangli reaksiyalar orqali bir-biridan ajratish.

Ishning bajarilishi.

G'o'za yoki biror boshqa o'simlikning bargi qaynab turgan suvga botiriladi va 1-2 minutdan so'ng suvdan olib 96⁰li spirit qo'yilgan kolbaga solinadi. Kolba og'ziga sovutgich o'rnatiladi. So'ngra kolbani suv hammomiga qo'yib, 30-60 minut isitiladi. Bunda barg tarkibidagi yashil va sariq pigmentlar, erkin aminokislotalar va suvda eriydigan oqsil (albumin) lar spiritda to'planadi.

Rangsizlangan barglarni kolbadan olib, distillangan suvga botirib olinadi va har qaysisi alohida yassi idishga yoyiladi. yassi idishlarda quyidagi reaksiyalar o'tkaziladi.

1. Biruyet reaksiyasi. Petri idishidagi yoki boshqa bir likopchadagi barg ustiga mis kuperosi (CuSO₄) ning 5% li eritmasi qo'yilib, 1 soat saqlanadi. So'ngra bargni eritmagan olib distillangan suvda chayiladi va 10% NaOH solingan idishga botirib qo'yib, unda ham 1 soat saqlanadi. Bunda barg to'qimasining binafsha rangga kirishi uning tarkibidagi oqsillar va peptid bog'lari bo'lgan pepton, polipeptidlar borligini ko'rsatadi.

2. Ksantoprotein reaksiyasi. Bunda konsentrangan nitrat kislota 1:1 nisbatda suv bilan aralashtiriladi. Rangsizlantirilgan barg shu eritmaga 15-30 minut solib qo'yilgandan so'ng sariq rangga kiradi. Agar uni ikkinchi idishga solib qo'yilgandan so'ng (sariq rangga kiradi)

1:2 nisbatda suv bilan suyultirilgan ammiak qo'yilsa, barg zarg'aldoq rangga kiradi. Bu reaksiya ham barg tarkibida oqsil borligini ko'rsatadi. Lekin protaminlar gruppasidagi oqsillarni ksantoprotein reaksiyasi yordamida aniqlab bo'lmaydi.

3. Millon reaksiyasi. Rangsizlantirilgan barg Millon reaktivida 30-60 minut saqlanganida qizg'ish rangga kiradi. Bu hodisa barg tarkibida oqsillar borligini ko'rsatadi.

Eslatma: Rangning to'q va och bo'lishiga qarab, oqsil miqdorini 5 balli sistema bilan baholash mumkin. Masalan, oqsil juda oz bo'lsa 1, oz bo'lsa 2, o'rtacha bo'lsa 3, ko'p bo'lsa 4 va juda ko'p bo'lsa 5 ball bilan baholanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Barg tarkibidagi oqsillarni qaysi usul yordamida aniqlash mumkin?
2. Biuret reaksiyasi qanday bajariladi?
3. Million reaksiyasi qanday boradi?

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi – asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
4. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
5. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.

Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

38.Laboratoriya ishi.

**Mavzu: O'simlik tarkibida oshlovchi
moddalarni aniqlash.**

Umumiy ma'lumot:

O'simliklarda moddalar almashinuvi prosessida o'ziga xos ba'zi birikmalar hosil bo'ladi. Bular oshlovchi moddalar deyiladi. Ular xom terini oshlashda foydalilanadi. O'simliklardan olinadigan oshlovchi moddalar fiziologik aktiv birikmalar qatoriga kiradi va o'simliklarning o'sishi hamda rivojlanishi davrida ularning miqdori o'zgaradi. Masalan, S.V. Durmishidze ma'lumotlariga ko'ra uzumning urug'i tarkibida kaxetin miqdori iyul oyida 70% ni tashkil qilgan bo'lsa, sentyabr oyida 20% dan oshmagan.

Oshlovchi moddalar ta'sirida oqsillar gullanadi. Oshlovchi moddalar bilan ishlangan terining elastikligi ortadi, suv va chirituvchi bakteriyalarga chidamliligi ortadi.

Oshlovchi moddalar asosan paporotniklar va ikki pallali o'simliklar to'qimasida uchraydi. Ular oq qayin, dub, kashtan, tol, qarag'ay kabi daraxtlar po'stlog'idan, dub, akumpinging bargidan, ravoch va ildizidan olinadi.

O'simliklar tarkibida oshlovchi moddalar bor-yo'qligi quyidagi usullar bo'yicha aniqlanadi:

Kerakli o'quv materiallari:

Spirt, lampa, har xil o'simliklarning bargi, filtr qog'oz, voronka, 1% li FeCl_3 eritmasi.

Darsning maqsadi:

Maxsus reaksiyalar yordamida qaysi tur o'simlikdarda oshlovchi moddalar borligini aniqlash.

Ishning bajarilishi.

1. O'simlikning biror qismidan olib, 5-6 ml suvda qaynatiladi. Keyin sovutib filtrdan o'tkazilgandan so'ng, unga 1-2 tomchi 1% li temir (III) xlorid eritmasi qo'shiladi. Oshlovchi moddalarning miqdoriga qarab bu aralashma to'q yoki och qora rangga kiradi. Bu tajribaning natijasi quyidagi jadval shaklida yozib boriladi.

O'simlik turi	Tekshirilayotgan materialning qaysi qismidan olinganligi.	Qorayish darajasi		
		kuchli i	o'rtacha	kuchsi z

2. O'simlik biror organini shirasini siqib olib, unga bir tomchi FeCl_3 eritmasi qo'shiladi. Agar bu aralashma qora rangga kirsa, unda oshlovchi modda borligini bildiradi.
3. O'simlikning kesilgan qismiga bir tomchi FeCl_3 eritmasi tomiziladi, bu joyning qorayib qolishi uning tarkibida oshlovchi modda borligidan dalolat beradi.

Nazorat uchun savollar.

1. O'simliklarda moddalar almashinushi prosessi qanday boradi?
2. Oshlovchi moddalar nima?
3. Qanday o'simliklar tarkibida oshlovchi moddalar bor?

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslardan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
2. Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
4. Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
5. Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
6. Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

39. Laboratoriya ishi.

Mavzu: O'simliklar tarkibida alkoloидлар

borligini aniqlash.

Umumiy ma'lumot:

Tarkibida azot saqlagan va asosiy xossalariiga ega bo'lgan geterosiklik birikmalar alkoloидлар deyiladi. Alkoloидлар achchiq ta'mli bo'lib, loladoshlar, ayiqtovondoshlar oilasiga kiradigan o'simliklarda va ikki pallali do'kkakdoshlarning po'stlog'i, bargi, poyasi va boshqa qismlarida (1-2%), xin daraxtining po'stlog'ida (20%) uchraydi.

Alkoloидлarning o'simliklar uchun ahamiyati hali to'liq o'r ganilmagan, biroq ular oqsillar almashinuvida ishtirok etishi mumkin. Masalan, tamaki maysalar tarkibida nikotin miqdori ortib borishi hisobiga oqsil kamayadi, urug'ning yetilishida, aksincha, nikotin miqdori kamayib, oqsil ko'payadi. Alkoloидлар moddalar almashinuvida ishtirok etishini bir qancha olimlar tajribada isbotlaganlar

Kerakli o'quv materiallari:

Lyupin, kartoshka, bangadevona yoki boshqa alkoloидli o'simliklar, shisha tayoqcha, pipetka, lyugol eritmasi (yodning kaly yodiddagi eritmasi), havoncha.

Darsning maqsadi:

yuqorida nomlari ko'rsatilgan o'simliklar yoki boshqa tarkibida alkoloиди bor (tamaki, termopsis, ayiqtovon ...) o'simlikning ezilgan massasiga kaly yodid eritmasi tomizib o'simlik tarkibida alkoloид oz yoki ko'pligi, bor yoki yo'qligini aniqlash.

Ishning bajarilishi:

Alkoloидлarni aniqlashda o'simliklardan olingan shiraga ta'sir ettiriladigan tannin va pikrin kislotaning suvdagi to'yingan eritmalari, 1% li yod+kaly yodid yoki $K_4Fe(CN)_6$ eritmasi va boshqa maxsus birikmalar bor.

Tajriba uchun tarkibida alkoloид bo'lgan bironta o'simlik (tamaki, termopsis yoki ayiqtovon) ning ildizi, bargi yoki mevasini havonchaga solib shisha tayoqcha bilan eziladi. SHu ezilgan

massaga bir tomchi yod eritmasi tomizilsa, qizg'ish-qo'ng'ir cho'kma hosil bo'ladi. Bu cho'kma miqdoriga qarab alkoloидning ko'p yoki ozligi aniqlanadi.

Tajriba natijalari quyidagi jadval shaklida yozib boriladi.

O'simlik turi	Tekshirish uchun olingan o'simlik	CHo'kma miqdori		
		ko' p	o'rtach a	oz

Nazorat uchun savollar:

1. Alkoloидлар qaysi o'simliklar tarkibida ko'p uchraydi?
2. O'simliklarda alkoloидлар borligini qanday aniqlash mumkin?
3. Alkoloидлар o'simliklarning qaysi a'zolarida ko'proq to'planadi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

40.Laboratoriya ishi.

Mavzu: Saxaroza-invertaza fermenti (enzim)ni o'simlik to'qimasidan ajratib olish va uning saxaroza (shakar)ga ta'sirini o'rganish.

Umumiy ma'lumot:

Tirik organizmlarda sodir bo'ladigan moddalar almashinuvi prosessining borish tezligi fermentlar aktivligiga bog'liq. SHuning uchun fermentlar organik katalizatorlar deyiladi. Fermentlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, har bir ferment ma'lum bir organik moddaga yoki uning ayrim qismlariga ta'sir qiladi. Tirik organizmlarda fermentlarning 2000 dan ko'proq turi uchraydi.


Kerakli o'quv materiallari:

Quruq achitqi, 5-10% li saxaroza eritmasi, 10% li NaOH va CuSO₄ eritmalar, probirkalar, suv hammomi, kvars qum, havoncha, spirt, lampa, pipetka.

Darsning maqsadi. O'simliklar to'qimasidan fermentlarni ajratib olish va uni shakarga ta'sirini o'rganish.

Ishning bajarilishi.

SHakarni parchalashda ishtirok etadigan fermentning ta'sirini o'rganish uchun achitqi zamburug'i tarkibidan saxaroza fermenti ajratib olinadi. Bu ish quyidagicha bajariladi. 0,5 g achitqiga bir oz qum va 5 ml suv qo'shib havonchada eziladi. Aralashmaga 15 ml 60° li suv qo'shib 30 minut tinch qoldiriladi. So'ngra burmali filtrdan o'tkaziladi. Filtrat tiniq bo'lishi kerak, agar loyqa bo'lsa qayta filtrlanadi. Filtratda saxarozan (qamish va lavlagi shakarini) parchalovchi saxaroza yoki invertaza fermenti bo'ladi. Ikkita toza quruq probirkaga 5 yoki 10% li saxaroza eritmasidan 10 ml qo'yiladi. Ularning har qaysisiga 1 ml dan filtrat qo'shiladi. Bitta probirkadagi eritma shu vaqtning o'zidayoq spirt lampa alangasida qaynatiladi. Ikkinci probirka qizdirilmasdan 40° issiq suv hammomiga joylanadi, so'ngra birinchi probirka ham ikkinchi probirka yoniga qo'yiladi va 20-30 minut tinch qoldiriladi. So'ngra ikkala probirkadan 3 ml dan eritma olib, probirkalarga 3 ml 10% li NaOH hamda 3 ml 10% li CuSO₄ reaktivlari qo'shiladi va bu aralashma spirt lampa alangasida qizdiriladi. Natijada Cu(OH)₂ ning ko'k cho'kmasi hosil bo'ladi. Bu reaksiya quyidagicha boradi:



Agar ferment ta'sirida shakar monosaxaridlarga parchalangan bo'lsa, Cu(OH)₂ glyukoza bilan reaksiyaga kirishib, mis (I)-oksid (CuO), mis (II)-oksid (Cu₂O) ga aylanadi, qizil yoki sariq rangdagi cho'kma hosil qiladi. Bu reaksiya quyidagicha boradi:



Ferment qo'shib qizdirilgan probirkadan olingen eritmada yuqorida aytilgan reaksiya yuz bermaydi, chunki shakar eritmasiga qo'shilgan ferment issiqlik ta'mirida buziladi, ya'ni o'z xususiyatini butunlay yo'qotadi. SHu sababli probirkadagi shakar monozalarga parchalanmasdan qoladi va Cu(OH)₂ bilan reaksiyaga kirishmaydi.

Nazorat uchun savollar.

1. O'simliklar to'qimasidan fermentlarni qanday ajratib olish mumkin?
2. Qaysi o'simliklar tarkibida saxaroza miqdori ko'p bo'ladi?
3. Saxaroza-invertaza fermentini o'simlik to'qimasidan ajratib olish uchun saxaroza qanday ta'sir qiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

41. Laboratoriya ishi.

**Mavzu: O'simlikning o'sishini geteroauksin
ta'sirida tezlashtirish.**

Umumiy ma'lumot:

O'simliklarga me'yor holda barcha oziq modda va suv vaqtida berib borilsa o'simlik normal fiziologik holda o'sadi. Bugungi mashg'ulotimizda o'simlikni poyasini tezroq o'stirish uchun geteroauksin eritmasi ta'sir ettiriladi.

Geteroauksin yoki V indolil sirkal kislotasi o'simliklarning o'sishiga yaxshi ta'sir etuvchi fiziologik aktiv moddadir. O'simlik poyasining bir tomoniga geteroauksin bilan ta'sir etilsa, poyaning shu tomonida o'sish prosessi tezlashib, uni ikkinchi tomoniga egib yuboradi

Kerakli o'quv materiallari:

Ampulada geteroauksin, loviya yoki boshqa o'simlikning gul tuvakda o'stirilgan maysasi, ip, doka, paxta, vazelin, silindr.

Darsning maqsadi:

O'simlikning o'sishida geteroauksin ta'sirini o'rghanish.

Ishning bajarilishi: Mashg'ulotni bajarish uchun avval 50 ml geteroauksinni 250 ml suvda eritib, eritma tayyorlanadi. Gul tuvakdagi o'simlikning poyasini bir tomoniga eritma doka yoki paxtaga shimdirlib ip yordamida bog'lab qo'yiladi. Doka yoki paxtadan eritma bug'lanib ketmasligi uchun vazelin surkab qo'yiladi. Bir sutkadan keyin poyaning geteroauksin ta'sir ettirilgan tomonidan egila boshlaganini ko'rish mumkin (5-rasm).



5-rasm. Poyaning geteroauksin ta'sirida egilishi:

a, a₁-paxtaga geteroauksin shimdirlib bog'langan joy.

Tajribani bir necha kun davom ettirish mumkin. Buning uchun har kuni doka yoki paxtaga geteroauksin eritmasidan tomizib turiladi. Tajriba oxirida poyaning geteroauksin eritmasi ta'sirida qanchalik egilganini aniqlanadi va daftarga yozib, chizib olinadi.

Izoh: Tajriba boshida o'simlikni bir tomoniga bog'langan doka yoki paxta bog'lab qo'yilgan joyi rang, chiziq yarim oy qilib ya'ni chiziq aylana qilib tutashtiriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Geteroauksin eritma nima?
2. O'simlik o'sishida geteroauksin eritma qanday ta'sir qiladi?
3. Mashg'ulot uchun qpndpy jihozlar ishlataladi?

4. Mashg'ulot o'tkazish tartibini tushuntiring?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. T. 1990.
- 2.Sulaymonov A.S. Tretyakov K.G. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. T.1976.
3. Burigin V. A. va boshq. Botanika va o'simliklar fiziologiyasi asoslari. T. 1972.
- 4.Gavrelinko V. F. va boshq. Bolshoy praktikum po fiziologii rasteniy. M. 1975.
- 5.Genkel P.A. Fiziologiya rasteniy. M. 1975.
- 6.Alimbekov M. U, Inogomomva M. T, Umarov X. T. O'simliklar fiziologiyasidan yozgi amaliy mashgulotlar. T. 1977.

«O'simliklar fiziologiyasi» fanidan Talabalar mustaqil ishini uslubiy ishlanmasi:

	Talaba mustaqli ishi va mazmuni	TMI shakli	soati
1	Fiziologik jarayonlar va fiziologik tadqiqotlarning usullari.	Yozma uy	
2	O'simlik hujayrasinind kimyoviy tarkibi	Yozma uy	
3	O'simliklar fiziologiyasi fanidan laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rish.	Yozma uy	
4	Fototrof organizmlarning turli tumanligi	Muloqot	
5	Yashil o'simliklarda modda almashinuvining o'ziga xosligi.	Yozma uy	
6	Fitofiziologiya va uning tadqiqot usullari.	Og'zaki	
7	Fotosintezni muhit va organizm holatiga bog'liqligi.	Muloqot	
8	Fotosintezning sof mahsulдорligi	referat	
9	Oksidlanish va qaytarilish reaksiyalarining tiplari.	Og'zak	
10	Anaerob va aerob degidrogenazalar	Muloqot	
11	Turli ekologik guruh o'simliklarda suv almashinushi.	Yozma uy	
12	O'simliklarda suv tanqisligi va ularning anatomik xususiyatlari.	Yozma uy	
13	O'simliklarda moddalarning harakatlanishi	Muloqot	
14	Mikroelementlarning fiziologik o'rni.	Yozma uy	
15	Ontogenezning yuvenil, etuklik va ko'payish bosqichi.	Yozma uy	
16	O'simliklarda sintetik o'sish stimulyatorlar	Yozma uy	
17	Labarotoriyada O'simliklardagi geotropizm harakatini aniqlash	laboratoriya	
18	O'simliklarning o'sishiga tashqi omillar ning ta'sirini ahvil qilish.	Muloqot	
19	Tuproq va atmosfera qurg'oqchiligiga haroratning ta'sirini o'rganish.	Muloqot	
20	SHho'rga chidamliligni oshirish usulla rini labarotori ya sharoitida o'rganish.	Muloqot	
	jami		76 soati

Asosiy adabiyotlar:

- Polevoy V.V. Fiziologiya rasteniyy.M., "Vissaya shkola" 1989
- Rubin B.A. Kurs fiziologii rasteniy.M., "Vishaya shkola" 1976
- Yakushkina N.I. Fiziologiya rasteniy. M 1980
- Maksimov N.A. O'simliklar fiziologiyasining qisqa kursi. T.1966
- Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya asoslari... "O'qituvchi", 1995
- Abdullaev R.A. va boshqalar. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashg'ulotlar. O'zMU.2002

Qo'shimcha adabiyotlar

- Lebedov S. I. Fiziologiya rastenieniy. M. "Agropromizdat" 1988
- Salamatova T. S. Fiziologiya rastitelnoy kletki. L. Izd-vo LGU. 1983.
- Abdullaeva R. A. va boshqalar. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. UzMU 2002 y.
- Internet saytlaridagi ma'lumotlar

Tasdiqlayman
Botanika kafedrasи mudiri
_____ prof. S. Mustafayev.
“ _____ ” 2009yil.

O'simliklar fiziologiyasi» fanidan

Talabalar mustaqil ishini uslubiy ishlanmasi:

1 -TMI mavzusi

Fiziologik jarayonlar va fiziologik tadqiqotlarning usullari.

Umumiy ma'lumot: O'simliklar fiziologiyasi o'simliklar tanasida sodir bo'ladigan hayotiy jarayonlar, murakkab qonuniyatlar va hodisalar zanjirini o'rganuvchi fandir. Fotosintez, nafas olish, suv rejimi va tiriklik asosini tashqil etuvchi boshqa hayotiy kechinmalarni o'rganish, taxlil қilish va ularni odam uchun foydali tomoniga o'zgartirish, ya'ni yukori va sifatli hosil olish mazkur fanning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shu ma'noda o'simliklar fiziologiyasi agronomiya fanlarining nazariy asosini tashqil etadi. Chunki fiziologiya sohasida erishilgan xar bir yutuq, o'simlikshunoslikda ham yangi muvaffaqiyatlarga sabab bo'ladi. Ayniqsa, keyingi yillarda bu sohada erishilgan ijobiy natijalar: suvdan tejamkorlik bilan foydalanish maqsadida sugarish ishlarini tartibli yo'lga qo'yish, mineral va organik o'gildardan samarali foydalanish, o'sish va rivojlanishni boshqarish, tashqi sharoitning noqulay omillariga o'simliklar chidamlilagini oshirish kabi ishlarningo' ammasi o'simliklar fiziologiyasining yutuqlariga asoslangandir.

K.A.Timiryazev o'simliklar fiziologiyasining maqsadi o'simlik tanasidagi hayotiy hodisalarni o'rganish va tushunish xamda shu yo'l bilan o'simlik organizmi kishi xohishiga qarab o'zgarishi, undagi hodisalarni to'xtata olish yoki aksincha, ro'y berishga majbur qilish, xullas, o'simlikni kishi ixtiyoriga bo'ysundirishdan iborat, deb yozgan edi.

Uzbekistan sharoitida fitofiziologlar (A.V.Blagoveshenskiy, N.D. Leonov, V.A.Novikov, V.S'Hardakov, N.A.Todorov, M.X.Ibragimov, N.N.Nazirov, S.S.Abaeva, M.A.Belousov, X.X.Yenileev, A.Imomaliev va boshqalar) birinchi navbatda, ruza va boshqa o'simliklarning hayotiy jarayonlarini keng o'rganib, nazariy va amaliy xulosalar chiqardilar. Xrzirgi vaqtida Uzbekistan FA tizimidagi ilmiy tekshirish institutlari (eksperimental biologiya, botanika), Kishloq. Xujalik Akademiyasi va boshqa ilm dargoxlarida akademik- professorlar tinmay izlanish ishlarini olib bormoqdalar. Umuman, respublikamizda o'simliklar fiziologiyasi fanikeng kulamda rivojlanib bormoqda.

Talaba bajarishi kerak ishlar :

1. Fiziologik jarayonlar va yuzaga kelish sabablari.
2. Fiziologik jarayonlarni fizik-ximiyaviy asoslari.
3. Fiziologik jarayonlar va fiziologik tadqiqotlarning usullari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Polevoy V.V. Fiziologiya rasteniyy.M., “Vissaya shkola” 1989
2. Rubin B.A. Kurs fiziologii rasteniy.M., “Vishaya shkola” 1976
3. Yakushkina N.I. Fiziologiya rasteniy. M 1980
4. Maksimov N.A. O’simliklar fiziologiyasining qisqa kursi. T.1966
5. Mustaqimov G.D. O’simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya asoslari... “O’qituvchi”, 1995
6. Abdullaev R.A. va boshqalar. O’simliklar fiziologiyasidan amaliy mashg’ulotlar. O’zMU.2002

Qo’shimcha adabiyotlar

7. Lebedov S. I. Fiziologiya rastenieniy. M. “Agropromizdat” 1988
8. Salamatova T. S. Fiziologiya rastitelnoy kletki. L. Izd-vo LGU. 1983.
9. Abdullaeva R. A. va boshqalar. O’simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. UzMU 2002 y.
10. Internet saytlarining ma’lumotlari

2- TMI mavzusi

O’simlik hujayrasinind kimyoviy tarkibi

Umumiy ma’lumot:

Butun o’simliklarning asosiy tuzilma birligini xujayralar tashqil etadi. Ularning tiriklik xususiyatlari shu xujayralarda belgilanadi. Chunki modda almashinuvi deb ataluvchi assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayonlari, ularning birligi fakat xujayradagina sodir bo’ladi. Ana shu ikkala jarayonning birligi tiriklik deb ataluvchi materianing harakat shaklini belgilaydi.

Yashil o’simliklar xar xil organlar yigindisidan iborat bo’lib, bu organlar uz navbatida tuk.imalar va xujayralar birlashmasidan tuzil-gan. Yuksak tuzilishga ega bo’lgan x,ar bir o’simlik organizmi murakkab tizim sifatida bir-biri bilan uzviv ravishda ayaokada-bo’lgan organlar va funktsiyalar yirindisidan iboratdir. Bu birlikning asosini xujayralar tashqil etadi.

XUJAYRAVIY TA’LIMOTNING RIVOJLANIS’H TARIXI. Organizmlarning hujayraviy tuzilishi to’frisidagi nazariyaning yaratilishi biologiya sohasidagi yirik yutuqlardan biridir. Xujayra organizmning asosiy bir tuzilma bulagi ekanligi to’frisidagi ma’lumot-lar XVII asrda vujudga kela boshladidi. Dastlab 1665 yilda ingliz olimi Robert Guk o’simliklar tuzilishini o’rganish uchun uzi takomillashtirgan mikroskogshan foydalandi va pukaktuzilishini o’rganish natijasida birinchi marta xujayra atamasini taklif etdi. XVII asrning oxirida mikroskopii yanadatakomillashtirgan gollandiyalik olim Anton Levenguk va italiyalik olim M.Malpighilar iflossuvtomchilarini kuzatish natijasida o’simlik xususiyatidagi bir xujayrali organizmlarni birinchi bo’lib kurdilar.

Talaba bajarishi kerak ishlar :

1. Hujayrali va hujayrasiz orgnizmlar
2. Hujayra organizmlarning asosiy tuzilish birligi
3. O'simlik hujayralarining kimyoviy va fizik xususiyatlari
4. O'simlik huayralarini kimyoviy tarkibini o'rganish usullari

Asosiy adabiyotlar:

1. Polevoy V.V. Fiziologiya rasteniyy.M., "Visshaya shkola" 1989
2. Rubin B.A. Kurs fiziologii rasteniy.M., "Vishaya shkola" 1976
3. Yakushkina N.I. Fiziologiya rasteniy. M 1980
4. Maksimov N.A. O'simliklar fiziologiyasining qisqa kursi. T.1966
5. Mustaqimov G.D. O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya asoslari... "O'qituvchi", 1995
6. Abdullaev R.A. va boshqalar. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashg'ulotlar. O'zMU.2002

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Lebedov S. I. Fiziologiya rastenieniy. M. "Agropromizdat" 1988
2. Salamatova T. S. Fiziologiya rastitelnoy kletki. L. Izd-vo LGU. 1983.
3. Abdullaeva R. A. va boshqalar. O'simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. UzMU 2002 y.
4. Internet saytlarining ma'lumotlari

3 -TMI mavzusi

O'simliklar fiziologiyasi fanidan laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rish

Umumiyl ma'lumot: O'simliklar fiziologiyasi fani bo'yicha labarotoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda [avfsizlik texnika qoidalariga kimyoviy reaktivlar bilan ishslash qoidalariga rioya qilinmog'I shart.

Talaba bajarishi kerak ishlar :

1. O'simliklar fiziologiyasi fanidan laboratoriya mashg'ulotdarida ishslash qoidalari
2. O'simliklar fiziologiyasi fanidan labarotoriya o'tkazishning maqsad va mohiyati
3. O'simliklar fiziologiyasi fanidan labarotoriya o'tkazishning ahamiyati

Asosiy adabiyotlar:

1. Polevoy V.V. Fiziologiya rasteniyy.M., “Vissaya shkola” 1989
2. Rubin B.A. Kurs fiziologii rasteniyy.M., “Vishaya shkola” 1976
3. Yakushkina N.I. Fiziologiya rasteniy. M 1980
4. Maksimov N.A. O’simliklar fiziologiyasining qisqa kursi. T.1966
5. Mustaqimov G.D. O’simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya asoslari... “O’qituvchi”, 1995
6. Abdullaev R.A. va boshqalar. O’simliklar fiziologiyasidan amaliy mashg’ulotlar. O’zMU.2002

Qo’shimcha adabiyotlar

7. Lebedov S. I. Fiziologiya rastenieniy. M. “Agropromizdat” 1988
8. Salamatova T. S. Fiziologiya rastitelnoy kletki. L. Izd-vo LGU. 1983.
9. Abdullaeva R. A. va boshqalar. O’simliklar fiziologiyasidan amaliy mashgulotlar. UzMU 2002 y.
10. Internet saytlarining ma’lumotlari

4- TMI mavzusi

Fototrof organizmlarning turli tumanligi

Umumiy ma'lumot: Organik moddalarning har қaysisi hujayrada mavjud bo’lgan ayrim uchastkalarda-k a m p o r t m ye n t l a r d a sintezlanadi. Kamportmentlar –hujayradagi erkin bo’shilqlardan tsitoplazma va vakuolni ko’rsatish mumkin. Shu bo’shilqlarda hosil bo’lgan va to’plangan shakar, glyukoza, fruktoza kabi moddalar tashki muhitga chiqariladigan birikmalardir. Ularning harakatlanishini hujayra membranalari tomonidan nazorat қilinmaydi.

Markaziy vakuolda organik kislotalar, oshlovchi moddalar, alkoloidlar va boshqa birikmalar to’planadi. Tsitoplazmada esa maxsus membranalar bilan o’ralgan organoidlar o’ziga xos organik moddalarni hosil қilishdareaksiyon kamportmentlar bo’lib hisoblanadi. Jumladan, sferosomalarda yog’lar, translosomalarda turli fenol birikmaları, ribosomalarda oksillar sintezlanadi. Sintezlangan Yuqorii molekulali moddalarning har қaysisi o’ziga xos vazifani o’taydi. Masalan, DNK irsiyat belgilarini nasldan-naslga o’tishini va turli-tuman oksillarni, shu jumladan oksil fermentlari hosil bo’lishini boshqaradi.

O’simliklar tanasidagi organik birikmalar turli-tuman bo’lishi bilan birga ularning funksiysi ham xilma-xildir. Ularning ba’zilari konstitutsion modda bo’lib, o’simliklar tanasini va hujayra organoidlarini tuzilishida ishtirok etadi. Boshkalari zahira ozik modda sifatida va fiziologik aktiv birikma shaklida o’simliklaning hayot jarayonidagi moddalar almashinuvida ishtirok etadi. Ammo o’simliklar tarkibidagi moddalar o’z shaklini o’zgartirib turadi. Masalan, zahira holdagi kraxmal, fermentlar ta’sirida parchalanib, nafas olish jarayonida sarflanishi mumkin yoki zahira holdagi oksillarning parchalanishidagi aminokislotalar tsitoplazma hosil bo’lishida ishtirok etadigan oksil birikmalariga қо’shilib

konstitutsion modda sifatida o'zgaradi. Konstitutsion hisoblangan moddalar ham fermentlar ishtirokida parchalanib, oziq moddalar қatorida sarflanadi.

Xulosa қilib aytganda, organik moddalarning bir turdan ikkinchi turga aylanishi, ya'ni o'zgarib turishi tirik organizmlar uchun xos xodisadir. Masalan, oksil molekulalari ham \ar 10-15 kunda yangilanib turadi. Tirik organizmlar tarkibidagi murakkab moddalar oksil tabiatli maxsus birikmalar, fermentlar ishtirokida o'zgarib turadi.

Xuja'yralardagi moddalar almashinushi (metabolizm) murakkab moddalarning uzluksiz ravishda sodda moddalarga parchalanib turishidan va murakkab moddalarning sintezlanishidan iborat.

Talaba bajarishi kerak ishlari :

1. Fototrof organizmlar va ularning tarqalishi
2. Fototrof organizmlarning oziqlanishi
3. Fototrof organizmlarning ahamiyati

Asosiy adabiyotlar:

1. Polevoy V.V. Fiziologiya rasteniyy.M., "Visshaya shkola" 1989
2. Rubin B.A. Kurs fiziologii rasteniyy.M., "Vishaya shkola" 1976
3. Yakushkina N.I. Fiziologiya rasteniyy. M 1980
4. Maksimov N.A. O'simliklar fiziologiyasining qisqa kursi. T.1966
